O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:81’1:811.92

***Zulfiya ABDULLAYEVA,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi*
*Email: zulfiyabmsz@bk.ru*

*O‘zMU (PhD) F.Axrorova taqrizi asosida*

## ODOB-AXLOQ QOIDALARINING MADANIY JIHATLARIDAGI NOVERBAL FARQLARI

Annotatsiya

Barchamizga ma’lumki chet tilini yaxshi bilish suhbatdoshning xolatini, ya’ni imo-ishorasini tushunmaslik ehtimoli bo‘lishi mumkin. Imo-ishoralar bilan suhbatga kirishishda chet ellik va shu davlatning urf odatlarini bilish asosiy maqsad qilib olish asoslidir. Chunki xati-xarakatlar orqali muloqotga kirishish o‘zga bir davlatning madaniyati urf odatiga qarshi bo‘lib qolishi mumkin ekan. Maqolamizning mazmun mohiyati ham imo-ishora va hati-xarakatlarga hamda yuz ifodalariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** imo-ishora, hati-xarakat, tushuncha, yuz ifodasi, suhbatdosh, etnografiya, usullar, kokorroko, qo‘l siqish, qoshni ko‘tarish, labni burish.

## НЕВЕРБАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В КУЛЬТУРНЫХ АСПЕКТАХ ЭТИКЕТА

Аннотация

Как мы все знаем, при хорошем знании иностранного языка возможно, что состояние собеседника таково, что он не понимает его жесты. При вступлении в разговор с помощью жестов знание обычаев иностранца и этого государства оправдано в качестве основной цели. Потому что оказывается, что вступление в диалог посредством переписки может идти вразрез с традициями культуры другого государства. Суть темы также сосредоточена на жестах и мимике.

**Ключевые слова:** жест, поведение-персонаж, концепция, выражение лица, собеседник, этнография, методы, кокорроко, рукопожатие, поднятие бровей, изгибание губ.

## NON-VERBAL DIFFERENCES IN CULTURAL ASPECTS OF ETIQUETTE

Annotation

As we all know, with a good knowledge of a foreign language, it is possible that the interlocutor's condition is such that he does not understand his gesture. When entering into a conversation with the help of gestures, knowledge of the customs of a foreigner and this state is justified as the main goal. Because it turns out that entering into a dialogue through correspondence may run counter to the cultural traditions of another state. The essence of the topic is also focused on gestures and facial expressions.

**Keywords:** gesture, hachi character, concept, facial expression, interlocutor, ethnography, methods, kokorroko, handshake, eyebrow raising, lip curving.

Yuz ifoda va imo-ishoralar turlicha bo‘lishiga qaramay, turli madaniy va etnik guruhlarda yuz ifodasi va imo-ishoralar turli xil ma’nolarni ifoda etishi mumkin. Barchamizga ma’lumki, chet tilini yaxshi bilgan holda ham, biz hali chet ellik suhbatdoshimizni tushunmaslik ehtimoli bor, agarda suhbatdoshimizning mamlakatida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari bilan tanish bo‘lmasak. Etnografiyada bu ko‘p xarakterli xususiyatlar tizimidan, xususan aloqa usulidan (til, imo-ishoralar, yuz ifodalari) iborat xalq (xududlarda) "madaniyati" bilan o‘zaro bog‘liq.

Yer yuzining janub tomonlariga yaqin bo‘lgan xudurlarga nazar solsak, odamlarning imo-ishoralari jonli tarzda namoyon bo‘ladi, ularning yuz ifodalari hamda xati-xarakatlari tilda namoyon bo‘ladi. Yevropada eng ko‘p imo-ishoralardan italiyaliklar foydalanadilar: masalan, ular ayol go‘zalligiga hayratni kamida beshta usulda bildiradilar. Masalan:

1. Bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan yuz orqali yurg‘izish.



2. Erkaklari barmoqlari bilan mo‘ylovni burish (mo‘ylov bo‘lmasa lab sohasini ushlab burish).



3. Pastki qovoqni biroz pastga tortish.



4. Kaftlarini naycha kabi buklab va teleskopga taqlid qilib, ko‘ziga olib kelish.



5. Qo‘polroq, bir vaqtning o‘zida ikkita bosh barmog‘ini ko‘tarish kabilar.



Shu bilan birga, har bir Italiya oilalari hissiyotlarni ifoda etishning o‘ziga xos usullari mavjud.

Kongoliklarda esa, biror kishi kirmoqchi bo‘lgan eshikni taqillatishi yoki eshikning qo‘ngirog‘idan foydalanishi mumkun emas. Bu kongoliklar uchun xurmatsizlik belgisi xisoblanadi. Bu xolatga ular yo‘l qo‘ymaydilar. Ularda bu xolat ovoz tariqasida ifodalanadi ya’ni "kokorroko" deb tovush orqali tasvirlaydilar.

Turk davlatida "yo‘q" deyish uchun boshlarini yelkadan yelkaga chayqatmaydilar, balki boshini ko‘tarib, tilini bosadi. Qat’iy rad etish holati arablarda bosh barmog‘ining tirnogini tishlab, qo‘lini oldinga tashlash orqali ifodalanadi. Malay negrlari esa rad etishni ko‘z orqali imo-ishora berishadi. YA’ni ko‘zlarini pastga tushirish yumish bilan ifoda etishadi. Bizda ko‘z orqali yumish imo-ishorasi rozilik belgisi deb tushuniladi. Bolgariyada rozilik belgisini bildirish holati boshlarini chayqash va aksincha bosh irg‘ash tushuniladi. Bunday xatti-harakatlar yunonlar, ruminlar, makedoniyaliklar, hindularga ham xosdir. Malta aholisi rad etish belgisi sifatida bilagini oldinga burib, barmoq uchlari bilan iyaklariga tekizishadi. Fransiya va Italiyada bu ishora odamda nimadir og‘riyapti degan ma’noni anglatadi.

O‘zi haqida gapirganda, Yevropalik qo‘lini ko‘kragiga, yapon esa burnini ko‘rsatadi. Agar amerikalik qo‘li bilan "bu yerdan ket" imo-ishorasini qilsa, Buenos-Ayres restoranda ofitsiant darhol unga yaqinlashadi: aynan shu imo-ishora bilan odatda uning mamlakatida biror kishini chaqirishga kiradi. Amerikalik yevropaliklarni imo-ishirasi bilan chaqirmoqchi bo‘lsa uni oldiga hech kim kelmaydi, chunki ko‘pchilik yevropaliklar uchun bu imo-ishora "xayr" degan ma’noni anglatadi. Biz uchun inglizlarning qo‘llari bilan ko‘zlar, og‘iz va quloqlarni yopadigan imo-ishorasi tushunarsiz bo‘lib qoladi (men hech narsani bilmayman"degan ma’noni anglatadi). Ammo ruslarning va aytish mumkinki o‘zbeklarning “pul” so‘zini aytish o‘rniga bosh barmog‘i bilan o‘rta va ko‘rsatkich barmogini ishqalash ishorasini ko‘p davlatlarda tushunishmaydi. Angliyada odatda ko‘chadagi ayol erkak bilan birinchi bo‘lib salomlashadi. Ayol erkak bilan tanishishni xoxlash yoki xoxlamaslik huquqiga ega ekanligini aynan Angliyada xushmuomalalik normasi hisoblanadi.

Indoneziyada boshini deyarli to‘xtatmay irg‘itish do‘stona munosabatda ekanligini ko‘rsatish ifodasi sanaladi. Bunday ko‘rinish Yevropaliklar uchun o‘zini-o‘zi kamsitishdek ko‘rinadi. Agar fransuz yoki italiyalik boshini qo‘li orqali ursa, demak, u har qanday fikrni ahmoqona deb biladi. Agar britaniyalik yoki ispanlar peshonasini kafti bilan ursa u boshqalarga o‘zidan mamnunligini ko‘rsatadi. Xuddi shu imo-ishora bilan nemis halqi o‘zining haddan tashqari kimgadir g‘azabini bildiradi. Gollandiya axolisi peshonasini urib turib, bir vaqtning o‘zida ko‘rsatkich barmog‘ini ham ko‘tarib tursa, bu fikr unga yoqqanini, biroq ushbu fikr axmoqona ekanligini anglatadi. Yunonistonda katta barmoq ko‘tarish bilan ifodalansa imo-ishora "jim bo‘l" degan ma’noni anglatadi. Italiyaliklar shuningdek, bizda ham bosh barmog‘ini ko‘rsatish "1"raqamini yoki "jim bo‘l"ish ifodasini beradi. Gollandiyada ko‘rsatkich barmog‘ini burish holati kimdir aqlli ibora aytganini anglatadi. Arablarning bog‘langan ko‘rsatkich barmoqlari sizga do‘stlashishni taklif qiladi, ammo Marokashda bu imo-ishora bilan adovat haqida ogohlantiriladi.

Germaniyada ko‘tarilgan qoshlar hayratni anglatsa, Angliyada shubxalanish ifodasini anglatadi. Amerikalik, bosh barmog‘i va ko‘rsatkich barmog‘ini "o" harfi shaklida bog‘lash, bu imo-ishora bilan "hammasi yaxshi" deb aytadi. Yaponiyaliklar esa, o‘zini yurtining ramziyligidan kelib chiqqan xolda bu ishorani, amerikalik pul so‘rayabdi deb tushunadi, Fransiyada esa bu imo-ishora "nol" yoki " hech narsa " degan ma’noni anglatadi.

Italiya xalqi ko‘rsatkich barmog‘ini burniga tekkizganda ishonchsizlikni bildiradi. Gollandiyada xuddi shu imo-ishora gapirayotgan yoki kim haqida gapirayotganini mast holatdagi shaxs deb tushunishadi. Fransuz esa biror narsadan xursand bo‘lsa, u uchta barmoqning uchlarini birlashtirib, ularni lablariga olib borib va iyagini baland ko‘tarib, havoga mayin o‘pich yuboradi. Agar u ko‘rsatkich barmog‘i bilan burnining uchini ishqalasa, demak, u kim haqida gapirayotganiga ishonmaydi.

Gondurasdagi miskito qabilasining odamlari yosh bolalarini burni bilan o‘pishadi va buni "ularning hidini

eshitish" deb atashadi. Uzoq vaqt davomida bu qabila orasida yashagan bir tadqiqotchi, "bizning o‘pish uslubimiz ularda jirkanch tuyg‘usini uygotadi va kannibalizmning yumshatilgan shakli hisoblanadi", deb ta’kidlaydi. Jazoirda yoki Misrda arabcha imo - ishora ruslarning xayrlashish imo-ishorasiga o‘xshaydi. Ba’zi qabilalar uchun notanish odamni ko‘rib, u yaqinlashguncha cho‘kkalab o‘tirish va bu tinch holatni u sezmaguncha turmaslik odat tusiga kiradi. Ba’zan esa "salomlashish uchun bosh kiyim, poyabzal va boshqa narsalar olib yechiladi".

Ma’lumot maxfiy ekanligi haqida ogohlantirish uchun ruslar va nemislar barmog‘ini lablariga, inglizlar burunlariga, italiyanlar esa xuddi shu ishorani xavf haqida ogohlantirish sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, quyidagilarni ta’kidlash joizki, xar xil millat va xalqlarning og‘zaki bo‘lmagan aloqasi xar xilligini bilmaslik, xoxlamay turib muammoga duch kelish yoki suxbatdoshni xafa qilib, xaqorat qilib qo‘yishga olib kelishi mumkin. Boshqa mamlakatlarga tashrif buyurganda, chet elliklar bilan uchrashganda bunday xolatlardan saqlanish uchun ularga xos bo‘lgan muloqotning og‘zaki bo‘lmagan tomonini oldindan o‘rgangan bolishimiz kerak.

Taxlilarimizdan ma’lum bo‘ldiki imo-ishoralar xar doim ham to‘g‘ri mazmunda insonlarga xizmat qilmas ekan. Imo-ishoralarning qo‘llanilishi davlatlar taxlilida imkonli va imkonsiz ekanligi ma’lum bo‘ldi. Demak, imo-ishoralar bilan muloqotga kirishishda muloqotga kirishgan davlatimizning madaniyatini oldindan bilib, o‘rganib borish hamda muloqotga kirishii maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR**


1. Bayeva YE. D. Jest kak vajneyshiy aspekt neverbalnoy kommunikatsii [Tekst] / YE. D. Bayeva. – M.: Armavir, 2010. – 155 s.
2. Baranov A. G. Yazikoviye mexanizmi variativnoy interpretatsii deystvitelnosti kak sredstvo vozdeystviya na soznaniye [Tekst] / A. G. Baranov, L. B. Parshin. – M., 1986. – 119 s.
3. Bgajnokov B. X. Adigskaya etika [Tekst] / Bgajnokov B. X. – Nalchik: AL-FA, 1999. – 52 s.
4. Bove Kortlend A. Sovremennaya reklama [Tekst] / Bove Kortlend A., fon Arens U. – M.: Dovgan, 1995. – 704 s.
5. Borozdina G. V. Psixologiya delovogo obsheniya [Tekst] / G. V. Borozdina. – M.: Infra, 2001. – 216 s.
6. Britkina D. S. Angliyskiye nadpisi na odejde kak ekstralingvisticheskiye faktori [Tekst]: mejdunar. stud. nauch.-prakt. konf. / D. S. Britkina. - Novosibirsk, 2015. – S. 59 – 71
7. Vasilik M. A. Para- i ekstralingvisticheskiye osobennosti neverbalnoy kommunikatsii [Tekst] / M. A. Vasilik. – M.: Eksmo, 2009. – 185s.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 81.11**

***Nozimjon ATABOYEV,***
*BuxDU dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
*E-mail:n.b.ataboyev@buxdu.uz*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.Axmedova taqrizi asosida*

## MEDIA MATNLAR KORPUSINING MAVJUD INGLIZ TILI DIAXRONI KORPUSLARI PRIZMASIDA TAHLILI

Annotatsiya
Maqolada yaratilgan mediamatnlar diaxronik korpusi va hamda mavjud ingliz tilining shu turdagi korpuslar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar tahlilga totiladi. Keltirilgan o'zaro qiyoslash aniq chizmalar asosida amalga oshiriladi.
**Kalit so'zlar:** Korpus lingvistikasi, korpus, mediamatn, mediamatnlar diaxronik korpusi

## ANALYSIS OF THE MEDIA TEXTS CORPUS IN THE PRISM OF EXISTING ENGLISH DIACHRONIC CORPORA

Annotation
The article analyzes the similarities and differences between the diachronic corpus of media texts and the corpus of the existing English language. The given mutual comparison is carried out on the basis of clear drawings.
**Key words:** corpus linguistics, corpus, media text, diachronic corpus of media texts

## АНАЛИЗ КОРПУСА МЕДИАТЕКСТОВ В ПРИЗМЕ СУЩЕСТВУЮЩИХ АНГЛИЙСКИХ ДИАХРОНИЧЕСКИХ КОРПОРА

Аннотация
В статье анализируются сходства и различия диахронического корпуса медиатекстов и корпуса существующего английского языка. Данное взаимное сравнение осуществляется на основе наглядных рисунков.
**Ключевые слова:** корпусная лингвистика, корпус, медиатекст, диахронический корпус медиатекстов.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida o‘tgan asrning 60-yillarida lisoniy korpuslarni yaratish va ularning tatbiqi bilan shug‘ullanuvchi – korpus lingvistikasining kompyuter texnologiyalari bilan o‘zaro aloqasi jadallashdi. XIX asrning boshlarida tilshunoslik sohasi korpus lingvistikasining nazariy tamoyillari shakllanishi natijasida ilk namuna – Brovn korpusi yaratildi. Natijada, insoniyatning intellektual boyligini elektron korpus asosida avtomatik raqamlashtirish zamonaviy tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb vazifalari sirasiga kiritildi. Shu sababli til yoki tilning muayyan qismini o‘zida ifoda etgan, yozma va og‘zaki matnlarni umumlashtirgan elektron lisoniy baza – korpus tahlil metodlarining amaliy ifodasi bo‘lgan milliy korpuslar til rivoji, leksik qatlam boyishi va uning bugungi kuni xususidagi statistik tahlilini aniq sonlarda takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy korpuslar taqdim etayotgan keng imkoniyatlarni aniqroq ko‘rsatish uchun yuqorida sanab o‘tilgan ingliz tili korpuslari konkordansida taqdim etiladigan ma'lumotlar shakli va formatimuhokamaga tortildi. Birinchi o‘rinda Google Books n-gram korpusiko‘rib chiqildi, chunki hajm jihatidan jami 200 milliarddan ko‘proq so‘zli matnlarni qamrab oladi, bundan 155 milliardi amerikacha ingliz tiliga to‘g‘ri kelsa, 34 milliardi britaniya ingliz tilisidan olingan matnlardan tashkil topgan. Ushbu korpusning o‘ziga xos tomoni shundaki, u oddiy va murakkab qidiruv natijalarini 1800 yildan 2000 yilning birinchi o‘n yilligigacha bo‘lgan ikki asr oralig‘ida yozilgan kitoblarni o‘z ichiga korpus konkordansda o‘n yilliklar tartibida BChlarini jadval yoki grafika ko‘rinishida taqdim etadi. Bunday ko‘rinishdagi qidiruvlar asosan so‘z qo‘llashning rivoji yoki etimologiyasini o‘rganishda qo‘l keladi. Masalan, oddiy qidiruvda internet so‘zi kiritildi va konkordans natijalari kiritilgan birlik yagona bo‘lgani uchun bir chiziqli grafika orqali berildi (1-chizma). Grafikadan ko‘rish mumkinki, ushbu tushuncha yigirmanchi asrning so‘ngi ikki o‘n yillikda keng qo‘llanila boshlangan, lekin ungacha so‘z chastotasi deyarli iste'molda bo‘lmaganini ko‘rsatyapti. Bu esa uning yaratilishi va ilm-fanda keng qo‘llanila boshlangan davrlarga ishora qiladi.

1-chizma.
Google Books n-gram korpusida internet leksemasining qo‘llanilish diaxronikasi




Google Books n-gram korpusida murakkab qidiruv amalga oshirilganda kiritmalar soni beshtani tashkil etdi. Ular internet, book, television, radio va newspaper kabi axborot almashishning boshqa turlari ham kiritmalar sifatida vergul

orqali oraliq masofa tashlamasdan (probilsiz) konkordans qidiruviga berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har bir so‘z o‘z rivojlanish va shu asnoda tilga kirib kelishi mutanosibligida yillar oralig‘ida mos ravishda kam va ko‘p chastotalarni taqdim etdi (2-chizma). Ushbu korpus natijalaridan internet-internet XX asrning oxirida; televizor – television XX asrning 40-yillaridan; radio – radio XX asrning boshidan va gazeta – newspaper XIX asrning boshlaridan beri qo‘llanila boshlangan bo‘lsa, kitob – book har ikkala asrda ham qo‘llanilish chastotasi jihatidan qolgan axborot vositalaridan eng ko‘p qo‘llanilganini aniq ko‘rish mumkin. Bu tahlillar yuqoridagilarning jamiyatga kirib kelish tarixi haqidagi bilimlarga ega bo‘lmay turib ham, lisoniy korpus tahlillarini o‘rganish orqali kerakli va eng muhimi asosli xulosalarga kelish qiyin kechmaydi.

2-chizma.
Google Books n-gram korpusida internet, book, television, radio va newspaper leksemalarining qo‘llanilish diaxronikasi




Sketch engine formatining eng muhim va foydali tomonlaridan biri unda so‘zlar ro‘yxati (word list)ning avtomatik shakllantirib berilishidadir. Har qanday korpus kiritilgandan so‘ng uning tarkibida qo‘llanilgan matnlarning so‘z-tur shaklda alohida tartiblanadi va har bir so‘z-turning chastotasiga ko‘ra jadvalda o‘rin egallaydi. Eng birinchi o‘rindagi so‘z-tur shu korpusda eng ko‘p qo‘llangan so‘z-so‘zlarnibirlashtiradi. Shunday kuzatuvlarning biri Sketch engine internet korpuslar yaratish va ular bilan ishlash saytida mavjud BNC tarkibida qo‘llanilgan so‘z-turlarning chastotali tartibdagi jadvali shakllantirildi. BNC Milliy lisoniy korpus maqomiga ega bo‘lganligi uchun undan olingan natijalar asosida chiqarilgan xulosalar o‘z-o‘zidan britaniyacha ingliz tiliga aloqador deb qarash o‘rinli bo‘ladi. Shunga asoslanib,e'tirof etish mumkinki, ushbu tilda eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar qaysilar ekani tez va aniq sonlarda ko‘rsatib berildi. Unga ko‘ra,BNC tarkibida so‘z-so‘z (token)larning soni 95 548 323ni ko‘rsatdi, bu chastota 155 434 so‘z-turning takroriy qo‘llanishidan kelib chiqqani ma'lum bo‘ldi. Ularning eng ko‘p qo‘llanilgan yigirmatasi ajratib olindi (3-jadval).

3-jadval

BNC tarkibida eng yuqori BChli so‘zlar ro‘yxati

| т/р | So‘z-tur | БЧ | | т/р | Сўз-тур | БЧ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | The | 6 054939 | | 11 | For | 880 805 |
| 2 | Of | 3049448 | | 12 | I | 872 236 |
| 3 | And | 2 624 147 | | 13 | On | 731 234 |
| 4 | To | 2 599 451 | | 14 | You | 668 407 |
| 5 | A | 2 175 967 | | 15 | with | 659 976 |
| 6 | In | 1 945 533 | | 16 | As | 655 175 |
| 7 | That | 1 120 750 | | 17 | Be | 651 542 |
| 8 | It | 1 054 366 | | 18 | He | 641 241 |
| 9 | Is | 991 771 | | 19 | At | 524 061 |
| 10 | Was | 883 547 | | 20 | By | 513 428 |

4-rasm
Media matnlari diaxronik korpusining ingliz tili bandida eng faol 20 ta leksik birlik




5-rasm
Media matnlari diaxronik korpusining o’zbek tili bandida eng faol 20 ta leksik birlik



Yaratilgan media matnlar diaxronik korpusi o’z ichiga jami 403500 ta so’z birligidan tashkil topgan matniy elementlarni oladi. Ushbu matnlar “Oila va jamiyat” hamda “Annaheim Bulletin” kabi gazetalar tarkibidan jami 30 yillik vaqt oralig’i, ya’ni 1990-yildan 2020-yilgacha bo’lgan muddatda chop etilgan nashrlardan yig’ilgan bo’lib, “Oila va jamiyat” gazetasidan 405 ta maqola hisobidan umumiy 202500 ta so’z birliklarini o’z ichiga olgan bo’lsa, bu miqdor “Annaheim Bulletin” gazetasidan 402 ta maqola va 201000 ta so’z sifatida aks etadi. Yuqorida keltirilgan ingliz tilining mavjud korpuslari tarkibidan olingan inglizcha so’zlarning faollik darajasi ro’yxati bilan solishtirilganda shu ma’lum bo’ladiki, biz yaratgan korpusda ham aynan shu funksional ko’makchi so’zlar tarkibiga kiruvchi artikl, predlog va ko’makchi fellar eng faol 20 talikda turadi. Farqli jihati shundaki, eng faol qo’llaniluvchi 20 talik so’zlar qatoriga 9-o’rinda said so’zi, 10-o’rinda unga ko’pincha ergashib keluvchi that bog’lovchisi kelgan bo’lsa, 14-o’rinda Annaheim so’zi qo’llanilganini ko’rishimiz mumkin. Bu esa, biz tomonimizdan yaratilgan korpus aynan media matnlar tarkibidan olinganini isbotlaydi va korpus matnlari aynan axborot yetkazish vazifasini bajarishiga ishora qilibgina qolmay, bu orqali tadqiqot natijalarining ishonchli ekanligini ham ko’rsatadi.

**Xulosa va takliflar:** Media matnlar diaxronik korpusining funksional xususiyatlari lisoniy birliklarning o‘zaro semantik farqlanishi korpus tahlil natijalari asosida aniqlanadi. Ular sirasiga semantik birikmalarni o‘rganishga qaratilgan izlanishlar uchun korpusning tutgan o‘rni kiritilishi mumkin. Sintaktik tadqiqotlarda Media matnlar diaxronik korpusidan olingan misollar fe’l shakllari va ularning o‘zaro grammatik munosabati hamda sintaktik qurilmalar xususida keng ma’lumot manbaidir. Media matnlar diaxronik korpusida frazeologik birliklar tadqiqi uchun zarur KWIC tizimi orqali birikishi mumkin bo‘lgan so‘zlar va kelishi mumkin bo‘lgan orfografik belgilar tahlili imkoniyatlari mavjud. Morfologik birliklar tadqiqida Media matnlar diaxronik korpusi amaliy jihatdan morfologik birliklarning shaklan va birikma holatida ingliz tilida mavjud yoki mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ingliz tili korpuslaridan bo‘lmish ikkinchi avlod vakili Media matnlar diaxronik korpusi tarkiban linvomadaniy birliklarning tildagi ifodasini aniqlashga doir miqdoriy misollar manbaidir. Korpus tahlillarida muayyan tushuncha (konsept) tanlab olinadi va unga oid konkordans misollari bir tilli korpuslararo qiyosiy o‘rganib chiqiladi. Madaniy birlikni ifodalashga kerak bo‘lgan barcha ma’lumotlar yig‘ilib, ikki madaniyatda «oila» tushunchasini anglashdagi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

## ADABIYOTLAR


1. Gries S.Th. Quantitative designs and statistical techniques/ English Corpus Linguistics edited by Douglas Biber and Randi Reppen. – United Kingdom: Cambridge, 2015. – P. 52.
2. Bobojon o’g’li, N. A. Corpus-Based Research On The Language Features Of Corpus Linguistics: In The Example Of ECOCL. Language, 3(2139), 950.
3. https://www.english-corpora.org/googlebooks/
4. https://mediatextcorpus.com/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 808,5,81

*Fotima AXRAROVA*,
*O’zbekiston Milliy universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasi dotsenti(PhD)*
*Email: fatiman.b83@mail.ru*

*O‘zMU professori A.E.Mamatov taqrizi asosida*

# ZAMONAVIY TILLARNI O‘QITISHDA METODIK TEXNOLOGIYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya
Xorijiy tillarni o‘qitishda ma’lum bir texnik va pragmatik qoidalarga qaratilgan. Bunday texnologiyalardan foydalanish masalalari bilan pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari shug‘ullanadi. Pedagogik texnologiyalarni darslarda zamonaviy yangicha usullarda olib borish bugungi kunning talablaridan biridir. Pedagogik texnologiya asosan, XX asrning 30 yillarida ta’lim tarbiya mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va uslublar yig‘indisidan iborat.
**Kalit so‘zlar:** chet til, pedagogik texnologiya, uslub, pedagogik master, pedagogik texnika, o‘qitish metodlari.

# ОТЛИЧИТЕЛНИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЯЗИКОВ

Аннотатция
Как оказалос, обучение иностранному языку сосредоточено на определенних технических и прагматических правилах. Специфические характеристики педагогических технологий касаются вопросов исползования таких технологий. Проведение педагогик технология на занятиях современними новими способами является одним из требований сегодняшнего днй. Педагогик технология в основном состоит из комплекса методов и приемов, помогаюших четко и эффективно организоват учебно-воспитателную деятелност в 30-х годах 20 века.
**Ключевие слова:** иностранний язик, педагогическая технология, метод, педагогический мастер, педагогическая техника, методика обучений.

# DISTINCTIVE FEATURES OF METHODOLOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MODERN LANGUAGES

Annotation
As it turns out, foreign language teaching focuses on certain technical and pragmatic rules.The specific characteristics of pedagogical technologies relate to the use of such technologies. Conducting Pedagogic technology in the classroom in modern new ways is one of the requirements of today. Pedagogic technology mainly consists of a set of methods and techniques that help to clearly and effectively organize educational activities in the 30s of the 20th century.
**Key words:** foreign language, pedagogical technology, method, pedagogical master, pedagogical technique, teaching methods.

Zamonaviy ta’lim standartlari asosida axborot olami tasavvur qilib bo‘lmas darajada ongu shuurimizni egallab borayotgan sharoitda xalqlarning madaniy integratsiyasi shiddat bilan o‘sayotganligiga tabiiy jarayon deb qarasak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chet tillarni chuqur o‘rgangan, dunyo xalqlari bilan erkin muomala qila oladigan, o‘z yurti, xalqi, davlati manfaatlarini yuksak bilim va iqtidor bilan himoya qilishga qodir mutaxassislargina bunday ulkan global muammolarni yechishga qodirdirlar [1]. Zero, “bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallayotgan, intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir” [2].

Zamonaviy tilni o‘qitishda Pedagogik texnologiyalarni darslarda zamonaviy yangicha usullarda olib borish bugungi kunning talablaridan biridir. Pedagogik texnologiya asosan, XX asrning 30 yillarida ta’lim tarbiya mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi metodlar yig‘indisi bo‘lgan. Bu esa “pedagogik texnika”, uni amalga oshiruvchi “pedagogik master” (pedagogik mahorat ma’nosida) nomini olib, o‘sha davrda ta’limning eng samarali tadbiri hisoblangan. Har qanday fanni o‘quvchiga yetkazib berishda usullar muhim rol o‘ynaydi. J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonovlarning fikricha, harakatlarni amalga oshirish tizimi **usul** deb tanlangan, ma’lum yo‘ldan foydalangan holda oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo‘llanadigan harakat usullariga aytiladi *[3]*.

Bundan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy tilni o‘qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanganda dars soati davomida yangi pedagogik texnologiyalar (texnik vositalar) asosida ish olib borish asosiy vazifadir.

Lekin, o‘qitishning texnik vositalarini rus olimlari TSO (Texnicheskiye sredstva obucheniya) deb atashgan. TSO – o‘qitish usuli, pedagog va talabalar tomonidan o‘quv jarayonida foydalaniladigan turli xil obyektlardir. Y.K.Babanskiy fikricha, “... faoliyat maqsadiga erishishga yordam beradigan barcha narsalar, ya’ni uslublar, shakllar va maxsus o‘quv qo‘llanmalar to‘plami, texnik o‘quv qo‘llanmalar dars yoki darsning maqsadlariga qarab belgilanadi” [4], deb ta’rif bergan.

T.N.Ajgibkova ta’limotida TSO - texnik qo‘llanmalari o‘quv jarayonini optimallashtirish maqsadida uni taqdim etish va qayta ishlash uchun ishlatiladigan didaktik qo‘llab-quvvatlanadigan texnik vositalar to‘plami. TSO nomidan ko‘rinib turibdiki, bu o‘quv materiallarini, ya’ni turli xil ma’lumotlarni yetkazib beruvchi. Ular bizning ta’lim jarayonimizda keng qo‘llanilib kelinayapti.

Xalq pedagogikasi xalqning o‘zi yashab turgan zaminda asta-sekin yuzaga kelgan maqol, ibora, matal, ertak, qo‘shiq kabi xalq ijodiy yodgorliklarida o‘z ifodasini topgan. O‘zbek faylasuflari jahon fani va madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shishga muvaffaq bo‘lganlar. Masalan: Mahmud

Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Al Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mashhur olimlar o‘z ilmiy va badiiy asarlarida ta’lim tarbiya usullari haqida ko‘plab ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganlar.

Har qanday fan *fan* sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot usullariga ega va bu usullar orqali o‘z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogika fani ham mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan usullari, kabi izohlaydi.

Ilmiy tadqiqot metodlari qonuniyatlari aloqalarning bog‘liqliklarini aniqlash va ilmiy nazariyalar yaratish maqsadida ilmiy axborot olish usuli sanaladi. “Metod” so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, yo‘l, usul ma’nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, metodik adabiyotlarda “o‘qitish metodlari”, “ta’lim metodlari” deb yuritiladigan bu tushunchani “o‘rgatish metodlari” deb atash asosli. Chunki har qanday soha mutaxassisi bo‘lish uchun, avvalo, *UQISH* (tushunib o‘rganish) orqali o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lshi mumkin [4].

CH.K.Friz va R.Lado fikrlariga ko‘ra, chet til amaliy va ta’limiy maqsadda o‘rganiladi [5].

Professor I.V.Raxmanov ta’rificha, “Metod – maqsad sari yo‘naltirilgan sistema bo‘lib, bu tushunchalar bir-birlari bilan shartli bog‘langan usullardir” [6].

I.V.Raxmanovning ta’rifiga qo‘shilgan holda, chet til o‘qitish usullarni o‘quvchiga bor mahorati bilan yetkazib bera oladigan mutaxassisni tushunamiz.

Olimlarning fikriga ko‘ra chet tilni o‘rgatishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar, jumladan, quyidagi o‘rgatish metodlari ko‘proq qo‘llanilgan.

*1.Grammatik tarjima metodi.*

Agar chet til o‘qitish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng avval, grammatik-tarjima metodi shakllanganligiga guvoh bo‘lamiz. U ikki ko‘rinishda bo‘lgan: leksik tarjima va tekstual (matn) tarjima. Zamonaviy malakali mutaxassisdan chuqur bilim kasbiy mahorat bilan birga kompyuter savodxonligi va albatta chet tillardan birini bilish talab etiladi, chunki u o‘z mehnat faoliyatida xorijiy manbalarda chop etilgan o‘z kasbiga oid materiallarni o‘qib, tarjima qila olishi, uni amaliyotga tadbiq qila bilishi, xorijlik hamkasbi bilan ishga doir fikr almasha bilishi kerak. Buning uchun zamonaviy mutaxassis ma’lum darajadagi so‘z boyligiga ega bo‘lishi lozim, shundagina u xorijiy tildagi matnni o‘z ona tiliga tarjima qila olishi va fikrini xorijiy tilda ifodalay bilishi mumkin, shuning uchun ham tarjima chet tili o‘qitish metodikasida muhim o‘rin egallab kelgan.

*2.Leksik tarjima metodi.*

Leksik tarjima metodida asosiy e’tibor leksik birliklar (so‘zlar) va bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lishi shart bo‘lmagan gaplarni tarjima qilishga qaratiladi. Bu ko‘proq so‘zlarni gaplarda ishlata bilish ko‘nikmalarini shakllantirishda mashq qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu metodni til ko‘nikmalari integratsiyasi kabi fanlarda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

*3.Uest metodi.*

M.Uestning metodi quyidagi tamoyillarga asoslangan: 1. O‘quvchi ikki tilni bilishi uchun ingliz tilini o‘qishdan boshlab o‘rganishi kerak. 2. Chet tilni o‘rgatishning eng oson usuli o‘qishdir. 3. O‘quvchi o‘qish orqali chet tilini o‘rganayotganda tezda muvaffaqiyatga erishadi. 4. O‘quvchi o‘qish orqali chet tilni o‘rganayotganda o‘qituvchining tajribasi, mahorati muhim emas. 5. O‘quvchi inglizcha o‘qish malakasini egallay olsa, boshqa malaka ko‘nikmalarini mustaqil o‘rganib keta oladi. M.Uest so‘z ma’nosini ochishda ona tilini, tarjimani qo‘llashga qarshi emas edi. O‘z metodi asosida qo‘llanma va darsliklar yaratdi, ularni amalda qo‘llab ko‘rsatdi. Bugungi kunda, uni tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarida qo‘llash mumkin.

*4.Audio-lingval metodi.*

To‘g‘ri metodning zamonaviy ko‘rinishidan biri. Bu metod lotin va olmon so‘zlaridan o‘zlashgan (audire – hören – tinglamoq, lingua – zunge, rede, sprache – til). Olmon tiliga tinglash, gapirish, deb tarjima qilinadi. Bu metod filologiyada ham, nofilologik yo‘nalishlarda ham qo‘llanilib kelinmoqda. Zamonaviy ta’lim standartlari asosida audio-lingval metod bilan dars olib borish talabada fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

*5.Audio-vizual metodi.*

Bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib idrok qilish. Bunda tinglovchi uni qanday eshitish va qay holatda tinglashiga bog‘liq. Asosan, chet tillarni o‘rganishda ko‘proq qo‘llanadi. 3-4 kurs talabalari sinxron tarjima fanlarida qo‘llasa samarali natijalarga erishadi.

*6.Ongli qiyoslash metodi.*

Chet tilni ona tiliga suyangan xolda nutq faoliyati turlarini qo‘llash. Fikrlashning bu turi Edvard de-Bono tomonidan ishlab chiqilgan. Odatda, biz amaliy masalani yechish yo‘lida qiyinchiliklarga ro‘baro‘ bo‘lamiz. “Olti qalpoqcha” usuli bunday qiyinchiliklarni yengish jarayonini olti bosqichda amalga oshirishning oddiy yo‘lini taklif etadi. Har bir bosqich o‘zining rangli qalpoqchasiga ega. YA’ni, biz hamma narsa haqida birdaniga emas, balki navbatma-navbat fikr yuritamiz, natijada muammoning to‘laqonli yechimiga erishamiz. Og‘zaki nutq ko‘nikmalari fanida talabaning erkin fikrlashida o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishda samarali metod.

*7.Kommunikativ metodi.*

O‘qituvchining talabalar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o‘rnata olish ko‘nikmasi.

*8.Problemali (muammoli) o‘qitish metodi.*

Intellektual faoliyat bilan bog‘liq masalalarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan vaziyat. Siyosatshunoslik, yurisprudensiya, jinoiy javobgarlik kabi fanlarda talabalarning bir-biri bilan diskussiyaga kirishishida bu metod yaxshi samara beradi.

*9.Intensiv metodi.*

Mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo‘lsa, u shunchalik tez o‘zlashtiradi.

M.Uest metodi (Michael West) og‘zaki nutq va o‘qishni o‘rganish hamda o‘quv lug‘atlarini tuzishda ilmiy xizmati katta.

Fikrimizcha, bu metodlarning vujudga kelishida, shubhasiz, pedagogika, psixologiya, shaxs psixologiyasi, lingvistika, psixolingvistika fanlarining rivojlanishi va ta’siri katta bo‘ldi. Chet tilni o‘rgatish metodlari haqidagi turli-tumanlik metodist olimlar orasida hamon yagona fikr yo‘qligidan dalolat beradi. Masalan, I.V.Raxmanov va M.V.Lyaxovitskiylarning fikricha, chet tilni uchta umumiy metod orqali o‘rgatish mumkinligini tadqiqotlarimiz davomida o‘rganib chiqdik:

1. Namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;
2. Tushuntirish metodi;
3. Mashq ishlatish yoki amaliy ishlarni tashkil qilish metodi.

Akademik olim R.K.Minyar-Beloruchev mazkur uch metodni boshqacha atamalar orqali nomlashni ma’qul ko‘rgan [9]:

1. Tushuntirish metodi;
2. Ko‘rsatish metodi;
3. Mustahkamlash metodi.

I.L.Bim esa, o‘rgatish metodlarini quyidagicha to‘rt usulda tasniflaydi:

1. Ko‘rsatish;
2. Tushuntirish;
3. Mashq bajartirish;

4. Malakalarni amalda qo‘llash.

Bu mashhur uch metodist olimlar R.K.Minyar-Beloruchev, I.V.Rahmanov va M.V.Lyaxovitskiylarning usullari ma’no jixatidan bir-biridan farq qilmaydi.

B.I.Passov, I.M.Mahmudovlar asarlarida metodlarning soni ko‘paytiriladi:

1. Tushuntirish metodi (retseptiv metod yoki ko‘rgazmali tushuntirish metodi);
2. Reproduktiv metod;
3. Muammoli (problemali) o‘qitish metodi;
4. Evristik suhbat metodi;
5. Ilmiy izlanish yoki ilmiy tadqiqot o‘tkazish orqali o‘rgatish metodi.

Bunday turli-tuman tasniflanishda o‘rgatish metodlari, usullari, tamoyillari o‘zaro aralashtirilib yuborilganday. Shu sabab yuqorida keltirilgan barcha metodlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi R.K.Minyar-Beloruchevniig tasnifini tadqiqotimiz davomida ma’qul, deb topdik.

Taxlilarimiz davomida R.K.Minyar-Beloruchev nazariyasiga qo‘shilgan holda, umumiy xulosaga kelib, uning tasnifidagi o‘rgatish metodlarining umumiy xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Demak, dars jarayonining samaradorligi pedagogni o‘quv faoliyatini tashkil qilishi va boshqarishga yo‘naltirgan faoliyati qay darajada yaxshi rejalashtirilganiga, bu reja qanday amalga oshirilganligiga bog‘liq, degan fikrga keldik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish usullarining nazariy shakllanishi tarixiy muddat oralig‘ida o‘rganilayotgan muammo doirasida tahlil qilishda kechadi, deb hisoblaymiz.

## ADABIYOTLAR


1. Sirojiddinov SH. Chet tillarini o‘qitishda lingvodidaktika. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” Iltiy-metodik elektron jurnal. №1 /2014.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998.
3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. «Fan va texnologiya» T.: 2008.
4. Astvatsaturov G. O. Dizayn multimediynogo uroka. – Uchitel. Volgograd. 2010.
5. Ajgibkova T.N. Texnologiya primeneniya audiovizualnix sredstv obucheniya v vuzax // Innovatsii v obrazovanii. - 2004. - № 2. - 111-123 s.
6. Pedagogika. (A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida) O‘qituvchi,Toshkent, 1996. – 9 b.
7. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi” Toshkent 1996.
8. Raxmanov I.V. Ocherk po istorii metodov prepodavaniya novix inostrannix yazikov. Avtoref.dokt.diss.: - M.: 1949 osnovniye napravleniya v metodike prepodavaniya inostrannix yazikov v XIX-XX vv.
9. Chet til o‘qitish metodikasi ishchi o‘quv dasturi. Qarshi davlat universiteti. 2006.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 811.413:418

***Мадина БАТИРХАНОВА,***
*Докторант Ферганского государственного университета, Ph.D.*
*E-mail: mbatirkhanova@mail.ru.*

*По отзыву Давлятовой Г.А., доцента ФарДУ*

## СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДАХ

Аннотация

В данном исследовании представлен анализ методик, используемых при переводе идиоматических выражений и фразеологических единиц на английском, узбекском и русском языках. Значение этих фразеологизмов выходит за рамки просто лексических конструкций; они являются неотъемлемой частью лингвистической сущности этих языков. Динамичный характер идиоматических выражений, обусловленный постоянным развитием научных областей, технологическим прогрессом, политической динамикой и глобальными конфликтами, требует бдительного подхода к ассимиляции в лингвистических исследованиях. Распространенность фразеологических единиц в текстовых источниках подчеркивает их вездесущность. Поэтому в процессе перевода перед лингвистами и переводчиками встает сложная задача, прежде всего по выявлению и адекватной передаче этих идиоматических выражений на языке перевода. Развернутые разговорники являются важнейшим инструментом в этой работе, облегчающим устный и письменный перевод.

**Ключевые слова:** культурная сущность, фразеология, языковые корни, идиома, культурология, теория перевода, культура перевода, эквивалентность и неэквивалентность, иронические выражения, аллюзия, намеки, этические выражения, благословения, этнографизмы, фольклоризмы.

## INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TARJIMALARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda ingliz, o‘zbek va rus tillarida idiomatik iboralar va frazeologik birliklarni tarjima qilishda qo‘llaniladigan usullar tahlili berilgan. Bu frazeologik birliklarning ma’nosi faqat leksik konstruksiyalardan tashqariga chiqadi; ular bu tillarning lingvistik mohiyatining ajralmas qismidir. Ilm-fan sohalarining doimiy rivojlanishi, texnologik taraqqiyot, siyosiy dinamika va global konfliktlar tufayli idiomatik iboralarning dinamik tabiati lingvistik tadqiqotlarda assimilyatsiyaga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Matn manbalarida frazeologik birliklarning keng tarqalganligi ularning hamma joyda mavjudligini ta’kidlaydi. Shu bois tarjima jarayonida tilshunoslar va tarjimonlar oldiga eng avvalo ana shu idiomatik iboralarni o‘rganuvchi tilda aniqlab, adekvat yetkazish qiyin vazifa turadi. Kengaytirilgan so'zlashuv kitoblari bu ishda og'zaki va yozma tarjimani osonlashtiradigan muhim vositadir.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat mohiyati, frazeologiya, til ildizlari, idioma, madaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjima madaniyati, ekvivalentlik va tengsizlik, istehzoli iboralar, ishora, tashbehlar, axloqiy iboralar, ne’matlar, etnografizmlar, folklorizmlar.

## СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДАХ

Annotation

This study presents an analysis of the techniques used in translating idiomatic expressions and phraseological units in English, Uzbek and Russian. The meaning of these phraseological units goes beyond mere lexical constructions; they are an integral part of the linguistic essence of these languages. The dynamic nature of idiomatic expressions due to the constant development of scientific fields, technological progress, political dynamics and global conflicts requires a vigilant approach to assimilation in linguistic studies.The prevalence of phraseological units in textual sources emphasizes their ubiquity. Therefore, in the process of translation, linguists and translators face a challenging task, first of all to identify and adequately convey these idiomatic expressions in the target language. Unfolded phrasebooks are an essential tool in this endeavor, facilitating interpretation and translation.

**Key words:** cultural essence, phraseology, linguistic roots, idiom, cultural studies, translation theory, translation culture, equivalence and non-equivalence, ironic expressions, allusion, innuendo, ethical expressions, blessings, ethnographicisms, folklorisms.

**Введение.** Лексикографическое и лингвистическое изучение фразеологизмов многогранно, особенно при переводе английского, русского и узбекского языков. Фразеология, изучающая набор выражений или фраз, играет важнейшую роль в понимании и передаче нюансов языка. Фразеология играет решающую роль в понимании и передаче нюансов языка. Каждый язык имеет свой уникальный набор фразеологизмов, что может создавать значительные трудности при переводе.

Трудности перевода: Культурная специфика: Многие фразеологизмы глубоко укоренились в культуре и истории своего языка происхождения. Это усложняет перевод, поскольку переводчику необходимо найти эквивалентные выражения в языке перевода, которые передают тот же смысл и культурную сущность. переводчику необходимо найти эквивалентные выражения на языке перевода, которые передают тот же смысл и культурную сущность.

Неэквивалентность: Часто в языке перевода не существует прямого эквивалента фразеологизма. Переводчик должен либо найти близкий аналог, либо перефразировать его, сохранив при этом исходный смысл и влияние.

Контекстуальное употребление: Понимание контекста, в котором используется фразеологизм, имеет решающее значение. Это включает не только лингвистический, но и ситуативный и культурный контекст.

Подходы к переводу: Буквальный и образный перевод: Решение о том, когда переводить фразеологизмы буквально, а когда переводить фразеологизмы дословно, а когда адаптировать их к культуре перевода - это очень важный момент.

Аннотации: Переводчики иногда используют сноски или аннотации, чтобы объяснить культурное или идиоматическое значение.

Адаптация: Переводчики могут адаптировать фразеологизм, чтобы сделать его более понятным для целевой аудитории, иногда изменяя культурную отсылку, сохраняя при этом предполагаемое воздействие.

Роль технологий: Достижения в области вычислительной лингвистики и искусственного интеллекта помогли в переводе и изучению фразеологизмов. Однако системы машинного перевода все еще испытывают трудности с точным переводом идиоматических выражений и культурно-специфических фразеологизмов.

Контекст английского, русского и узбекского языков: Перевод между этими тремя языками интересен из-за Благодаря их различным языковым корням (германским, славянским и тюркским, соответственно) и культурному фону перевод между этими тремя языками очень интересен. Каждый язык имеет свой уникальный набор идиом и выражений, которые отражают его историю, культуру и общественные нормы.

Изучение фразеологизмов в контексте английского, русского и узбекского перевода позволяет понять самих языках, а также о культуре и мыслительных процессах людей, говорящих на них. Это междисциплинарная работа, объединяющая лингвистику, культурологию и теорию перевода.

**Методы исследования/Анализ литературы.** Фразеология - изучение устойчивых сочетаний слов, называемых фразеологическими единицами, - является неотъемлемой частью понимания истории, культуры и образа жизни носителей языка, отражающего их национальный характер. характер. Английская фразеология богата национальными, интернациональными и заимствованными фразеологическими единицами как терминологического, так и нетерминологического происхождения. терминологического и нетерминологического происхождения, имеет общие черты с узбекской фразеологией. Однако перевод этих единиц представляет собой сложную задачу из-за таких факторов, как различная сочетаемость слов, омонимия, синонимия, полисемия, ложная идентичность единиц, что требует учета контекста[1,2].

Существуют различные научные подходы к классификации английских фразеологических единиц. Синхроническая классификация Виноградова, например, выделяет три типа: фразеологические сращения, единства и сочетания. Однако эта классификация, как отмечают Амосова и Кунин, может неадекватно отражать специфику английской фразеологии. Классификация Кунина, сфокусированная на функциях, которые эти единицы выполняют в речи в речи, делит их на номинативные, междометия и коммуникативные функции.

По мнению М.Ордудари, лучшим методом перевода является метод использования «нот»[9]. Я.К.Кобякова, Я.А. Голикова, С. Влахов, С.Флорин и В.Н.Комиссаров изучил три типа методов перевода ФЕ. Они заключаются в следующем:[10]а) фразеологическая эквивалентность; б) фразеологический аналог; в) переводите фразы, используя эквивалентные, неаналогичные словосочетания. Обилие СФЕ(соматические фразеологические единицы) в узбекском языке можно объяснить тем, что в нашем языке каждая часть тела, даже самая маленькая, имеет свое название, и следует отметить, что оно не встречается ни в одном из сопоставляемых языков. Например, русский эквивалент узбекской фразы «*кўзи ёримоқ*» — «*родить*», а в английском языке она выражается словосочетанием «*give birth*».

В узбекской литературе фразеологизмы, наряду с пословицами и афоризмами, имеют решающее значение для идиоматического выражения. Эти единицы являются неотъемлемой частью как классической литературы, так и философии, часто проникая в современные языки и их использование в различных контекстах. Важно отличать их от «образных выражений»(парафразы), в которых вещи или события рассматриваются не по их настоящим именам, а посредством перефразирования для выражения что-то более кратко и ясно.

**Методология.** В данной статье рассматриваются те фразеологические единицы, которые могут быть прототипами узбекских фразеологизмов в при переводе на английский и русский языки, независимо от их литературного источника. Фразеологические единицы(далее как ФЕ) делают нашу речь в одних случаях образной, в других - более точной, и, несомненно, более яркой, разнообразной и выразительной. Некоторые ученые отводят фразеологизмам огромную роль в процессе формирования языка и культуры: "Идиоматический слой языка, то есть тот слой, который по определению является специфическим для каждого конкретного народа, сохраняет ценности, общественную мораль, отношение к миру, людям, другим народам. Идиомы, пословицы и поговорки иллюстрируют образ жизни, а также географическое положение народа, историю и традиции сообщества, объединенного одной культурой" [6].

**Полученные результаты.** Как и многие другие языки, узбекский богат устойчивыми словосочетаниями, в том числе юмористическими и ироническими выражения, аллюзии, намеки, этические выражения, благословения, этнографизмы и фольклоризмы. Они не только богаты содержанием, но и имеют внешний культурный характер.

Сравнительная таблица узбекских фраз и их английских и русских эквивалентов

***Boshi bo’sh- Свободен/Свободен как птица- Footloose /Free as air/As free as the air/Sl. To the left!***

***Boshini ikkita qilmoq/Boshini qovushtirmoq/biriktirmoq/qo’shmoq/Bir yostiqqa bosh qo’ymoq/Oila qurmoq/yurmush qurmoq- Женить- To be married / Marry off/to Get married/hitch/wed/change one’s condition/take to one’s bosom/lead to altar/make a match/giave hand/settle down for life/enter marriage/get spliced/buckle.***

Устное творчество народа передается из уст в уста, из поколения в поколение. В устном творчестве и лексике заключен богатый исторический опыт народа, отражены все его жизненные проблемы, взгляды, связанные с трудовой деятельностью, ремеслом, бытом и культурой

народа, радости и горести, победы и поражения, обряды и обычаи, мечты и многое другое [7].

Художественную литературу трудно представить без фразеологизмов и устойчивых выражений. Яркость, полисемия, лаконичность речи и богатство языка проявляются в этих элементах. Использование фразеологизмов в произведениях Абдуллы Кадири встречается часто, например: “*Ҳасанали секингина дарича остиға ётиб ҳужра ичига* ***қулоқ солди.*** *Тағин бир неча дақиқа* ***қулоқ узмай*** *туриб, сўнгра ...»* [4,5] на английский язык переведен как: «*Хасанали тихонько прилег у худжры и* ***стал вслушиваться****. В комнате царила тишина. И ничто ее не тревожило. Подождов еще некоторое время, Хасанали решил было подняться с места, как изнутри раздался тяжелый вздох. Насторожившись, Хасанали* ***напряг слух*** *и встал, в его глазах появились беспокойные огоньки*»[6].

Фразеологическое единство - это устойчивое сочетание слов, которое семантически неделимо, но, в отличие от фразеологического сращения, содержит переносное значение. Фразеологические единства возникают на основе семантического переосмысления или сдвига переменных сочетаний. Во фразеологических единствах новое, фразеологическое значение создается за счет изменения значения всего комплекса компонентов сочетания. При этом, индивидуальное значение слов-компонентов поглощается и утрачивается. Они образуют неделимое семантическое целое. Эта группа характеризуется мотивированным значением. Фразеологические единства могут иметь живую семантическую связь со свободными сочетаниями и соотноситься с ними по смыслу. Сравним:

*to be fast asleep – dong qotib uxlamoq — спать крепким сном;*

*between two fires – ikki o‘t orasida – между двух огней; to say to someone’s face – yuziga aytmoq – сказать в лицо;*

*I wished the ground would swallow me up – yerga kirib ketmoq — хотелось бы, чтобы меня поглотила земля.*

The primary actualizer of anthropocentricity is the characterological detail. However, it carries out its purpose directly, addressing specific aspects of the portrayed persona, rather than obliquely, as a picture and clarifier. There are other instances of this kind of creative detail throughout the book. Instead of providing a thorough, regionally focused portrayal of the character, the author inserts facts and milestones into the narrative. They are typically offered casually as a well-known item. The compilation of all the characterological information strewn throughout the text might be directed

toward either a thorough characterisation of the item or a reiteration of its salient characteristics. In the first instance, every single detail highlights a distinct aspect of the character; in the second, however, they are all subservient to the slow revelation of the character's primary passion.

The hinting detail identifies the phenomenon's outside feature, which leads one to surmise its underlying significance. It is evident from this detail's categorization that its primary goal is to provide a subtext or inference. The character's interior condition is the image's primary focus. Since the suggesting detail is the primary tool used to create, it is reasonable to say that it actualizes this specific kind of informative text. It always functions in a system of other kinds of detail and other actualization methods, and it is anthropocentric. Therefore, the title, a list of keywords, and creative details are the primary means of expressing the author's identity in a piece of art.

**Conclusion**. The author's image is reciprocal in nature, since he is the outcome of collaborative efforts. The author creates the text; to put it another way, the author's details disclose the text, which the reader then interprets and recreates. Semantic dominants like titles, keywords, and creative features convey the author's attitude toward the content of the text. When the text is interpreted, each one of them takes on a unique significance.

**LITERATURE**


1. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха / Ю.М. Лотман. – М.: Просвещение, 1972. – 458с.
2. Мукаржовский Я. Литературный язык и поэтический язык / Я. Мукаржовский // сб.статей: Пражский лингвистический кружок. – М.: 1967. – 520 с.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р. Гальперин. – М.: Просвещение, 1981. – 212 с.
4. Dreiser T. An American Tragedy / T. Dreiser. – Signet Classic, 2000. – 864 p.
5. Смирнов А.А. Проблемы психологии памяти / А.А. Смирнов. – М.: Просвещение, 1966. – 398с.
6. Новиков А.А. Художественный текст и его анализ / А.А. Новиков. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – 300 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 801.73

***Bobur QURBONOV,***
*Samarqand davlat chet tillar institutiYaqin sharq tillari kafedrasi mudiri*
*E-mail:bqurvonov@gmail.com*

*SamDCHTI, (DSc), professor, D.Salohiy taqrizi asosida*

## ALISHER NAVOIYNING MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA TAZKIRACHILIK AN’ANASINING RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya
Tazkira uslubida ijod qilish asosan Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan. Tazkirachilik maktabi ham uzoq yillar davomida ushbu mintaqada shakllangan va undan keyin tazkirachilik yangi adabiy san’at sifatida boshqa mintaqalarga tarqalgan. Tazkirachilik maktabi rivojlanganidan keyin adiblar orasida ushbu janrda ijod qilish an’anaga aylandi va tazkiraviy asarning o‘zi mavzu, mundarija, badiiy til va uslub jihatidan alohida shakllandi. Mazkur maqolada tazkirachilik maktabining shakllanishi va undagi Alisher Navoiyning mavqei yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Tazkira, Movarounnahr, Xuroson, she’riyat, adabiyot, Jomiy.

## РОЛЬ АЛИШЕРА НАВОИ В РАЗВИТИИ ТРАДИЦИИ ТАЗКИРИЗМА В МАВЕРАННАХРЕ И ХОРАСАНЕ

Аннотация
Творчество в стиле Тазкира зародилось в основном в Мавераннахре и Хорасане. Школа тазкиризма также формировалась в этом регионе в течение многих лет, а затем тазкиризм как новое литературное искусство распространился на другие регионы. После развития тазкирской школы творчество в этом жанре стало традицией среди писателей, а само тазкирское произведение сформировалось отдельно по тематике, содержанию, художественному языку и стилю. В этой статье освещается становление тазкирской школы и положение Алишера Навои в ней.
**Ключевые слова:** Тазкира, Мавараннахр, Хорасан, поэзия, литература, Джами.

## THE ROLE OF ALISHER NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF THE TRADITION OF TAZIRISM IN TRANSOXIANA AND KHORASAN

Annotation
Creativity in the style of Tazkir originated mainly in Transoxiana and Khorasan. The school of tazkirism was also formed in this region for many years, and then tazkirism as a new literary art spread to other regions. After the development of the Tazkir school, creativity in this genre became a tradition among writers, and the Tazkir work itself was formed separately in terms of subject matter, content, artistic language and style. This article highlights the formation of the Takir school and the position of Alisher Navoi in it.
**Key words**: Tazkira, Transoxiana, Khorasan, poetry, literature, Jami.

**Kirish.** XV-XVI asrlarda ilm, adabiyot, san’at va boshqa sohalarda har tomonlama rivojlanish va o‘zgarishlar yuzaga kela boshladi. Bu asrlarda adabiy hayot asosan Hirot, Samarqand, Tabriz va Buxoro shaharlarida rivojlandi. Mazkur shaharlarning har birida adabiy markazlarlar shakllangan edi va bu markazlar bir-birlariga doim raqobat ko‘rsatib kelgan. Bular orasida Hirot adabiy markazi adabiyot sohasi bo‘yicha eng namunali edi. Hirot maktabining asoschilari Mavlono Abdurahmon Jomiy va Mir Alisher Navoiylar forsiy-tojik va turkiy-o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar vayuzlab shogirdlarni tarbiyalab kamolotga yetkazganlar. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirotga turli shaharlar va mintaqalardant yosh ijodkorlar tahsil olish uchun kelib, Jomiy hamda Navoiydek buyuk insonlarning huzuriga tashrif buyurish, ulardan pand-nasihat olish va ularning imtihonlaridan o‘tishni o‘zlari uchun sharaf deb bilardilar. Ular bu yerda o‘z iste’dodlarini mukammallashtirardi, buyuk shoirlar she’rlariga naziralar aytardi va adabiy anjumanlarda bir-birlarining she’rlarini muhokama qilardi. Zayniddin Mahmud Vosifiy, Badriddin Hiloliy, Mavlono Hotifiy va boshqalar shular jumlasidandir.

XV- XVI asrlarda Samarqand, Buxoro va Tabriz adabiy muhitlari bir-birlari bilan yaqin munosabatda bo‘lgan, ammo bu adabiy havzalar Hirot adabiy muhitiga nisbattan zaifroq edi. Hirotdagi adabiy muhit hattoki Iroq adabiy muhiti namoyandalari tomonidan ham ta’rif va tavsif etilgan. Albatta Hirot maktabining bu darajada yuksalishiga buyuk ustozlar Mavlono Jomiy va Hazrat Navoiyning xizmatlari katta bo‘lgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Temuriylar Renessansi samaralaridan biri bo‘lmish Hirot adabiy muhiti, Jomiy va Navoiy ijodkorlik maktablarining taniqli namoyandalari asarlarini o‘rganish katta ilmiy-tarixiy jarayoni fanimizda ma’lum hodisa, ammo bu tarixiy davr xususiyatlari nihoyatda ko‘pqirrali bo‘lib, yangi tadqiqotlarni talab etmoqda. Xususan, Mavlono Jomiyning fors-tojik tilida yaratgan asarlari va Hazrat Navoiyning turkiy tilda yozgan asarlarini, shu muhitda faoliyat yuritgan boshqa mualliflarning ham fors-tojik tilida yaratilgan asarlari, tarjimalarini solishtirish va qiyoslab o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, qiyosiy adabiyotshunoslik yoki “komparativistika” deb nomlanmish fanning o‘z talablari, mezonlari, metodik asoslari mavjud va bu hodisa tadqiqotchi uchun aniq bir yo‘nalish belgilab beradi. Adabiyotshunos olima G.Xalliyeva qiyosiy tahlilning metodologik vazifalarini shunday belgilab beradi: “Qiyosiy tahlilning metodologik vazifasi shundan iboratki, qiyoslash, solishtirish jarayonida tadqiqotchi bir necha metod va usullardan foydalanadi. Buning natijasida uning nafaqat ob’yekt haqidagi bilimlari, balki hayotdagi ba’zi

muammolarni hal qilishdagi emperik bilimlari, ya’ni tajribasi ham oshadi va amaliy faoliyati imkoniyatlari kengayadi”[1].

**Tadqiqot metodologiyasi**. Shuningdek, olima qiyosiy tahlilda dunyoqarash vazifasi haqida so‘zlar ekan, qiyosiy tahlilning qanchalik keng qamrovli bo‘lishi aynan inson dunyoqarashi, bilimi va saviyasining darajalariga bog‘liq. Sub’yektlarning dunyoqarashi ijtimoiy jamiyat dunyoqara-shining boyishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi [1].

Qiyosiy tahlilning baholovchi (akseologik) vazifasi esa, ko‘p shakl va jihatlarda namoyon bo‘lar ekan. Qanday asarlar qiyoslanishidan qat’iy nazar, til xususiyatlari yoki adabiy hodisa albatta baholanishi, ilmiy-nazariy xulosa yaratilishi lozim ekan. “Shuning uchun ham qiyosiy tahlil akseologikdir”, - deya qayd etadi olima, - ya’ni uning mazmunida o‘zaro o‘xshashliklari va tafovutlari nuqtai nazaridan qiyoslanadigan hodisalarning bahosi mujassamlashgan bo‘ladi. Bu fandagi nazariy fikrlarni kengaytiradi va ayrim masalalar yechimida amaliy ahamiyat ham kasb etadi” [1]. Biz ishimizni tadqiqotchilikning aynan shu mezonlari asosida amalga oshirishga va ilmiy xulosalarimizni shakllantirishda komparati-vistika fanining har bir ko‘rsatmalarini nazarda tutishga harakat qildik.

Biroq Xuroson shayboniylar tomonidan ishg‘ol etilganidan keyin Hirot adabiy markazi katta qiyinchilikka duch keldi. Buyuk adiblar va shoirlar o‘z shaharlarini tark etib, Hindiston, Samarqandu Buxoro, Toshkent, Tabriz kabi shaharlarga ko‘chib borishga majbur bo‘ldilar. Natijada Buxoro va Toshkent adabiy markazlari rivojlana boshladi. Har qanday mamlakatning ilm va madaniyat jihatidan rivojlanishi birinchi navbatda iste’dodli insonlarga bog‘liq. Hirotdan ilm ahlining boshqa mintaqalarga ko‘chib borganlari bir tomondan Hirot adabiy muhitiga salbiy ta’sir yetkazgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqa shaharlardagi ilm-fan rivojiga sabab bo‘lgan.

**Tahlil va natijalar.** Adabiy manbalarda ta’kidlanishicha, Movarounnahr va Xurosondagi adabiy muhit bir paytda rivojlangan bo‘lsa ham, bu ikki mintaqadagi adabiy hayot bir-biridan doim farq qilib turgan. Ko‘plab manbalarda ta’kidlanganidek, Xuroson adabiy markazi Movarounnahrga qaraganda she’riyat va adabiyot sohasi bo‘yicha ancha rivojlangan bo‘lgan. Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi va Faxriy Hiraviy hamda Hakimshoh Qazviniy tarjimalarida ismlari zikr qilingan olimu shoirlarning katta qismi asosan xurosonlik ekanliklari bundan dalolat beradi. “Majolis un-nafois”dan joy olgan 480ga yaqin shoirlarning faqatgina 75 nafari Movarounnahrdan bo‘lib, ularning aksariyati asosan shoirlik emas, balki boshqa kasb va hunar bilan shug‘ullanganlar [2]. Faxriy Hiraviy “Latoyifnoma”sida “Majolis un-nafois”dagi shoir va adiblardan tashqari yana 200ga yaqin shoir va she’riyatga moyil bo‘lgan boshqa maslak vakillari ismlari keltirilgan bo‘lib, ularning ham asosiy qismini hirotliklar tashkil etadilar. Hirotda ilm-fandan va adabiyotdan tashqari hunarmandchilik ham rivojlangan edi. Mazkur tazkiradagi shoirlarning 61 nafari hunarmandchilikning 29 turi bilan shug‘ullanganlar [3].

Xurosonda ichki urushlar hamda tashqi kuchlarning bosqinchilik harakatlari kuchayganligi natijasida xalq katta qiyinchiliklarga duch keldi, xususan, hunarmandlarning ahvoli keskin og‘irlashdi. Bu holat juda ko‘p tazkiralar va tarjimai holga bag‘ishlangan asarlarda o‘z aksini topgan. Ta’kidlash joizki, ushbu davrda Navoiy og‘ir vaziyatga tushib qolgan hunarmandlar, shoirlar va adiblarga ko‘maklashib turgan. Zayniddin Mahmud Vosifiy o‘zining “Badoye ul-vaqoye” asarida o‘sha davrning iste’dodli shoirlaridan biri Mavlono Hasanshoh hayotidan quyidagi voqeani yozgan: “Bir yili Hirotda qish juda sovuq keldi. Mavlono Hasanshohning hech narsasi yo‘q edi, ahvoli juda og‘ir edi. Qiyin ahvolga tushib qolgan Mavlono Hasanshoh o‘g‘lini chaqirib shunday dedi: “Motam tutgan kishilar kabi ko‘k kiyimni kiyib, Mir Alisherning uyiga bor. Mir seni ko‘rib hol-ahvol so‘rasa, u kishiga otam dorulfanodan dorulbaqoga rihlat qildi, deb aytgin. Shundan keyin Mir senga takfin va tajhiz uchun mablag‘ beradi. Uni olib bozorga bor va ro‘zg‘or uchun bozorlik qilib kel”.

Mavlono Hakimshohning o‘g‘li otasining topshirig‘ini bajardi. Hazrat Navoiy uning otasi o‘lganligi to‘g‘risidagi gapiga ishonib, ko‘z yosh to‘kdilar va unga xarajatlar uchun ma’lum miqdorda pul berdilar. Bir kundan keyin Mavlono Hasanshoh Mir Alisherning uylariga keldilar. Hazrati Mir u kishini ko‘rib, taajjub bilan dedilar:

-Ey mulla, Siz o‘lgan edingiz-ku?

Bunga javoban Mavlono shunday dedi:

-Ey Mir, agar o‘sha Siz bergan in’om bo‘lmaganida haqiqatan ham o‘lgan bo‘lar edim” [4].

Bir tomondan kulguli, boshqa tomondan esa nihoyatda qayg‘uli bo‘lgan ushbu voqea qalam ahlining qanchalik mushkul ahvolga tushib qolganliklaridan dalolat beradi.

Ijtimoiy vaziyat qanchalik og‘ir bo‘lishiga qaramay, Mir Alisher Navoiy yashab ijod qilgan zamonda ilm va ma’rifat yuksak darajada rivojlangan. Aynan shu davrda turkiy-o‘zbek adabiyotiga Hazrat Navoiy tomonidan asos solindi. Fors-tojik adabiyoti namoyandalarining bu davrdan oldingi 500-600 yillar davomidagi ijod mahsuli to‘planib, mukammallashtirildi. Zullisonaynlik an’anasi rivojlandi. Tasavvuf ilmi taraqqiyotning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. Shular bilan birga, tazkirachilik maktabi shakllandi va turkiy hamda forsiy tazkiralarning eng sarasi aynan ushbu davrda vujudga keldi. Movarounnahr va Xuroson tazkirachilik maktabining eng buyuk namoyandalari aynan shu davrda yashab ijod qildilar. Tazkirachilikning rivojlanishida, eng avvalo, Hirot adabiy muhiti o‘z hissasini qo‘shgan. Shu yerda tazkira janri va uning turlari hamda shakllanish tarixiga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

“Tazkira” so‘zi lug‘atda “zikr qilish”, “eslash” ma’nosini ifoda etadi va adabiy-ilmiy atama sifatida shoirlar, olimlar va din ulamolari tarjimai holiga bag‘ishlangan asar hisoblanadi [5]. Tazkira adabiyotshunoslik va tarix yo‘nalishlarida olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari uchun asosiy manbalarning biri sifatida xizmat qiladi. Ilgari tarjimai holga bag‘ishlangan asarlarga “tabaqot”, “ansob”, “mu’jam” hamda “axbor” kabi nomlar ham berilgan. Hozirgi zamonda “tazkira” deganda asosan shoir va adiblarning hayot va faoliyatiga bag‘ishlangan asar tushuniladi [6]. G‘arb adabiyotida “antologiya” deb nomlangan adabiy asar ham tazkiraning bir turi hisoblanadi. Shoirlarning hayot va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar juda ko‘p bo‘lib, ularning aksariyati tazkira unvoni bilan mashhur bo‘lgan. Albatta bundan mustasno bo‘lgan ba’zi bir asarlar ham mavjud. Masalan, Alixon Mubtaloiyning “Muntaxab ul-ash’or” nomli asari va yana bir nechta shu kabi asarlarni tilga olishimiz mumkin.

Shoirlar tarjimai holiga bag‘ishlangan eng birinchi va mukammal asar bu Muhammad Avfiy Buxoroiyning “Lubob ul-albob”idir. Ushbu davrlarda Muhammadi Rovandiyning «Tazkirai musavvar»i (1172y), Kamoluddini Xutaniyning «Manoqib-ush-shuaro»si, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola»si (1177y), Dilovariynig «Kitob ush-she’r vash-shuaro»si kabi asarlar ham yaratilgan. Ilmiy manbalarda bular shoirlar hayot va faoliyatiga bag‘ishlangan eng qadimiy asarlar, deb qayd qilingan. Ammo aynan “tazkira” deb atalgan eng qadimiy asar bu Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” nomli tazkirasidir.

Tazkiranavislik an’anasining vujudga kelishi va rivojlanishida arab adiblarining ham xizmatlari katta. Tazkira haqida ma’lumot berganda Abu Mansur as-Saolibiyning xizmatlari xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu olim tomonidan yaratilgan “Yatimat ad-dahr fi mahosin al-asr” asari ham eng qadimgi tazkiralar sirasidandir [7].

**Xulosa va takiflar.** Tazkirachilik tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu turdagi asarlarning yaratilishi, aynan tazkira uslubida ijod qilish, asosan, Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Tazkirachilik maktabi ham uzoq yillar davomida ushbu mintaqada shakllangan va undan keyin tazkirachilik san’ati boshqa mintaqalarga tarqalgan. Tazkirachilik maktabi rivojlanganidan keyin adiblar orasida ushbu janrda ijod qilish an’anaga aylandi va tazkiraviy asarning o‘zi mavzu, mundarija, badiiy til va uslub jihatidan shakllandi. Xususan, XV asrlarga kelib tazkira janri juda rivojlandi. Ushbu davrda Alisher Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois” tazkirasi ta’lif etilganligi, mazkur tazkiraning tarjimalari va boshqa mutafakkirlar tomonidan yaratilgan tazkiralar XV asrda tazkirachilik maktabining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

## ADABIYOTLAR


1. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент:”Академнашр”, 2020. Б. 23.
2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Нашрга тайёрловчи Абдуллоҳ Руин. – Балх:Султоний матбааси,2008. – 338 б.
3. حسام الذین راشدی. فخری و سه اثر او. مجله دانشکده ادبیات و علوم انسانی. مشهد ۱۳۵۰ خورشیدی
4. Айнӣ С. Восифӣ ва хулосаи «Бадоеъу-л-вақоеъ». -Душанбе, 1989. С. 58.
5. *Ромпурӣ, Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс-ул-луғот. / М.Ғ. Ромпурӣ. - Ҷ. 1. - Душанбе: Адиб, 1987.с. 186*
6. دایره المعارف بزرگ اسلامی. زیر نظر کاظم موسوی. تهران، سازمان انتشارات وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامی، چاپ اول. ۱۳۸۱
7. Ибадуллаев.А. Абу Мансур Ас-Саолибий. –Тошкент, “Ўзбекистон”. 1992. Б. 96

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK UO‘K: 81-139**

***Moxigul NASIROVA,***
*Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi*

*SamDCHTI, (PhD), dotsent M.M.Oblokulova taqrizi asosida*

## NEOLOGIZMLAR TURLARI VA SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli sabablarga vujudga kelgan neologizmlarning turlari va shakllanish omillari o‘zbek tili misolida tahlil qilingan. O‘zbek tili tarkibiga kirib kelgan ruscha va inglizcha o‘zlashma so‘zlarning fonetik yo shakl jihatidan o‘zgartirib ishlatilishi natijasida vujudga kelgan yangi so‘zlarga to‘xtalgan. Shuningdek neologizmlarning paydo bo‘lishga sabab bo‘ladigan asosiy omillar batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** neologizm, semantika, ibora, til, madaniyat, atama, neologiya.

## ТИПЫ НЕОЛОГИЗМОВ И ФАКТОРЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье на примере узбекского языка проанализированы виды и факторы формирования неологизмов, возникшие по разным причинам. Русское и английское заимствования, вошедшие в состав узбекского языка, касались новых слов, возникших в результате фонетического или формально-видоизмененного употребления слов. Также подробно описаны основные факторы, способствующие возникновению неологизмов.

**Ключевые слова**: неологизм, семантика, фраза, язык, культура, термин, неология.

## TYPES OF NEOLOGISMS AND FACTORS OF FORMATION

Annotation

In this article, using the example of the Uzbek language, the types and factors of the formation of neologisms that arose for various reasons are analyzed. The Russian and English borrowings that became part of the Uzbek language concerned new words that arose as a result of phonetic or formally modified use of words. The main factors contributing to the emergence of neologisms are also described in detail.

**Key words**: neologism, semantics, phrase, language, culture, term, neology.

**Kirish.** Neologizmlar deganda tilda yangi qo‘llaniladigan va yangi tushunchalar, texnologiyalar, xatti-harakatlar va yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan so‘zlar tushuniladi. Bu so‘zlar ko‘pincha tildagi ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birikmasidan olingan bo‘lib, ba’zan chet tillardan ham o‘zlashgan bo‘ladi. Yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi jamiyat va madaniyatlardagi yangi tushunchalar va o‘zgarishlarni tasvirlash zarurati bilan bog‘liq. Yangi texnologiyalar, yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlar paydo bo‘lganda, ularni tasvirlash uchun yangi so‘zlar ishlatilgan.

Ingliz tilida hozirda qo‘llanilayotgan yangi so‘zlarning ba’zilari orasida “selfie”, “emoji”, “vlog”, “mem” va “heshteg” kabi so‘zlar mavjud bo‘lib so‘nggi bir necha yil ichida kibermakon va ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilgani bilan mashhur. Neologizmlar jamiyatlardagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi. Bu so‘zlar jamiyatlarda vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni ifodalaydi va bu o‘zgarishlarni tavsiflash va tahlil qilish uchun vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, 1980-yillarda kiritilgan “cyberspace” (kibermakon) atamasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari evolyutsiyasini ifodalaydi. Shuningdek, yangi so‘zlar jamiyatlardagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi sifatida ishlatilishi mumkin. Misol uchun, 2008 yilda kiritilgan “mansplaining” atamasi ayollarga erkaklar tomonidan biron bir narsa yoki hodisani haddan tashqari soddalashtirilgan va kamsituvchi uslubda sharhlab berish yoki tushuntirish degan ma’noni anglatuvchi atama sifatida ishlatiladi [1]. Xullas, neologizmlar jamiyatlarda madaniy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida qo‘llaniladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyoning barcha tillarida vujudga kelgan yangi so‘z va atamalar tilshunoslikdagi yangi yo‘nalish, ya’ni neologiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Neologiya zamonaviy tilshunoslik paradigmasida neologizmlar haqidagi fan sifatida XX-asrning ikkinchi yarmida zamonaviy tilshunoslikning til taraqqiyoti jarayon-larini, ayniqsa, tilda paydo bo‘layotgan yangi so‘zlarni o‘rganishga bo‘lgan ulkan qiziqishlar tufayli keng tarqaldi. Neologiyaning “leksikologiyaning maxsus nazariy sohasi” sifatida shakllanishiga asos solgan olimlar qatorida A.A Bragina, V.I Zabotkina, N.I Feldman va boshqa mahalliy hamda xorijlik tilshunoslarni kiritishimiz mumkin.

O‘zbek olimlari ham neologizmlar boyicha bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Bu tadqiqotlar asosan o‘zbek tilidagi yangi so‘zlar va ularning tarjimasiga qaratilgan. Neologizmlar boyicha tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan quyidagilarni misol tariqasida ko‘rsatishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Zamonaviy neologiyaning muammolaridan biri bu aniq terminologik bazaning yo‘qligidan iborat. Zamonaviy tilshunoslikda “yangi so‘z”, “neologizm” va “innovatsiya” tushunchalarini aniqlashning yagona yondashuvi mavjud emas.

**Tahlil va natijalar.** Neologizmlarni o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar asosan quyidagi masalalarni o‘z ichiga olgan:

1. Yangi so‘zlarning madaniyat va tilga ta‘sirini o‘rganish: Bu turdagi tadqiqot ishlari yangi so‘zlarning madaniyat va tilga qanday ta‘sir qilishini va bu ta‘sirlar madaniyat va tildagi o‘zgarishlarga qanday olib kelishi mumkinligini o‘rganishga qaratilgan. Til va madaniyatga ta’sir yetkazuvchi so‘zlar avvalo dunyodagi globallashuv holatlar,

turli xalqlar madaniyatining to‘qnashuvi, ijtimoiy tarmoqdan foydalanish, umuman dunyoda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlarga bog‘liq. Bundan tashqari butun dunyo mamlakatlarining asosiy muammolaridan biriga aylangan migrratsiya masalasi ham til va madaniyatga katta ta’sir yetkazuvchi va hatto til hamda madaniyatda vujudga kelayotgan o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. O‘zbek tili va o‘zbek xalqi madaniyatiga hozirgi paytda nisbatan ko‘proq ta’sir yetkazishi mumkin bo‘lgan neologizmlar asosan ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan so‘zlardan iborat. boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning hammasini ham neologizm yoki yangi so‘z deb aytolmaymiz, ammo boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning katta qismi yo shaklan yoki semantik jihatdan o‘zgartirilgan shaklda ishlatladi.

2. Yangi so‘zlarning hosil bo‘lish jarayonini o‘rganish: Bu tadqiqotlarda yangi so‘zlarning qanday yasalishi, ularning tildagi ikki yoki undan ortiq so‘z birikmasidan qanday olinganligi, begona so‘zlarning qanday qo‘llanishi tahlil qilinadi. Yoqub Saidovning “O’zbek adabiy tili tarixi” nomli qo‘llanmasida o‘zbek tili tarkibiga bir qancha tillardan kirib kelgan so‘zlar haqida mufassal ma’lumot berilgan [2]. Saidovning ushbu qo‘lanmasida begona so‘zlarning kirib kelishi sabablari bilan birga ularning shakl jihatidan o‘zgarishi sabablari hamda semantik siljish holatlari batafsil tahlil qilingan. Rus tadqiqotchisi I.S Popovaning [3] bir qancha tadqiqot ishlarida begona so‘zlarning ishlatilishi va ularning tildagi ta’siri haqida ma’lumot berilgan. Popovaning ta’kidlashicha boshqa tillardan olingan so‘zlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan asosiy narsa shuki, u so‘zlarni nutq jarayonida ishlatadigan odam o‘zining ona tiliga mos bo‘lgan ohang bilan takaffuz qiladi, ba’zi hollarda u so‘zning asl ma’nosini to‘liq anglamagan holda ishlatadi va buning natijasida o‘zlashma so‘z qayta shakllanadi [4]. Bu holatni o‘zbek va ingliz tillari misolida tahlil qilsak ko‘plab namunalar keltirishimiz mumkin. Chunki turlicha tillar oilasiga mansub bo‘lgan ingliz va o‘zbek tillaridagi fonemalar bir-biridak keskin farq qiladi. Ona tili o‘zbek tili bo‘lgan oddiy insonlar uchun talaffuz qilinishi qiyin bo‘lgan so‘zlar ingliz tili tarkibida juda ko‘p uchraydi. Bu esa neologizmlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Ayni paytlarda turli sohalarga tegishli bo‘lgan yangi terminlar kirib kelmoqda va ularning ko‘p qismi o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar orasida qisman yoki to‘liq buzlgan shaklda ishlatiladi. Masalan, “Shevrolet” rusumli avtomobillarning markalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ularning aksariyati o‘zbekcha bo‘lmagan so‘zlar hisoblanadi va aksar holatda xato talaffuz qilinadi. Quyidagi jadval orqali bir nechta avtomobil markalarining to‘g‘ri varianti va o‘zbek xalqi orasida ishlatiladigan variantini ko‘rsatib berishimiz mumkin:

| Yozilishi | To‘g‘ri talaffuzi | Xalq orasida ishlatiladigan varianti (o‘zbek) |
|---|---|---|
| Chevrolet | Shevrole | Shevrolet |
| Daewoo | Deu (дэу) | Dayevo |
| Lacetti | La**ch**etti | Lasetti |
| Rezzo | Retso | Rezzo |
| Tahoe | Taho | Taxoe |
| TrailBlazer | TreylBleyzer | Trayblayzer |

1-jadval

Xuddi shu kabi holatlarni boshqa sohalarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Bu turdagi tadqiqot ishlarida ikki yoki undan ko‘proq so‘zlardan tarkib topgan yangi so‘zlar ham o‘rganiladi. Bu kabi neologizmlarga turli tillardan o‘zlashgan sanoqsiz misollar keltirishimiz mumki. Masalan, xotdog, gamburger, tekstoportret, layfxak, geymertron, fudtrek va h.k.

3. Yangi so‘zlar bilan madaniy-ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish: Bu tadqiqotlarda yangi so‘zlarning jamiyatlardagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi sifatida qanday qo‘llanishi va ulardan bu o‘zgarishlarni tavsiflash va tahlil qilish vositasi sifatida foydalanish mumkinligi o‘rganiladi. Til insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Shuning uchun tildagi o‘zgarishlar albatta jamiyatdagi madaniy-ijtimoiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Xususan boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar til tarkibiga ta’sir yetkazishi bilan birga madaniyat va turmush tarzining ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Mazkur turdagi tadqiqot ishlari tilshunoslikdan ko‘ra madaniyatshunolik, sotsiologiya kabi sohalarga ko‘proq taalluqlirir.

O‘zbek tilining taxminan yuz yillik tarixiga nazar solsak texnologiyaga oid so‘zlarning deyarli barchasi boshqa tillardan neologizm sifatida kirib kelganining guvohi bo‘lamiz. Moshina, traktor, poyezd, kombayn, vagon... kabi so‘zlar rus tilidan olingan yoki boshqa tillarga tegishli bo‘lgan taqdirda ham rus tili orqali kirib kelgan. Ta’kidlash kerakki O‘zbekiston sobiq Sho‘rolar ittifoqi tarkibida bo‘lgan paytlarida asosan ruscha so‘zlar hamda rus tili ta’sirida qisman o‘zgargan so‘zlar o‘zlashgan. Ushbu o‘zlashmalarning mahalliy aholi tomonidan ishlatilishi zamonlarga qarab turlicha bo‘lgan. Bundan 60-70 yil oldingi davrda yashaganlar barcha ruscha yoki boshqa tillarga tegishli bo‘lgan so‘zlarni buzib talaffuz qilganlar. Masalan, “vagon” – “vogun”, “militsiya” – “milisa”, “traktor” - “traktir”, “rus” – “o‘ris”... . Ruscha va boshqa xorijiy so‘zlarning buzib talaffuz qilinishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biri o‘sha paytda odamlarning rus va umuman G‘arb madaniyati hamda tilidan uzoq bo‘lganligidir. Keyinchalik rus tilini O‘rta Osiyo xalqlariga o‘rgatish jarayonlari jadallashgani natijasida jamiyatda ruschani biladiganlar ko‘paya boshladi va ruscha so‘zlar aynan rusl tilidagi shaklida talaffuz qilinadigan bo‘ldi. Hattoki ruscha so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish savodsizlik deb baholanadigan bo‘ldi. Shunday bo‘lsa ham bir qator ruscha so‘zlar o‘zbek tili tarkibidagi shaklan o‘zgargan neologizmlar sifatida haligacha ishlatiladi.

4. Yangi so‘zlarning raqamli madaniyatga ta‘sirini o‘rganish: Ushbu tadqiqot yangi so‘zlarning raqamli madaniyatning bir qismi sifatida qanday keng qo‘llanilishi va bu ta’sirlar raqamli madaniyatdagi o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini o‘rganishga qaratilgan. Ma’lumki raqamli madaniyat, raqamli iqtisodiyot kabi terminlar oxirgi paytlarda juda ko‘p ishlatiladigan so‘z birikmalari sifatida mashhur bo‘lgan. Umuman “raqamli” so‘zi yordamida yasalgan so‘z birikmalarining yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan “raqamli korrupsiya”. Bu ibora qonunga xilof ravishda qo‘lga kiritiladigan pul mablag‘larining elektron tarzda (hisob raqamga yoki kartaga) yetkazish holatini ifodalaydi. Bu turdasgi so‘z va iboralarning barchasi zamonaviy texnologiyaning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan neologizm hisoblanadi.

**Neologizm turlari.** Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra neologizmlarning bir nechta turi mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) Semantik neologizmlar: yangi tushunchalar yoki hodisalarni bildirish uchun kiritilgan yangi so‘zlar yoki iboralar.

b) Fonetik neologizmlar: mavjud so‘zlarning tovush tarkibi yoki talaffuzini o‘zgartirish natijasida hosil bo‘lgan yangi so‘zlar.

c) Morfologik neologizmlar: mavjud so‘zlarning shakli yoki tuzilishini o‘zgartirish natijasida hosil bo‘lgan yangi so‘zlar.

d) Sintaktik neologizmlar: an’anaviy grammatik qoidalarga amal qilmaydigan yangi konstruksiya yoki iboralar.

e) Leksik neologizmlar: yangi tushuncha yoki hodisalarni bildirish uchun tilga kiritilgan yangi so‘z yoki iboralar.

f) Semantik-leksik neologizmlar: yangi ma'noni ham, yangi leksik shaklni ham o'zida birlashtirgan yangi so'zlar.

g) So‘z yasovchi neologizmlar: mavjud so‘zlarga turli so‘z yasash usullarini qo‘llash orqali hosil bo‘lgan yangi so‘zlar.

**Neologizmlarning shakllanish omillari.** Tilida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi til va madaniyatga keng ko‘lamli ta‘sir ko‘rsatadigan murakkab va qiziqarli hodisadir. Yangi so‘zlarrning paydo bo‘lishidagi muhim omillar sifatida quyidagilar kirishi mumkin:

a) Texnologiyaning rivojlanishi natijasida kundalik hayotga yangi elementlar kirib kelmoqda. Yangi tushunchalarni tasvirlash uchun yangi so‘zlar ham yaratiladi. Masalan, “selfi” va “blog” kabi so‘zlar shu turkumga kiradi.

b) Madaniyat va ommaviy axborot vositalari: ommaviy axborot vositalari va global madaniyat yangi so'zlarning tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Filmlar, teleko‘rsatuvlar, musiqa va boshqalardagi mashhur iboralar tilda keng ommalashishi mumkin.

c) Ijtimoiy o‘zgarishlar: jamiyatlar va madaniyatlardagi o‘zgarishlar yangi so‘zlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ayollarning jamiyatdagi rolidagi o‘zgarishlarni tasvirlaydigan yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu o‘rinda aytish kerakki ayollarning jamiyatdagi roli tufayli paydo bo‘lgan yangi so‘zlar ham ijobiy va ham salbiy ma’nolarni anglatshi mumkin, chunki jamiyatdagi har qanday o‘zgarishlarni insonlar turlicha qabul qiladilar.

d) Boshqa tillarning ta’siri: boshqa tillar bilan o‘zaro ta‘sir ham tillarga yangi so‘zlarning kirib kelishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tiliga “sushi” va “karaoke” so‘zlari yapon tilidan ingliz tiliga olib kelingan.

e)Turli sabablarga ko‘ra yuz bergan holatlarni tushuntirish zarurati: yangi tushunchalar yoki yangi hodisalarni tushuntirish uchun yangi so‘zlar ixtiro qilinadi. Misol uchun, ingliz tilida global isish hodisasini tasvirlash uchun “global warming” (“global isish”) so‘z birikmasi va kiber ofatlarni tasvirlash uchun “kiberbulling” so‘zlari ixtiro qilingan. Mazkur holatlarni izohlash uchun boshqa tillarda ham yangi so‘zlar ixtiro qilingan. Ba’zi tilladrga esa ingliz, rus yoki boshqa tillardagi varianti yangi o‘zlashma sifatida kirib kelgan.

**Xulosa va takiflar.** Bu omillar tufayli barcha tillarda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi doimo o‘zgaruvchan va rivojlanib boruvchi dinamik jarayon hisoblanadi. Bu so‘zlar tilning boyligi va jamiyat madaniyatiga yetkaziladigan ta’sirda muhim rol o‘ynaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. https://www.merriam-webster.com/wordplay/mansplaining-definition-history
2. Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi : o‘quv qo’llanma. - Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2019. - 168 b.
3. Попова И. С. “Прямая речь и цитирование как способы передачи чужого слова в устнопорождаемой речи” Вестник Иркутского государственного лингвистического университета, no. 3 (7), 2009, pp. 65-69.
4. Попова И. С. “К вопросу использования чужих слов в устно-порождаемой речи” Язык и культура, no. 2 (34), 2016, pp. 77-84.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:811.1

***Dilraboxon NAZIRQULOVA,***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*
*E-mail:dilraboxonn@gmail.com*

*O‘zDJTU dotsenti I.O‘sarov taqrizi asosida*

# THE CATEGORY OF MODALITY IN THE SPHERE OF POLITE COMMUNICATION

Annotation

In this article, the category of modality in the sphere of polite communication is presented, analyzed and researched in the examples of different communicational situations. Modality in the English and Uzbek language is expressed, learned, and compared with some examples in the following article. The role of modality is central and important in the creating reliable atmosphere among communicators.

**Key words:** Modality, modal expressions, linguistic, communication, deontic modality, illocution, context, conversation, statement, modifier.

## КАТЕГОРИЯ МОДАЛЬНОСТИ В СФЕРЕ ВЕЖЛИВОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация

В данной статье категория модальности в сфере вежливого общения представлена, проанализирована и исследована на примерах различных коммуникативных ситуаций. Модальность в английском и узбекском языках выражается, изучается и сравнивается с некоторыми примерами в следующей статье. Роль модальности является центральной и важной в создании атмосферы доверия среди коммуникаторов.

**Ключевые слова:** Модальность, модальные выражения, лингвистика, общение, деонтическая модальность, иллокуция, контекст, разговор, высказывание, модификатор.

## MODALLIK KATEGORIYASI XUSHMUOMALA MULOQOT MISOLIDA

Annotatsiya

Bu maqola xushmuomala muloqot muhitida modallik kategoriyasining ahamiyati haqida so’z olib boradi. Modallikning o’rganilishi ingliz va o’zbek tillaridagi turli kommunikativ munosabatlar, muoqotlar tarkibida, misolida ko’rib chiqildi. Modallik hodisasini keltirib chiqaruvchi turli vositalar o’rganilib chiqildi, analiz qilindi. Muloqotchilar o’rtasida ishonchli atmosfera yaratilishida modallikning roli katta ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilindi.

**Kalit so’zlar:** Modallik, modal birikmalar, lingvistika, muloqot, deontik modallik, illokutsiya, kontekst, suhbat, modifikator.

**Introduction.** Various functional-semantic categories within every language, can be (but not necessarily) based on grammatical or lexical categories, which forms as the core, the centre of functional-semantic category. In relation to this “center”, other components of the functional-semantic category represent as the “periphery”. The macrofield core of the politeness is a category of modality, since it concentrates special means of expressing the content inherent in a given functional-semantic category. The markers of politeness can serve as a function reducing the illocutionary force of the utterance (in English, in the literature, they are called “downgraders”) and amplifications (“upgraders”). To implement the distancing strategy mainly involved the so-called “downgraders”. Their main function is to soften the harshness of the utterance. According to M.Stubbs, mitigation-is the most important means of interaction in colloquial speech (‘basic interactive dimension’ of spoken language)[Stubbs, 1983:183].

Modality in the language can be expressed as the attitude of the speaker to reality or environment which is developing in the process of perception of the phenomena of the objective, real world. Human thoughts, opinions, relation to the real world are reflected with the help of the category of modality in the language. Analyzing, researching it in two English and Uzbek languages gave us some comprehensions in the linguistic sphere.

**Literature review.** The grammatical category of modality has been investigated in the works of several scholars, such as V.Vinogradov, W.Pagliuca, A.Kratzer, and therefore we consider here only one that part of the means, that most clearly explicate the category of politeness. Modality, as we already know, reflects the interaction between the four factors of communication-the speaker, the listener,the content of the statement and the reality. Meanwhile, it plays an important role, as the means of objective modality, which express the relation of the reported to reality in terms of reality and irreality(the main means of reflecting the category of modality in this function is verbal mood,) as well as various means of subjective modality,that express the attitude of the speaker towards the reported, and the content of the utterance. In modern English we can see a rich system of the lexico-grammatical means of expressing modal meanings: modal verbs: can, could, may, might, must, ought to, will, would, shall, should and the so-called type of modal verbs have(got)to, need to, had better. Some researchers, such as, Lyons, 1977; Hermeren, 1979; Perkins, 1983/ include in this class of units, also the modal expressions like to be going to, to be able to, “modal” adjectives and adverbs, probable/probably, possible/possibly, perhaps, maybe and some introductory constructions (parentheticals,) as well as conditional (subjunctive) mood.

**Research methodology.** In order to achieve intended plans, the research methodology should be organized precisely and synchronically. This article is written with the help of descriptive and comparative methodology.

Analysis and results. Researchers see the modal words in general, and the modal verbs in particular, as the main means of softening the illocution, since they carry out the

function of predicting various types of logical and actual possibility of the event be realization.[Davidenko, 1984]. Modal verbs are used as the means of softening the harshness of the utterance in its secondary function, which is expressed in a certain gap between semantic and pragmatic meanings of speech formulas. The modal verb must expresses a logical conclusion, which is based on specific facts and can be derived from the result of logical reasoning, while, the modal verb, should means an assumption, based on the expectation of a certain event, the verification of which only possible in the future. That's why, the utterance, "John must be easy to talk to" can be used, when the speaker sees, how kind John is in conversation, on the basis of that, he does corresponding logical conclusion; the utterance, "John should be easy to talk to"perhaps, can be used, when the speaker knows, that John wants to make a reputation as a sociable person, on the basis of which, the speaker expects that the conversation with john will be easy.[Lakoff R., 1972:233]. Modal verb can in the meaning of the assumption, reflects the possibility of an event based on the internal properties of the subject. "The road can be blocked=the road is possible to block the road". Modal verb may express the possibility of an event based on a subjective assumption. "The road may be blocked=It's possible that the road will be blocked". This semantic variety can be defined as the difference between the theoretical and actual possibility[Leech, 1974:75-77].

Wide range of modal verbs used in the utterances with the meaning of a request (can, could, may, might, will, would) also allows us to convey a variety of shades and varying degrees of politeness.

-May I ask you something?

-If you like.

-Can I .I mean…Could I…no, might I have the next dance with you?(Hartley&Viney, Streamline English, 1996:11)

In the final statement of the above given dialogue, the use of different modal verbs within the same utterance clearly shows the difference in meanings they convey and different forms of "politeness" of each of the verbs taken out of context. The category of modality is understood as the main part of the semantics of the sentence. In linguistics,it is stated that, the modality should be understood as the attitude of the semantics of the sentence towards the objective world and the attitude of the speaker towards the meaning of the sentence. Modality is divided into two groups:

1.Objective 2.Subjective modality

Objective modality is expressed in the syntactic separation field of the sentence, while,the subjective modality expresses the attitude of the speaker towards the objective semantics of the sentence. Subjective modality is expressed with the help of special words that come in the function of introductory phrase, or other words, that come in the function of modality.

The second meaning of modality, which is interpreted as deontic modality, manifests itself in more complex type of contexts. The occurance of this type of modality is mainly connected with the speaker's need to establish social relations and social status with the help of discourse. Modal linguistic units act as one of the most crucial tools, that help to achieve certain strategic goals: to convey the speaker's communicative intention not directly, but, somehow in veiled and indirect form, as the result of which, reduce the intensity of the speaker's illocution; express the uncertainty of the possible occurance of the named action; keep away both the listener and the speaker himself, from the prompted action, thus, emphasizing the unreality its implementation; give the opportunity to choose the addressee, etc,. It is obvious, that, in several linguistic studies, modality is called as the interpersonal aspect of grammar , which is considered to be central part of the both written and oral speech. In speech discourse, the means of modality function to establish personal relationships and to some extent, determine the character of interrelation between interlocutors[Carter &McCarthy,1997:18]. In the English language we can observe such sentences with modal components.

"Can you spare me a few minutes?" –it is the expression of polite request with the usage of modal verb, "can", and from the meaning we can conclude, that the speaker needs the listener's help and asking to take his time.

"Can you come over today?"- in this expression, we can see the reflection of inviting the listener, with the usage of modal verb, "can" and by asking this question, the speaker wants to know the possibility of the listener's intention about coming. The requests, requiring more effort and time are used with hypothetical form "could", and in addition to this, we can see politeness markers as "kindly, possibly, likely" in the structure of the sentence:

"Could you kindly/possibly help me with lifting this table?"

This expression is also mostly used in English communication in the form of "Could you do me a favor" and has higher degree of politeness as two linguistic units: modal verb and politeness marker are used in one sentence.

Now, we observe some examples of questions that are directed towards the speaker himself, and they are always considered to be much more polite, than the questions directed towards the interlocutor: "Can(Could) I+….", "May(might)I+…"are the modal constructions of such self-directed questions.

"Can I take your pen?" – this request-permission expresses that, the speaker needs a pen and asks a permission to use his interlocutor's, this type of question sounds more polite, as it includes personal pronoun "I" after modal verb "Can" and is directed towardsly the speaker himself. Another example of such questions is "Can I help you?"- the polite way of offering one's help and expressing one's desire or readiness to help interlocutor.

"May I come in?", "May I have the bill?" – are the self-directed questions that express inquiry about permission and request. For instance, "May I offer you another drink, sir?" -It should be noted that, we use "May(might) I+…."in more formal situations and it sounds more polite than "Can(Could) I+….".

"May" expresses more respect for the addressee, and therefore, we can see its usage mostly in formal events, conversations and among the people who don't know one another very well. The difference between may and might in the expression of permission thorugh speech act lies in the usage of communicative context. May is more common in official communicative environment, with a far socio-psychological distance between interlocutors, while, the modal verb can is a common form in neutral or relaxed atmosphere and close socio-psychological distance between communicants. However, it should be recognized, that the difference between these two word is losing its importance in today's communication. The following extended statements with modal components are also used in English communication.

The expression of request can be illustrated with such extended structures, that give more polite meaning to the sentence:

"Can I trouble you for+… ". "Can I trouble you for a warm glass of milk?"such expression of request is considered as too polite, and we can observe this kind of sentences only in the communication of strangers or the people not in close relationship.

"Do you think you could+…..."; "Would(will)you be so kind(good)as to+…."; 

"I'd be very much obliged if you+……" are also the examples of extended sentences with polite meaning.

"Do you think you could look afterAngela while I'm away? "

Mrs.Higgins:…….Mr Doolittle, will you be so good as to step out on the balcony for a moment?

"I'd be very much obliged if you could give me the laptop that you bought yesterday ".

In order to express question-permission, we can observe the following extended structures in the English communication.

"Would you mind doing…?", Would(do)you mind if I+…."

These kind of polite modal structures are also common in the English language, and mostly used in official settings: "Would you mind opening the window please?", "Would you mind if I had the TV on?" Besides, these examples, we can see lots of other extended expressions including modal verbs, that express invitation ,"May I ask you+Adv. P- to dinner, supper, the party, etc,." – "Vicomte de Nanjac: "May I have the pleasure of escorting you to the music-room, Mademouiselle?.......May I have the honor of taking you down to supper, Comtesse"(O.Wilde) Soothing "Don't let it+V.P-annoy, upset, worry you"- "Don't let these events worry you, everything will be ok, you will take the exam for good marks." request: Would you like+NP-whisky, tea, juice,etc. "Would you like to drink some coffe with us?". We should pay attention, that, the last group of given models, noun, adverbial and verb phrases are limited with the certain lexico-semantic group. The modal element of predication is capable of rendering its influence on any angle assessment of the situation, which the speaker is free to choose intentionally: he can explicitly express or hide the true intentions and pragmatic objects of the statement. For example, the form of will can be interpreted as forcing speech act: "Will you listen to me and stop interrupting?" and as a polite suggestion as in "Will you have another slice of lemon?".

The modality of reality in pragmatic purposes can be replaced by the modality of conjecture with the help of modal modifiers(Pragmatic markers)perhaps, probably, maybe, by(any)chance with the expression of meanings such as doubt, assumption and probability. The most frequently used modal phrase among these group of pragmatic markers is perhaps. As it is known already, it is characteristic for perhaps and maybe to be used mainly in the initial position of the sentence, while, probably and possibly are used in the middle position after the subject and before or as a part of a compound verbal predicate. These kind of words are usually used when expressing the polite advice or requests:

Perhaps, you ought to talk to Ann about it.

Perhaps, you might kindly call me and tell me where Ann is.

Could you possibly, show me how it works?

"You probably need some rest." ("The fault in our stars", J.Green)

Could you perhaps, say a few words about your new project.

Maybe, we should ask Tom for his opinion.

It is significant to state, that please has no restrictions on the usage, in terms of pragmatic-communicative context: it is a regular means of expression polite attitude of any speaker to any listener, regardless of their social status. In other words, the speaker can use the word please, when referring to hearer who is above him, below him, or equal to him. However, the presence of please in the imperative construction is not always reflected in its semantic extrapolation. For instance, if the boss gives an order to his subordinate, it will not be changed into request. In the situation sof verbal communication,it is preferable to use the particle, please, especially, when addressing to the strangers.Communicators are consciously aware that, addressing without please in such situations is a violation of the accepted norm of communication. For that reason, we can observe the usage of please more frequently in the communication of English people.

In Uzbek language the category of modality is expressed with the intrudoctory words, that come at the beginning of the sentence, such as albatta, shubhasiz, darhaqiqat, rostan ham, avvalo, ehtimol, chamasi, xullas, balki and etc,.After these words, we put comma, and they serve to mean the modal meanings of certainity, supposition or possibility in the sentence. There are different approaches to the category of modality in Uzbek language. For instance, we can look through the description of Q.Sapaev who divide them into different groups:

Modal words that indicate the exactness and correctness of the meaning given by the sentence: albatta,shubhasiz, so'zsiz, shaksiz, haqiqatdan, darhaqiqat and etc,.

Modal words that indicate the uncertainity, and supposition of the meaning expressed by the sentence: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, balki

Modal phrases that are used in the meanings of regret, surprise: afsuski, attang, ajabo, nahotki and etc,.

The phrases that are used to express the mutual relation and order of the opinions: demak, xususan,masalan, aksincha, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo..etc,.[Sapaev Q, 2009]

Let's consider some examples of modality in Uzbek language:

"-Albatta, bu gaplar hozir sizga juda g'ayritabiiy tuyuladi. Ammo o'ttizinchi yillarning oxiridagi ba'zi gazetalarni varqalab ko'ring."(O.Yoqubov, Diyonat.)

If we analyze this sentence according to the description of Q.Sapaev, we can include it into the first grouping of modal words, that, are used to express the exactness and correctness of the meaning.

"-Menga qarang azizim. Haligi odam bugun tuman rahbariga kiribdi. Pochtani tekshiribdi. Ehtimol, ertaga sizni tuman rahbariyatiga chaqirib qolishsa, o'sha gap-gap". (O.Yoqubov, Diyonat) This example, demonstrates, that the speaker is expressing his supposition and giving advice to his interlocutor with the help of this modal word.

"Hech qanaqa dabdaba bo'lmaydi.Xalq, xususan, yoshlar sizday olimlar bilan uchrashishni orzu qilishadi.." (O.Yoqubov, Diyonat) here, the speaker is using "xususan" , in order to express his opinion by order and, somehow is intensifying the role of his interlocutor in the up-coming event.

"Uyg'otib yubordim, shekilli, tog'ajon. Choy-poy ichasizmi?" (O.Yoqubov, Diyonat)In this example, the usage of the modal word shekilli is giving the meaning of uncertainity and supposition to the sentence.

"Demak, gap-shu!Latofatni roziligini oldik, to'yni boshlayverasiz!"(O.Yoqubov, Diyonat)

"Demak, shoshilinch choralar ko'rmog'imiz darkor, janob Qosimbek."(P.Qodirov, Yulduzli tunlar)

The analysis of above given two examples for the modal word demak express two different meanings in each sentence. In the first sentence we can see that, demak is used on the purpose of concluding, and closing the order of opinions, while in the next example, we can see its usage in the expression of giving conclusion and polite advice as well.

**Conclusion.** From the above given examples, we can conclude that, in both languages is expressed by different tools, and meanings. The category of modality has great role in creating polite atmosphere of conversation between interlocutors both in the English and Uzbek language. Appropriate usage of the modal words and phrases in the

language, provide us with long-lasting relationships among people, and gives the benefit of obtaining our intended goals from conversation.

## REFERENCES


1. Ратмайр Р. Прагматика извинения: Сравнительное исследование на материале русского языка и русской культуры 1996,М.: Языки славянской культуры.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс.2002, Волгоград.
3. Слышкин Г.Г, Лингвокулътурный концепт как системное образование. 1996,Воронеж.
4. Stubbs, M. Discourse analysis: The sociolinguistic analysis of the natural language. Chicago,IL: The University of Chicago Press.
5. Lakoff, R. Language and Women's Place, 1975,New York: Harper & Row.
6. Hartley B, Viney, P. Streamline English: Connections, 1996, Oxford: Oxford University press.
7. Carter, R.A, Mccarthy, M, Exploring Spoken English, 1997,Cambrige University Press.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:811.133

***Azamatbek NORMATOV,***
*Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti*
*E-mail:normatovazamatbek84@gmail.com*

*University of economics and pedagogy dosenti, PhD. F.Xabibullayeva taqrizi ostida*

## PREFIXATION AS A PRODUCTIVE WAY OF EXPRESSING THE INTENSITY OF ADJECTIVES IN MODERN FRENCH

Annotation

This article analyzes the forms of formation of phrases and adjectives using intensity prefixes in the French language, as well as the linguistic sphere of their use in modern French literature, in the language of media and advertising, political and scientific-technical literature.

**Key words**: prefix, intensity, expressiveness, prefix system, desemantization.

## ПРЕФИКСАЦИЯ КАК ПРОДУКТИВНЫЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ИНТЕНСИВНОСТИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В СОВРЕМЕННОМ ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются формы образования словосочетаний и прилагательных при помощи префиксов интенсивности во французском языке, а также лингвистическая сфера их употребления в современном французском художественной литературе, в языке печати и рекламы, политической и научно-технической литературе.

**Ключевые слова**: префикс, интенсивность, выразительность, префиксальная система, десемантизация.

## PREFIKSATSIYA – ZAMONAVIY FRANSUZ TILIDA SIFAT INTENSIVLIGI DARAJASINI IFODALASHNING SERMAHSUL USULI SIFATIDA

Annotasiya

Mazkur maqolada fransuz tilida intensivlik prefikslarining sifatlar bilan so‘z birikmalarini hosil bo‘lish shakllari shuningdek, ularning hozirgi zamon fransuz badiiy adabiyoti, matbuot va reklama tili, siyosiy va ilmiy-texnik adabiyotda qo‘llanilish doirasi lingvostilistik jihatdan tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** prefiks, intensivlik, ekspressivlik, prefiksal tizim, desemantizasiya.

**Kirish.** Ma’lumki, fransuz tili XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, intensivlik ifodalovchi prefikslardan foydalanishning eng mahsuldor davrini boshdan kechirdi. Ko‘p qo‘llanilganlik nuqtai nazaridan, til “bezib qolgan” intensivlik ravishlari “très” (juda) va “extrêmement” (benixoya, o‘ta darajada) o‘z o‘rnini sekin-asta extra-, hyper-, méga-, super-, sur-, ultra- kabi prefikclarga almasha boshladi. Mazkur prefikslar o‘z navbatida, sifatlar va otlarning intensiv shakllarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, sifatlardan archi-compétent, archidoué, extra-fort, extra-léger, hyper-chic, super-sympa, surfin, ultra-facile, otlardan archimensonge, hyperbronzage, méga-fête, une méga-idée, superbagnole, surcapacité, ultra-vérité singari birikmalar keng qo‘llanila boshlandi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur prefikslar sifat, ot va fe’llar bilan birikib, so‘zning asosiy mazmunini o‘zgartirmay, faqatgina unga yangi nozik ma’no beradi. Bu shakllar katta ekspressivlik hamda baholash-emotsional tus berilganlik bilan xarakterlanadi:

une vie super-chère,
un wagon archi-comble,
un super-remède, un poète archi-connu,
un jeu extra-sportif, une robe ultra-moderne

Bu intensivlik prefikslarining reklama tilida keng qo‘llanilishini, ularning siyosiy adabiyotda, publitsistik maqolalarda, davriy matbuotda yoyilganligini tushuntirib beradi. Yuqorida keltirilgan prefikslar ilmiy (texnologiya, tibbiyotga oid) adabiyotda yangi tushunchalarni bildirish uchun ishlatiladi, bular atamalashtirilgan deb nomlanuvchi hosilalardir. Vaqt o‘tishi bilan ularning qo‘llanilish doirasi kengayib, tilning lug‘at tarkibiga kiradi. Archifou, archiréactionnaire, extra-fin, extra-fort, hypersensible, surpeuplé, supra-national, surnaturel, extraordinaire, extra-fin, ultrarapide, archicrédule, archivieux, archi-connu kabi birikmalar so‘zlashuv tili va badiiy nashrlarda uchraydi.

Intensivlik prefikslarining keng tarqalish hodisasi ko‘plab tilshunoslarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. XX-asr tilshunoslari tadqiqotlarining [2], shuningdek so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar tahlili fransuz tilshunoslari bu hodisani turlicha baholashlaridan dalolat beradi [3].

Ularning ko‘pchiligi prefikslarning keng tarqalgan qo‘llanilishini vaqtning ta’siri, ya’ni tilning harakatiga so‘zsiz ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omil bilan tushuntirishga harakat qiladi. Biroq, ushbu hodisaning rivojlanishiga ko‘maklashadigan tilga oid ichki sabablar esa e’tiborga olinmaydi.

Misol uchun, G.Gyultenberg, til hodisalarini xissiy-ruhiy izohlashdan kelib chiqib, kuchaytirish vositalarining ko‘payishini individual psixologiya orqali tushuntirishga harakat qiladi. So‘zlarning yoki butun bir iboralarning emotsional-ekspressiv nozik farqlari ma’nolarining tez siyqalanib ketishi sababli, G.Gyultenberg individuumning belgini uzatishning yangi ancha ifodali vositalarini yaratishga bo‘lgan intilishi haqida so‘z yuritadi. Bu intilish kuchaytirish vositalarining ko‘payishini rag‘batlantiradi. Bunday innovatsiyalarga muallif prefikslar yordamida so‘z yasashni ham kiritadi, muallifning fikri bo‘yicha, ular individuumning belgini kuchaytirish ehtiyoji asosida kelib chiqqan. Intensivlik prefikslarining keng qo‘llanilishini boshqa fransuz tilshunosi

J. Marion ham o‘z tadqiqot ishida deyarli shunday tushuntirishga harakat qiladi. Farq shundan iboratki, bu yangi hosilalarning paydo bo‘lishini alohida individumlarning ehtiyoji bilan emas, balki butun bir davrning ehtiyoji bilan tushuntiradi [4].

Shuning uchun J.Marion intensivlik prefiksi bilan yaratilgan narsani o‘tkinchi, modalli hodisa sifatida baholaydi va bu innovasiyalarning tilda mustahkamlanib qolishiga shubha qiladi.

Shu bilan birga, boy faktik materialni keltirar ekan, muallif super- prefiksli ayrim yangi hosilalar shu darajada keng tarqalganligini, ular turmushning barcha tushunchalari deyarli butunlab qamrab olganligini, siyosiy matbuotda, reklama tilida keng qo‘llanilishini tan ola olmaydi.

M.Gallo o‘zining monografiyasida reklama tilining ta’siri bilan prefikslarning kuchaytiruvchi formantlar rolida tarqalishini tushuntiradi va “d’une hyperaffectation” xarakteriga ega bo‘lgan bu neologizmlarning umri qisqaligini ko‘rsatib o‘tadi [5].

F.Lalan esa reklama tilning ichki uyg‘unligiga zararli ta’sirini ta’kidlaydi, uning fikricha, reklama tili kuchli ta’sir ko‘rsatish, “frapper l’œil” (ko‘zni quvontirish) maqsadida qo‘llanilgan so‘zlar bilan qorishib ketgan [6].

Shunday qilib, hozirgi fransuz tilida sodir bo‘layotgan yangi jarayonlarni, shu jumladan, prefiksal so‘z yasashlarni baholashda tilning hodisalariga puristik yondashuvning namoyon bo‘lishi ko‘rinib turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Fransuz tilining tarixiy taraqqiyoti va takomillashuvi faktlarini, uning analitik shakllarga intilishini hisobga olmay (ya’ni ichki, asl tilga oid sabablarni hisobga olmay) ba’zi tilshunoslar kuchaytiruvchi prefiksal elementlar paydo bo‘lishining haqiqiy sabablarini aniqlay olmadilar. G.Gyultenberg va J.Marion sifat intensivligining darajalari kategoriyasida prefiksal tizimning qaror topishini aniqlashtirmadi va natijada ushbu hodisa tilning qonuniyatlari bilan hamjihatlikda ekanligi hamda normaga aylanishi anglashilmasdan qoldi [7].

Prefiksal mikro-tizimning hosil bo‘lishi va shakllanishini J.Dyubua va L.Gilber tilning o‘z tizimi ichidan tushuntirib, fransuz tili morfologik tizimining rivojlanishidagi umumiy tendensiyalarni aniqlaydi va shu bilan birga ushbu hodisaga ijtimoiy omil qanday ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Diaxron va sinxron tahlil J.Dyubua va L.Gilberga fransuz tili morfologik tizimining rivojlanishidagi kuchaytiruvchi prefiksal elementlarning kengayishiga, hamda prefiksal morfologik tizimning shakllanishiga imkon tug‘dirgan ichki tendensiyalarni ham ochib berishga ko‘maklashdi.

Bu eng avvalo quyidagilar:

a) fransuz tilining analitik shakllarga intilishi natijasida qiyoslash darajalarining flektiv tizimi deyarli analitik shakllar bilan almashtirildi. Prefiksal tizim, mualliflarning ko‘rsatib o‘tishicha, suffiksli tizimni almashtirdi va fe’l tizimida tuslanish qanday kategoriya bo‘lgan bo‘lsa, sifat tizimida shunday kategoriyaga aylandi;

b) kuchaytirish vositalarining, xususan, belgining intensivligini ifodalashning yangi kuchaytiruvchi vositalarini, keyingi kengayishiga imkon tug‘diradigan fransuz tilining intensivlashtirishga, ekspressivlikka moyilligidir. Shuningdek, tilda ushbu til strukturasining mavjud elementlari qo‘llaniladi. Misol uchun, sifat intensivligi darajalarini ifodalash uchun fransuz tili yunoncha-lotincha shakllar bilan etimologik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan prefiksal kuchaytirish elementlarini qo‘llaydi:

archi (grec.) – au-dessus de
extra (latin) – hors de
hyper (grec.) – au-dessus, à l’excès
hypo (grec.) – au-dessous
infra (latin) – au-dessous
sub (latin) – au-dessous
super, supra (latin) – au-dessus
ultra (latin) – au-delà, outre.

Genetik jihatdan bu prefikslar makon ma’nosiga ega bo‘lgan mustaqil so‘zlarni ifodalaydi, ammo ularning qo‘llanilishining kengayishiga qarab, ular o‘zining etimologik ma’nosini yo‘qotib, kuchaytiruvchi elementlarning funksional maydoniga o‘tib ketadi.

Shunday qilib, prefiksal tizim til strukturasida mavjud bo‘lgan o‘sha elementlardan rivojlandi. Ilgari to‘liq ma’noli bo‘lgan mazkur so‘zlar, asl ma’nosining susayishi yoki to‘liq desemantizasiyasi sababli o‘zining mustaqilligidan mahrum bo‘lib, sifat intensivligi darajasining ifodasi bo‘lib xizmat qiladigan struktur elementlarga aylanib qoldi.

**Taxlil va natijalar.** Fransuz tilshunoslari M. Izert, Sh.Bryuno, Kr.Nyurop, P.Porto, A.Doza, J.Dyubua, L.Gilberlarning ta’kidlashicha, kuchaytiruvchi prefikslarning rivojlanishi qadimgi fransuz tilidagi suffiksli fleksiyaning butunlay yo‘qolishidan oldin paydo bo‘lgan eng qadimiy hodisa hisoblanadi.

Kuchaytiruvchi prefikslarning shakllanishi, J.Dyubua va L.Gilber, P.Portoning fikriga ko‘ra, XVI asrga tegishlidir. O‘sha paytda, fransuz tilshunoslarining qayd qilishlaricha, outre- (XVIII-asrda u ultra- bilan almashtirilgan), archi-, sur-, super- kabi prefikslar sifat va otlar bilan birikib, kuchaytiruvchi elementlarning rolini bajargan. XVIII-asrda bu prefikslar kuchaytirish ma’nosida ayniqsa keng tarqaladi va qo‘llaniladi:

**Archi- (**Préfixe (du grec arkhein, commander), exprimant une idée de superlatif, d’intensité extrême ou indiquant un rang hiérarchiquement supérieur): archi-aristocrate, archi-jacobin, archi-monarchien, archi-patriotique, archi-révolutionnaire;

**Ultra-** (Préfixe, du lat. ultra, au-delà, indiquant un dépassement, un degré extrême) ultra-civique, ultra-républicain, ultra-révolutionnaire, ultra-pacifique;

**Sur- (**Préfixe indiquant une supériorité dans l’espace, le temps, la hiérarchie, le degré ou la qualité) surajouté, surchargé, surhaussement, sursolide, sursaturé, suroxygéné;

**Super-** (Préfixe du latin super, au-dessus de, exprimant une supériorité) superfin, supersaturé, supernaturaliste, superabondant, superéminent, superessentiel;

**Hyper-** (Préfixe, du grec huper, sur, indiquant une position supérieure dans l’espace) hyperboïdal, hypersublime, hypercritique, hyperdiabolique.

**Extra-** (Préfixe du latin extra, en dehors, exprimant l’extériorité (extraterrestre), ou du français extraordinaire, donnant à un adjectif une valeur superlative ou intensive (extrafin, extralucide)) prefiksi uzoq vaqt, to XIX-asrgacha o‘zining “tashqarida joylashuv” etimologik ma’nosini saqlab qoladi va faqat XIX-asrda kuchaytirish ma’nosini kengaytiradi: extrafin, extragrotesque, extra-civilisé, extra-nourrissant, extra-riche va boshqalar [8].

Bu prefikslar bilan hosil qilingan yangi so‘zlar tilning rivojiga o‘sha davrlarning ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlari bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar, sinfiy kurashning kuchayishi, savdo-sotiq bilan bog‘liq raqobat u yoki boshqa tushunchalarni bildirish uchun yangi atamalarning paydo bo‘lishi zaruriyatini keltirib chiqardi [9].

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, kuchaytiruvchi prefiksal elementlarning rivojlanishi ma’lum darajada ijtimoiy omillar bilan bog‘liq edi. Biroq kuchaytiruvchi elementlarni hosil qilish va rivojlantirish masalasini bu hodisani faqat tashqi, tildan tashqari sabablarning ta’siri bilan tushuntirish mumkin emas. Til materialining tahlili bu hodisa morfologik prefiksal tizimni hosil qilib, jadallik bilan rivojlanishni davom ettirayotganini ko‘rsatmoqda.

**ADABIYOTLAR**

1. M. Izert. L’emploi des préfi xes intensifs super- et sur- en français moderne: analyse morphologique, sémantique et comparative, Acta Philologica 38, Warszawa, Uniwersytet Warszawski, Wydz. 2010. Neofilologii, pp. 119-127.
2. H.Hultenberg. Le renforcement du sens des adjectifs et des adverbes dans les langues romanes. Forgotten Books (August 24, 2018). p.123.
3. J. Hanse. Nouveau dictionnaire des diffi cultés du français moderne, 4e éd. établie avec la collab. scientif. de Daniel Blampain, Paris, 2000. De Boeck-Duculot. M. Izert. L’emploi des préfixes intensifs super- et sur- en français moderne: analyse morphologique, sémantique et comparative, Acta Philologica 38, Warszawa, Uniwersytet Warszawski, Wydz. 2010. Neofi lologii, pp. 119-127. M. Izert. Un super-professeur! Un chef hyper-sympa! – analyse de deux préfi xes à valeur intensive dans leur emploi familier et publicitaire, sous la dir. de Dutka-Mańkowska A., Kieliszczyk A., Pilecka E. in: De l’ancien français à la linguistique computationnelle. 2012.
4. J.Marion. Une mode nouvelle en linguistique: Le “superlangage”. “Revue de philologie française”, 43e année,1929, p.170.
5. M.Galliot. Essai sur la langue de la réclame contemporaine. Toulouse, 1955.
6. Ph.Lalanne. Mort ou renouveau de la langue française. Paris, 1957. p.34.
7. P. Gilbert. Dictionnaire des mots contemporains (nouvelle édition), Paris, 1987. Les usuels du Robert.
8. Le Grand Robert de la langue française. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française de Paul Robert, 2e éd. entièrement revue et enrichie par Alain Rey, 1985. 9 vol., Paris, Le Robert.
9. L. Guilbert, J. Dubois. Formation du système préfixal intensif en français moderne et contemporain, Le français moderne 1961, Paris, pp. 87-111.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:81.373(030)

***Nodira NORTOYEVA,***
*Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi*
*E-mail:nodiran@mail.ru*

*PhD, dotsent M. Ishanjanova taqrizi asosida*

## EXPRESSION OF PRIMARY PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE FRENCH LANGUAGE

Annotation
This article deals with the formation of primary phraseological units and their transposition schemes in French. Based on examples, it is explained how phraseological units represent a complete form of primary phraseological units and serve as the basis for the formation of secondary phraseological units.
**Key words:** phraseology, phrases, primary transposition, primary phraseology, secondary phraseology, derivatives.

## ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРВИЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация
В данной статье речь идет о формировании первичных фразеологизмов и их схемы транспозиции на французском языке. На основе примеров объясняются, как фразеологизмы представляют собой законченную форму первичных фразеологизмов и служат основой для образования вторичных фразеологизмов.
**Ключевые слова:** фразеология, словосочетания, первичная транспозиция, первичная фразеология, вторичная фразеология, дериваты.

## FRANSUZ TILIDA BIRLAMCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya
Ushbu maqolada fransuz tilida birlanchi frazeologik birliklarning yasalashi hamda ularning transpozitsiyaviy sxemalari haqida so‘z boradi. Frazeologik birliklar birlamchi frazeologik birliklarning tugal shakli ekanligi, u ikkilamchi frazeologik birliklarning hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi misollar yordamida ochib beriladi.
**Kalit so‘zlar:** frazeologik birikmalar, iboralar, birlamchi transpozitsiya, birlamchi frazeologik birliklar, ikkilamchi frazeologik birliklar, derivatlar.

**Kirish.** Ma’lumki, frazeologik birliklar til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birliklar bo‘lib, nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, ba’zan esa gaplar shaklida ham keladi[1]. Ushbu birliklarning tuzilishi va mohiyati jihatdan o‘ziga hosligi sababli tilshinos olimlarning tadqiqot ob’ekti bo‘lib kelmoqda. Aslida frazeologik birliklarning shakllanishi ikki bosqich va uning ikkita kichik turi bilan ifodalanadi, shundan kelib chiqadiki, leksik-semantik va frazeologik darajadagi transpozitsiya bosqichlari soni mos keladi, lekin kichik turlari soni mos kelmaydi. Bunday xulosa frazeologik va leksik birliklarni shakllanishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki bu turli sathda birliklar tizimli (sistemali) shakllanishga egaligini ko‘rsatib turadi.

**Mavzuga oid abiyotlar tahlili.** Fransuz tilidagi frazeologik birliklarning tahlilli shuni ko‘rsatadiki, iboralar asosan transpozitsiyaviy sxemalar bo‘yicha amalga oshiriladi. G. Sokolova fransuz tilida frazeologik birikmalar yasalishi haqida gapirib, o‘z ishlarida birlamchi va ikkilamchi darajali transpozitsiyani sxemalar asosida keltirgan[2]. Ushbu sxemadan ishimizda foydalanish o‘rinli bo‘ladi. Birinchi darajali transpozitsiyada FS belgisi o‘zgaruvchan birikmani belgilaymiz, FSi esa frazeologik birlikdir. Ikkinchi darajali transpozitsiyada FS1 asl birlamchi frazeologik birlik, F1S2 esa ikkilamchi frazeologik birlikni ifodalaydi. F va S belgilari mos ravishda asl va uning derivatlarini shakli va mazmunini ifodalaydi.

Fransuz tilidagi birlamchi ibora yasalishi uchun xos bo‘lgan asl va hosila birliklar shaklining o‘zgarmasligi sxemadagi F belgisining saqlanishida aks etadi. Birikmaning bir darajadan boshqasiga o‘tishida S mazmunni bildiruvchi belgi 1 (S1) ko‘rsatkichini oladi, bu o‘zgaruvchan birikmani frazeologik birikmadan ajratib turadigan farqlarni ko‘rsatadi. Ikkilamchi transpozitsiya paytida asl frazeologik birlikning shakli o‘zgaradi ya’ni F → Fi, mazmun esa Si → S2 ga aylanadi. O‘zgaruvchan birikmalar va frazeologik birliklar komponent so‘zlarning o‘xshashlaridan iborat. Frazeologizatsiya jarayonida Mokienko ta’kidlaganidek, “jonli nutqda og‘zaki va nominal komponentlar majmui birinchi navbatda cheklanganligi” va qo‘shimcha ravishda qo‘llanmaning bo‘limlaridan biri bo‘lgan sifatdoshlarni qo‘shamiz. ularning tanlanishi va o‘zgaruvchanligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining bu xususiyatlari maxsus tahlilni talab qiladi, chunki transpozitsiyaning har bir bosqichi va kichik turi frazeologik birliklarning ma'nosi va tuzilishi bilan, demak, ularning tarkibiy qismlari bilan bevosita bog‘liqdir, chunki "frazeologik birlik komponentlarining tarkibini aniqlash. birlik, mohiyatan, frazeologik birlikning o‘zi ta’rifidir”[2,40b]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Frazeeologik tizimning rivojlanishi va boyitishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ta'kidlab, birlamchi transpozitsiya jamiyatning barcha sohalarida hayot sharoitlari bilan u yoki bu tarzda bog‘liq bo‘lgan juda yorqin va ifodali o‘zgaruvchan birikmalarni tanlashni o‘z ichiga olishini qo‘shimcha qilish mumkin[3].

Birlamchi transpozitsiya deganda frazeologik bo‘lmagan xarakterdagi o‘zgaruvchan birikmalarni (va jumlalarni) frazeologik birliklarga va ayni paytda transpozitsiyaning kichik turiga o‘tkazish orqali bilvosita nominatsiya birliklarini shakllantirish jarayoni tushuniladi. Birlamchi transpozitsiya mexanizmi asl o‘zgaruvchi birikmaning, gapning semantik yoki semantik-sintaktik qayta konstruksiyasidan iborat bo‘lib, bunda yangi shakllanishlar asl

tuzilishini saqlab qoladi. Masalan, “être sur les dents” o‘zgarmaydigan birikmasi ikki qiymatli frazeologik birlik negizida “tishlarni ustida bolmoq” deb so‘zma so‘z tarjimasini beradi hamda quyidagi ma’nolarni bildiradi: a) charchagan bo‘lmoq, holdan toygan bo‘lmoq, b) butun vaqtini ish bilan o‘tkazmoq. Ushbu ibora etimologiyasini kuzatsak, 1611 yili paydo bo‘lgan “adent” termini bilan bog‘liq, xususan bu so‘z “être face contre terre” ya’ni “erga yuzi bilan bo‘lmoq” ma’nosini anglatib, yuqoridagi birikmamizni birinchi ma'no‘si-charchagan bolmoq shundan kelib chiqqan[9]. Lug‘atlarda être inquiet, être en alerte, être sur le qui-vive kabi sinonimlari ham keltirilgan. Shuni aytish mumkinki, o‘zgaruvchan birikma va frazeologik birlik o‘rtasidagi asosiy farq ularning semantikasida namoyon bo‘ladi, asl nusxaning shakli derivat shaklidan farq qilmaydi.

**Tahlillar va natijalar**. Birlamchi transpozitsiya jarayonida o‘zgaruvchan birikmaning semantik o‘zgarishi va yagona semantik yaxlitlik hosil bo‘lishi hisobiga asl o‘zgaruvchi birikma frazeologik tabiatning barqaror obrazli birikmasiga aylanadi. Aynan birlamchi transpozitsiya tilning aksariyat frazeologik birliklari - barqaror obrazli birikmalarning shakllanishiga olib keladigan eng universal jarayondir.

Agar boshlang‘ich birikmalardagi kategorik o‘zgarishlar har doim ham tizimli xususiyatga ega bo‘lmasa, birlamchi transpozitsiyadagi semantik o‘zgarishlar muntazamlik bilan tavsiflanadi. Ko‘pgina birlamchi frazeologik birliklarning ma'nolarini taqqoslash birlamchi transpozitsiyada tur va uyali transpozitsiya kabi shakllarni aniqlash imkonini beradi. Aspektual transpozitsiya tashqi ko‘rinishida farq qiluvchi birlamchi fe'l frazeologik birliklarining korrelyativ juftliklari mavjudligini anglatadi, ammo aspekt tushunchasi "faqat harakatning mukammalligi yoki nomukammalligini ifodalash bilan cheklanib qolmasligi kerak". Ushbu yondashuvning kengligi nafaqat mukammal yoki nomukammal harakatni, balki ushbu harakatlarning turli bosqichlarini ham nomlaydigan og‘zaki frazeologik birliklarni tur transpozitsiyasi sifatida tasniflash imkonini beradi. Shunday qilib, être aux anges “baxtiyor bo‘lmoq”, ne pas être dans son assiette “o‘zini noqulay his qilmoq” (holat) — être à la bourre “kech qolmoq”, être sur la brèche “qiyin holatda ham g‘ayrat bilan ishlamoq” (harakat) misolida holat belgisi harakatning belgisiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Zamonaviy fransuz tili nafaqat bunday semantik qarama-qarshilik imkoniyati bilan, boshqa shakllarda aspektual transpozitsiyaning mavjudligi bilan ham tavsiflanadi. Shunday qilib, prendre de la bouteille yoki avoir de la bouteille frazeologik birikmasi vinoni saqlanishiga ishora bo‘lib, ko‘chma ma'nosida u holatni anglatadi - "qarimoq" (odam haqida), “yoshi o‘tgan sari tajribasi oshish”. Qarish (vieux) tushunchasi bilan semantik bog‘liq bo‘lgan harakatning to‘liqligi prendre un coup de vieux "-vieillir soudainement- “qarib ketish" kabi og‘zaki nutqdagi birlik bilan ko‘rsatiladi:

Lorsque nous rencontrons quelqu’un que nous avons perdu de vue depuis des années, nous avons parfois l’impression qu’il a pris un coup de vieux ; nous avons parfois, au contraire, l’impression qu’il n’a pas changé. Impression fallacieuse – la dégradation, secrète, se fraye d’abord un chemin à travers l’intérieur de l’organisme, avant d’éclater au grand jour.

(Michel Houellebecq, La carte et le territoire, 2010, pages 232-233)

Bugungi kunda uning analogi «passer de mode» modadan qolmoq, eskirmog mavjud [10]. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, frazeologik birliklarning o‘ziga xos qarama-qarshiligi fransuz tilining ibora shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Birlamchi transpozitsiyaning yana bir keng tarqalgan shakli bu asosan substantiv frazeologik birliklarni qamrab oluvchi ichki transpozitsiyadir. Ba'zi frazeologik birliklar o‘zgaruvchan birikmalar asosida hosil bo‘ladi, ular majburiy ravishda o‘zaro birlashtiruvchi bitta komponentni tarkibida bo‘ladi, bu esa ichki transpozitsiya sifatida belgilanishga olib keladi. Masalan, un coup de main « yordam », un coup d’oeil « nazar » , coup de foudre « bir ko‘rishda muhabbat », coup de chapeau «ta’zim», coup de feu «o‘q otilishi», coup de tête «o‘ylanmagan qaror”, coup de fil “telefon chaqirig‘i” va hokazo. Hozirgi fransuz tilida bu tipdagi frazeologik birliklar ko‘p.

O‘zgaruvchan birikmalarning frazeologik birliklarga o‘tishini amalga oshirishda semantik jihat asosiy hisoblanadi, shu sababli ushbu birikmalardagi transpozitsiyaning individual bo‘lgan ichki shakllari birlamchi transpozitsiyaga xosdir. Yuqoridagi misollarda ko‘rgan transpozitsiyaviy shakllarning mavjudligi ushbu jarayonning tartibliligini, uning tizimliligini tasdiqlaydi va o‘zgaruvchan birikmalarni qayta shakllanish holati frazeologik leksika rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini ko‘rsatadi. Frazeologik ibora shakllanishining birinchi bosqichi birlamchi transpozitsiya bilan, ikkinchi bosqichi esa ikkilamchi transpozitsiya bilan bog‘lagan holda aytishimiz mumkinki, ular ierarxik korrelyatsiyaga ega va semantik jihatdan xilma-xil bo‘lgan frazeologik birliklar yagona transpozitsion jarayonga birlashadi. O‘z navbatida, frazeologik birliklarning bosqichlari va funksional xususiyatlarini aniqlashdan maqsad, frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyati kommunikativ yaxlitlikning semantik elementi ekanligini ko‘rsatib berishdadir.

Ikkilamchi transpozitsiya deganda bir leksik-grammatik sinfga mansub birlamchi frazeologik birliklarning boshqa sinfga o‘tishi sababli ikkilamchi frazeologik birliklar shakllanishi jarayoni tushuniladi. Ya’ni avvaldan mavjud bo‘lgan ko‘chma ma’noli bilvosita nominativ birliklar asosida yangi bilvosita nominativ birliklarning hosil bolishidir[4].

Ikkilamchi transpozitsiyada asl birikma strukturasini saqlashi yoki o‘zgartirishi bilan birga semantik-sintaktik qayta quriladi. Masalan, verser des larmes de crocodile (timsoh ko‘z yoshlarini to‘kmoq) – les larmes de crocodile, «biron narsa ilinjida yig‘lamoq »- «yolg‘on ko‘z yosh »; être fauché (o‘rilgan bo‘lmoq) – fauché, «puli yoq bo‘lmoq » -«pulsiz , kambag‘al»; casse-pied - casse-pieds, "singan oyoq" - "zararkunanda"[5].

Fransuz frazeologiyasida birlamchi frazeologik birliklar asosida ikkilamchi frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni yetarlicha yoritilmagan. Buning asosiy sababi, o‘zgaruvchan fraza va birikmalarning frazeologizatsiyalanishi (iboraga aylanishi) bilvosita nominativ birliklarini shakllantirishning asosiy usuli sifatida ko‘rib chiqilgan[6]. Bu o‘rinda ikkilamchi frazeologik birlik deb, semantik va sintaktik o‘zgarishga qodir bo‘lgan frazeologik birliklar aytiladi. Bundan tashqari, ikkilamchi transpozitsiyaning konversiya, elliptik va derivatsion kabi shakllaridagi farq mavjudligini S. Ballining fikrlari ham tasdiqlaydi: “... har bir tilning o‘ziga xos transpozitsion shakllari mavjud bo‘lib, ular kategoriyalarni belgilashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi”[7].

Frazeologik birlik bu birlamchi frazeologik birliklarning tugal shakli bo‘lib, u ikkilamchi frazeologik birliklarni hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Avval semantik-sintaktik transformatsiyasi jarayonida murakkab birlik FB1 ni hosil bo‘lishini e’tirof etgan holda, yuqorida aytilgan ikkilamchi transpozitsiyaning shaqllari quyidagi sxemalar asosida ko‘rsatib berish mumkin: Elliptik transpozitsiya quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi: FS1 – E → F1S2 ( bunda E belgisi ikkinchi darajali frazeologik birliklarni yasashda frazeologik birliklarning ellips komponentidir), konversiya: FS1 → F1S2, derivativ konversiya esa: FS1 + suff.→ F1S2[2,33b]

Birlamchi transpozitsiyaning o‘ziga xos tomonlari quyidagilar:

a) o‘zgaruvchi birikma va frazeologik birlikning shakliy o‘ziga xosligi;

b) asl va hosila birliklarining bir xil funksional sinfga xosligi;

c) asl va hosilalar o‘rtasidagi semantik shakllanish munosabati mavjudligi.

Bundan farqli ravishda, ikkilamchi transpozitsiya quyidagilar bilan tavsiflanadi:

a) asl va hosila frazeologik birliklar o‘rtasidagi formal farq (konversion transpozitsiya bundan mustasno);

b) birlamchi va ikkilamchi frazeologik birliklarning turli funksional sinflarga xosligi;

c) birlamchi va ikkilamchi frazeologik birliklar ortasidagi semantik shakllanish munosabati.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, ulardagi xususiyatlardan ko‘rinib turibdiki, birlamchi va ikkilamchi transpozitsiyalar a va b bo‘limlarda bir biridan farq qiladi. Lekin ular c bo‘limda o‘zaro o‘xshashdir, chunki ularning boshlang‘ich va hosilalari semantika nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘liqdir. Frazeologik birliklar shakllanishining birinchi bosqichi bilan nazariy jihatdan bog‘liq bo‘lgan birlamchi transpozitsiya asl frazeologik birliklarning muhim qatorini qamrab oladi.

Ikkilamchi transpozitsiya, shakllari jihatidan birlamchiga qaraganda ko‘proq tarqalgan bo‘lib, boshlang‘ich birliklarning cheklangan miqdorida - odatiy frazeologik birliklarga tarqaladi. Birlamchi transpozitsiyadan farqli o‘laroq, bu bir leksik-grammatik sinfdan ikkinchisiga o‘tish natijasida ushbu maqomni olgan ikkilamchi frazeologik birliklar mavjudligining mumkin bo‘lgan bosqichidir, chunki ikkilamchi transpozitsiya uchun birlamchi frazeologik birliklarning nisbatan kichik guruhigina boshlang‘ich (original) vazifasini bajaradi.

Ma’lum so‘z turkumlariga oid so‘z yoki birliklar hamda ikkilamchi frazeologik birliklarning transpozitsiyasi haqidagi ma’lumotlarni solishtirsak, leksik-semantik sathda frazeologik birliklarining traspozitsiyasi bilan parallel holda ketmasligini ko‘rish mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. Sh. Rahmatullayev. Xozirgi adabiy o’zbek tili. –T., 2006, 418-bet
2. G. Sokolova. Sostav komponentov frazeologicheskix edinits fransuzskogo yazika. – S., 1994, 32-bet
3. B. Serebrennikov. K probleme tipov leksicheskoy ii grammaticheskoy abstraksii. –M., 1955, 55-bet.
4. V. Teliya. Vtorichnaya nominatsiya i ego vidi. –M., 1977, 129-betlar
5. Le petit Larousse. –Paris, 2000,293-bet
6. A. Nazaryan. Frazeologiya sovremennogo fransuzskogo yazika.- M., 1976, 5-bet
7. Sh. Bally. Obshaya lingvistika i voprosi fransuzskogo yazika. –M., 1955, 130-bet.
8. Nortoeva Nodira Muhammadalievna. (2023). Communicative-pragmatic direction in the study of phraseological units and their derivatives in French and Uzbek. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1526
9. https://www.expressio.fr/expressions/etre-mettre-sur-les-dents
10. https://fr.wiktionary.org/wiki/prendre_un_coup_de_vieux

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:420:398.9:943.75(045)

***Zarifa OCHILOVA,***
*Qashi davlat universiteti o'qituvchisi*
*E-mail: zara9104@mail.ru*

*Qarshi DU f.f.d.prof. G. Tojiyeva taqrizi ostida*

# LINGUISTIC STUDY OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, English and Uzbek folk proverbs are studied in the field of paremiology of folklore and differ from other genres of folklore with a number of peculiarities. In them, the idea is expressed in the form of a clear, complete conclusion, a concise sentence, guided by the expression of a particular sentence in a logical sequence, sharp polarity, and can be used in its own and figurative senses. In addition, the proverbs show their universal nature through the predominance of exemplary, instructive aspects.

**Key words:** Paremic genres, linguaculturological studies, paremiologists, folklorists, ethnographers, linguistic paradigm, ethnolinguistics

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq maqollari xalq og‘zaki ijodining paremiologiya sohasi bo‘yicha o‘rganildi va o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlandi. Ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalangan, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qilingan va o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqollarda ibratlilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o‘zining umuminsoniy jihatlarini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Paremik janrlar, lingvokulturologiya, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflar, lingvistik paradigma, etnolingvistika.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОСЛОВИЦ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье английские и узбекские народные пословицы изучаются в области паремиологии фольклора и отличаются от других жанров фольклора рядом особенностей. В них мысль выражается в форме ясного, законченного вывода, краткого предложения, руководствуясь выражением конкретного предложения в логической последовательности, резкой полярности и может употребляться в собственном и переносном смыслах. Кроме того, пословицы проявляют свою общечеловеческую природу через преобладание образцово-поучительных аспектов.

**Ключевые слова:** Паремические жанры, лингвокультурологические исследования, паремиологи, фольклористы, этнографы, лингвистическая парадигма, этнолингвистика.

**Introduction.** The relationship of paremic genres has not been studied in a complex way. Proverbs are studied on the basis of linguistic achievements under the name of semantic integrity. In particular, the research of M.Z. Sadriddinova is devoted to the study of the vocabulary of Uzbek proverbs and sayings. The approach to proverbs as a unit of language, that is, the definition of proverbs as fixed compounds, is reflected, albeit to a lesser extent, in dissertations. Among them is Bibish Jorayeva's dissertation on "The linguistic position and spiritual application of proverbs." In this study, the scientist tried to shed light on the similarities and differences between proverbs and sayings, proverbs and sayings from a linguistic point of view. It should be noted that there are very few linguoculturological studies of proverbs.

**Literature review.** Language is inextricably linked with culture. Today, economic, political, cultural and scientific relations between peoples, nations, countries, international and cultural communicative processes in the field of linguistics, the interaction of languages and language culture, as well as the national identity of language. led to the emergence of a new field - linguoculturology, which has its own specific direction and subject. As a result, by the end of the twentieth century, a new branch of linguistics, linguoculturology, aimed at studying the problems of language and culture, developed rapidly.

Linguoculturology is a separate branch of science that studies language and culture together, reflecting the interdependence of "language and culture", its formation and development. It is important to note that proverbs that have the same meaning in two languages do not exactly match. Translating idioms, proverbs, and sayings from one language into another is difficult to find alternatives or similar equivalents. Because they do not immediately come to mind. The following examples confirm our opinion: - The best of a horse is known from its footsteps, and the best of a man is from his words. It is a good horse that never stumbles. "Good is under the tree, Evil is under the feet." Hope for the best and prepare for the worst. "If you argue with the bad, you'll lose your dignity." Make the worst of both worlds. "If you approach the good, you will achieve, if you approach the bad, you will be ashamed." He that lies down with dogs must rise up with fleas. The world of proverbs and sayings is a "productive area" for the study of scholars - linguists, literary critics, paremiologists, folklorists, ethnographers. This is natural, because the proverbial form, although compact and simple, can be considered from different points of view. Proverbs, as a semantically and structurally complete text, also attract the attention of text linguistics, a relatively young branch of linguistics.

**Research Methodology**. Different proverbs in the same language, even in languages that are close to each other and not related to each other at all, may belong to the same logical type and show the same sign. Therefore, they are directly related to logical semantics and semiotics. Proverbs are sentences that, from a grammatical point of view, are a specific syntactic unit. Therefore, the formal structure of a proverb as a syntactic unit should be studied in grammar. In our view, such considerations are like axiomatic conclusions, not trivial ones. The researcher's task is to show how fair these are and how deep they are based on different languages that are related to each other and, conversely, much longer. It should be noted that in the late 80's, the staff of the Alisher Navoi Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of Uzbekistan published about 13,000 articles in alphabetical order. This example also shows the great and invaluable cultural heritage of the Uzbek people. It should be noted without hesitation that such a huge treasure is rarely available to the peoples of the world. Life experience shows that any poet can compose dozens of songs when nature is given to intense passion. But it takes decades or hundreds of years for a single proverb to be artistically perfect and to take root in the hearts of the people. When we talk about the history of the study of proverbs and the process of collecting them, we also need to think about their classification. There are several ways in which Uzbek folklorists classify proverbs:

• In alphabetical order. According to him, the available material is arranged in alphabetical order in the collection of proverbs. Its advantage is that the user can find the proverb in the collection faster.

• In the order of topics. This type of classification is more complex and perfect than the previous one. Because this type of material is divided into groups of specific topics, and the material on each topic is presented in alphabetical order. The collection of proverbs arranged in this order is both practical and theoretical, as they are easy to use and, most importantly, reflect the scope of a particular collection of folk proverbs.

• Depending on whether it is literal or figurative. The semantic nature of proverbs 15 changes over time: proverbs that were previously used in their original meaning can later have only a figurative meaning. Accordingly, there are two types of proverbs: a) used in their own sense; b) used in a literal and figurative sense; e) applicable only. In general, this type of classification allows us to identify semantic changes in the nature of folk proverbs over time, and to determine to what extent each proverb can meet the requirements of the period.

• According to the chronology of the social period in which it was created. Proverbs is an ancient, yet always modern genre. Its antiquity is as long as the history of the people. Folk proverbs reflect the various socio-economic processes experienced by a particular people. So you can tell when proverbs were created.

• By structure. In such a classification, articles are divided into several groups depending on the number of logical centers in the structure. That is:

1. 1-component
2. 2-component
3. 4-component and more.

When proverbs are studied from a linguistic point of view, it should be noted that anthropocentric research is important in linguoculturology. The role of anthropocentric research in the study of specific aspects of national culture within linguistics as a whole is unique, that is, it explores the commonality of culture-language and language-culture relations. Language is involved in two processes that are directly related to the worldview. First, it forms the linguistic representation of the worldview, in which the deepest layers of the human worldview are formed. Second, the language itself, using a special human lexicon, represents the worldviews of people, bringing to the language elements of the culture to which it belongs. The role of anthropocentric research in the study of specific aspects of national culture within linguistics as a whole is unique, that is, it explores the commonality of culture-language and language-culture relations. Language is involved in two processes that are directly related to the worldview. First, it forms the linguistic representation of the worldview, in which the deepest layers of the human worldview are formed. Second, the language itself, using a special human lexicon, expresses the worldview by introducing into the language elements of man, of the culture to which he belongs. The linguistic paradigm can be described as: "The linguistic paradigm is an example of universally recognized rules and views in the practice of linguistics, and it is a model that scientists rely on in their research." It is well known that in linguistics, paradigms do not change each other, but one complements the other, while the other coexists, ignoring the other. Traditionally, the scientific paradigm has been divided into three types: comparative-historical, system-structural, and anthropocentric. It is the first scientific paradigm in linguistics. For example, the comparative-historical method was the first special method of linguistics. In the system-structural paradigm, the word is the focus because the focus is on the object, the thing, the horse. The complex study of proverbs, especially in terms of content, is directly related to such disciplines as cultural studies, ethnolinguistics and ethnography. Culture is usually passed from one generation to another through language. In the early stages of social development, this was done orally, including through folk oral creations, particularly proverbs, one of the most prominent genres of such creation.

Istiqlol yillarida milliy romanning roman-pentalogiya, roman-tetralogiya, rivoyat-roman, mistik-roman; ilmiy-fantastik roman, ma’rifiy-biografik roman, esse-roman, roman-istehzo, roman-mushohada, roman-publitsistika, “mini-roman” kabi ichki shakllari yuzaga keldi. Janr namunalari semantik-struktur qatlamida esselashuv miqyosi kengayib, poetik ifoda imkoniyatlari ortdi. Shuning uchun mustaqillik davri o‘zbek romanshunosligida dunyoni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning G‘arbda taraqqiy topgan tamoyillarini Sharq-islom adabiy-estetik an’analari bilan uyg‘unlashtirish amaliyoti yuzaga keldi. Dunyo adabiyotshunosligidagi yangicha uslub va yondashuvlarni ijodiy o‘zlashtirish va tadqiqotlarda faol qo‘llash tamoyili shakllandi. Roman chinakam ma’noda, millatning olam va odam haqidagi tafakkur va taxayyul kamolini belgilovchi salmoqli janrga aylandi.

Mustaqillik yillarida yuzaga kelgan romanlarning qahramonlari inson hayotining ma’no-mazmuni haqida teran mulohaza yuritadigan, boshidan o‘tayotganlarini, kechmish-kechirmishlarini tahlil etadigan fazilatlari bilan ajralib turadi. Bu romanlar syujeti adabiy qahramonning beg‘ubor bolalik sog‘inch-iztiroblari, o‘z-o‘zi bilan kurashi, o‘tmish va zamonni qiyoslashi, faoliyatini taftish etaroq butun aybni o‘zidan qidirishi asosiga qurildi. X.Do‘stmuhammad “Bozor” va “Donishmand Sizif” romanlarida kinoya va o‘tkir qochirimlar, ramziy ishoraviylikka keng o‘rin berdi. I.Sulton epik bayonning muallif va personaj tilidan olib borishga, xotira va tasavvur faolligi negizida turli tushunchalarning semantik-assotsiativ bog‘lanishlari orqali obraz yaratishga intildi. Shu uslubdan foydalanilgani bois, adib romanlarining qahramonlari nainki o‘z ko‘rgan-kechirganlarini naql etishadi, balki tevarak-atrofida yuz bergan voqea-hodisalarga, olis va yaqin makon va zamonga ham istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan munosabat bildirishadi.

E’tiborli jihati shundaki, I.Sulton ikki tushuncha o‘rtasidagi oddiy assotsiativ bog‘lanishlar ifodasi bilan bir qatorda, muayyan tushunchaning boshqa ishoraviy belgi-sifatlar bilan qo‘shilishidan yuzaga keluvchi butun bir assotsiativ kompleksni yuzaga chiqarishga intiladi. Badiiy matnni bir qarashda bir-biridan uzoqdek tuyulgan alohida-alohida fakt va hodisalar o‘rtasidagi munosabat – assotsiativ-majoziy tafakkur asosiga quradi. Fikr qo‘zg‘ovchi belgi-so‘z kitobxon xotira va tafakkuri muayyan burjlarida mavjud tushuncha va tuyg‘ular, xotira hamda bilimlarga estetik ta’sir etib, ularni faol harakatga keltiradi. Xotira va hissiyotlarning bunday uyg‘unlashuvi o‘ziga xos “assotsiativ maydon” hosil qiladi. Ramziy-majoziy va ishoraviy tushunchalar anglangan yoxud kitobxon hissiy-mantiqiy kechinmalariga turtki bergan lahzalarda badiiy matn tarkibidagi barcha so‘zlar o‘zaro mantiqiy bog‘lanib, estetik qimmatga ega bo‘lgan assotsiativ-majoziy zanjir – yaxlit badiiy mazmun yuzaga chiqadi. Bir qarashda jo‘n axborotday tuyulgan ramziy-ishoraviy tushunchalarga xos belgi-sifatlar qabul qiluvchi (kitobxon) hayotiy tajribasi, xotira-xayolot kengliklari, tasavvur va taxayyul yuksakliklarida qayta idrok etiladi. Chunki I.Sulton asar yozilayotgan paytdayoq tasavvurdagi kitobxonning milliy-etnik, axloqiy-ma’rifiy, ruhiy-psixologik belgi-xususiyatlari hamda e’tiqodiy inonchlarini hisobga oladi.

Roman kompozitsiyasida matndan tashqari (ekstramatnli) muloqotlarga imkon beruvchi belgi-sifatlar mujassamlashadi. Boshqacha aytganda, romandagi assotsiativ-majoziy, badiiy-estetik, semantik-semiotik belgilar muallif va badiiy matnni qayta idrok etuvchi kitobxon o‘rtasidagi estetik munosabatni tiklashga imkon beradi. Chunki, axborot-xabarni metaforik kodlayotgan adib idrok qiluvchi subyektning yetakchi g‘oyani qayta shakllantira olish imkonini ham nazarda tutadi. Shuning uchun muallif va kitobxon ong va tuyg‘ulari muayyan nuqtada uyg‘unlashib, kommunikativ-estetik dialog yuzaga chiqadi. Albatta, bu o‘rinda ongli va qobiliyatli, o‘ta ziyrak va zehnli, keskin fikrlovchi kitobxon xotirasida muqim saqlanuvchi muayyan darajadagi tasavvurlar tizimi (voqelik semantik-estetik modeli) mavjuddir, – deb hisoblashga to‘g‘ri keladi. Agar shunday bo‘lmaganida, romandagi belgi-ishoralarni tabiiy va madaniy (milliy) hamda dunyoviy (belgi – ism) darajalarida dekodlash mumkin bo‘lmasdi. Zotan, poetik tasvir qayta idrok etishga imkon bersagina uni assotsialar zanjiri uyg‘unligida sog‘lom mantiq tiliga ko‘chirish mumkin.

Masalan, birgina XX asr misolida olib qaralganida ham, ozodlik kurashchilari va istiqlol fidoyilarining mahv etilishi, ikkita jahon urushi dahshatlari, kommunistik ijtimoiy-siyosiy qatag‘onlar, millatni o‘zligidan begonalashtirishni ko‘zlovchi turfa shakl-shamoyildagi axborot xurujlari, global ekologik falokatlarni zamondosh intellektual kitobxon qayta idrok etmoqda. Demak, u insoniyat ijtimoiy-madaniy tajribalarini qayta idrok etish jarayonida roman ijodkori bilan bemalol intellektual dialogik muloqotga kirisha oladi. Hukmron elitani tarix va zamonlarni qiyoslash orqali xolis baholash hayotiy tajribasiga ega. Kitobxon tasavvurlar tizimi (voqelikning semantik-estetik modeli) deganda biz aynan shularni nazarda tutamiz.

X.Do‘stmuhammad va I.Sulton o‘z bitiklari o‘quvchilariga ma’qul bo‘lishi uchun yuqoridagi jihatlarni e’tiborda tutish, ya’ni kitobxon tasavvur-xotirasi bilan o‘z konseptual badiiy-estetik qarashlari o‘rtasida assotsiativ parallellizmni yuzaga chiqarish va o‘quvchiga badiiy matnni o‘z ma’nosi hisobiga to‘ldirish uchun yetarli motivatsiya berish, u bilan belgi-ishoralar tilida ijodiy hamkorlik qilishga kuchli ehtiyoj sezishadi. X.Do‘stmuhammad va I.Sulton romanlarida biz ko‘plab folklor, mumtoz va jahon adabiyotining nodir asarlaridagi o‘zgarmas semantik asosga ega bo‘lgan diniy-ilohiy, mifologik manbaalar, ertak, afsona yoxud dostonlarga xos yetakchi obrazlar, syujet va motivlarga duch kelamiz. Aslida, “uy”, “yo‘l”, “ona”, “bola”, “gul”, “dengiz”, “tog‘”, “ko‘l” singari an’anaviy obrazlar; farzandsizlik, g‘ayrioddiy tug‘ilish, yo‘l, sinov kabi motivlar bilan bog‘liq syujetlar ming yilliklar davomida insonga hamroh bo‘lib kelgan mifopoetik ongning aks-sadolaridir. Tipologik barqarorlik va umumlashmaning yuqori darajada namoyon bo‘lishi adabiy arxetipning asosiy xususiyatidir.

I.Sulton ham “Boqiy darbadar” va “Ozod” romanlarida personajlar tushib qolgan hayotiy shart-sharoitlarni sodda va qisqa hikoyalarda masalnamo yo‘sinda tasvirlaydi. Adib bu voqea-hodisalar ustidan poetik hukm

chiqarishni ko‘zlaydi. Binobarin, roman syujeti real hayot hodisalarining in’ikosi emas, balki fikr ifodasi uchun keltirilgan misol maqomini egallaydi. Chunki adib Qur’on va hadis haqiqatlari, ilohiy mujda va xushxabarlar hamda qadimiy hikmatlar talqini vositasida o‘z fikr-g‘oyalarini o‘quvchiga ishonchli tarzda yetkazib, uni ayni muammolar tegrasida fikrlashga majbur qilishga intiladi. Ular bir jihatdan o‘z ma’nosida tushunilsa, ikkinchi jihatdan, tarixiy voqelikdan uzilgan holda, muallif ifodalamoqchi bo‘lgan ramziy-majoziy haqiqatni ham tashiydi. Shu nuqtada ular yangi zamon, aniqroq aytganda, bugunning masal-ibratlariga ham aylanadi. Demak, romanlarda har biri o‘zicha mustaqil va bir-biriga bog‘lanuvchi ikkita harakat va ma’no maydoni mavjud.

Nazarimizda, badiiy minimalizm (ing. Minimal Art – minimal san’at) yo‘li bejiz tanlanmagan. Chunki katta hayot materialini deyarli o‘zgarishsiz, sodda shaklda berish oson emas. Minimalizmda muallif ekspressiv vositalar qo‘llash, lirik chekinish va sub’yektivizmdan tiyilishi, keraksiz tafsilotlardan qochib, belgi-ishoralar tilida “pandnoma” so‘zlashi lozim bo‘ladi. Minimalizm postmodernistik badiiy uslubidagi asarlarda personajlarning tashqi xulq-atvoriga e’tibor qaratiladi. Muallif ularni sharhlamay, kundalik suhbat-muloqotlarga keng o‘rin beradi. Shu bois, minimalizmga asoslangan badiiy matn kitobxondan o‘z tasavvurlarini ishga solish, asosiy kontekst dinamizmi, statik tabiati va sinkretizmidan kelib chiqib, o‘z xulosasini ulashni talab etadi. Bunda minimum vositalar bilan maksimum natijalarga erishiladi. Zotan, bu hol badiiy adabiyotda meditatsiya (lotincha, meditation – fikrlash, chuqur o‘ylash) – inson aqlining butun faoliyatini muayyan bir nuqtaga jamlash, his-tuyg‘uga yo‘g‘rilgan mushohada (muroqaba)ga keng yo‘l ochadi.

Minimalizm “Boqiy darbadar” va “Ozod” romanlariga asos bo‘lgan ilk manbalar va bu romanlar mazmuni o‘rtasidagi munosabatni tenglashtirish, klassik namunaga imkon qadar yaqinlashtirish uchun tanlangan. Tabiiyki, bu hol poetik ifodani soddalashtirish, tafsilotlar, syujet holatlari, umume’tirof etgan personajlarni joylashtirish, yetakchi xarakter belgilarini tavsiflashni talab etadi. Adib shu yo‘singa amal qilib, Qur’oni karim oyat va qissalarida keluvchi hikmat-ibratlar, hadislar yoki biror adabiy-tarixiy, badiiy manbalar mazmuniga ishora qiladi. Qizig‘i shundaki, bu hol I.Sultonning aksariyat romanlarida takrorlanadi. Natijada, adib uslubi bilan bog‘liq ramziy-majoziy paradigma yuzaga keladi.

**Xulosa va takliflar**. I.Sulton arxetipik va muqaddas qissa va masal syujetlariga murojaat etadi. U real hayot hodisalari va zamondosh inson xatti-harakatlari, fikr-o‘ylari bilan Qur’on mavzulari o‘rtasida kutilmagan, ammo mohiyatan yaqin parallelliklar topishga intiladi. Ramz, majoz va ishoralar tilida so‘zlashga, ilohiy xushxabarlar haqida o‘z zamondoshlariga pandnoma mujdalar yetkazish va ularni ogohlikka chorlashga mayl bildiradi. Global zamon shiddatli evrilishlari tufayli dunyoning birqadar unutilgan arxaik modeli, qadriyatlarga asoslangan tizimini qayta tiklash, muayyan ma’noda, yangi mif va masal yaratishga urinadi. Muhimi, ularning aksariyati ilohiy xushxabar ohanglari asosiga qurilib, kitobxonni azaliy va abadiy savollar qarshisida qoldiradi. O‘z-o‘zini taftish etish, shaxsiy hayotida tanlov yo‘lini izlashga undaydi.

**ADABIYOTLAR**


1. Davronova Sh. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Sharq va G‘arb an’analarining badiiy sintezi. – Fil. fanl. dok. (DSc) diss. avtoreferati – Samarqand, 2019. – B. 49.
2. Isajon Sulton nasri badiiyati. – T.: Turon zamin ziyo, 2017. – B. 208.
3. To‘rayev Damin. Yangi o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 2008. – B. 178.
4. Umurov H. Tahlil chizgilari. – T.: Muharrir, 2013. – B. 239.
5. Yo‘ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // Jahon adabiyoti. – T.: 2015, № 10. – B. 108-119.
6. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2018. – B. 19.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 811.111. 81’373.7(045)

***Xurshid SAYFULLAYEV,***
*SamDU Urgut filiali o‘qituvchisi*
*E-mail: sayfullayevxurshid88@gmail.com*

*SamDU Urgut filiali, maktabgacha ta’lim va pedagogika kafedrasi mudiri PhD, B.X.Mardiyev taqrizi asosida.*

## O‘ZBEK TILIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya
Ushbu maqolada o’zbek tilida ko’p uchraydigan, asosan “yuz”, “bosh”, ”qo‘l” va “ko‘z” leksemalariga oid somatik frazeologik birliklarning milliy madaniy o’ziga xosligi, hamda ingliz va rus tillaridagi ushbu leksemalarga bog’liq ekvivalentlari haqida misollar mushohada qilingan.
**Kalit so’zlar:** yuz, yurak, chehra, taqim, qo‘li ochiq, qo‘li gul, tilla qo‘llar, green thumb, light hand, with open hand, oq suyak, tish va tirnoq.

## NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE

Annotation
In this article, the national cultural specificity of the somatic phraseological units that are common in the Uzbek language, mainly related to the lexemes "face", "head", "hand" and "eye", as well as the equivalents of these lexemes in the English and Russian languages are observed.
**Key words:** face, heart, face, outfit, open hand, flower hand, golden hands, green thumb, light hand, with open hand, white bone, teeth and nails.

## НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация
В этой статье даны слова наиболее распространённые в узбекском языке, в основном связанные с национально-культурной спецификой соматических фразеологизмов связанных преимущественно с лексемами «лицо», «голова», «рука», «глаза», а также рассматриваются примеры эквивалентов, относящихся к этим лексемам в английском и русском языках.
**Ключевые слова:** лицо, сердце, облик, колено, щедрый, золотые руки green thumb, light hand, with open hand,белоручка.

**Kirish.** Tarixdan ma’lumki, bepayon hududlarni egallagan ko’plab turkiy xalqlar nafaqat turkiy, balki boshqa turli xalqlar bilan ham do’stona munosabatda bo’lishga harakat qilgan. Ushbu munosabatlar jarayonida xorijiy so’zlarni o’zlashtirgan, o’zining leksik lug’atini shakllantiradigan va til shakllangan. Xalqlarning munosabatlari qanchalik yaqin bo’lsa, qarz olish shunchalik ko’p bo’lgan va aksincha. Ma’lumki, o’zbek xalqi ko’p asrlar davomida tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelgan, VII-X-asrlarda arab xalqi bilan madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar saqlanib qolgan. Bularning barchasi o’zbek tili rivojiga katta ta’sir ko’rsatmay qolishi mumkin emas, chunki bu munosabatlar natijasida o’zbek tilida faqat “yuz” so’zining 12 dan ortiq sinonimi borligini ko’rishimiz mumkin: bet, aft, bashara, tus, turq, chexra, jamol, diydor, oraz, ruxsor, ruy, siymo. Albatta, bu sinonimlarning barchasiga so’z yoki ma’noning ijobiy yoki salbiy ranglanishi mavjud. Ammo gap shundaki, bu 12 ta sinonimdan 8 tasi o’zbek tilining frazeologik birliklarini shakllantirishda faol qo’llangan. Masalan: yuz, bet, aft, bashara, tus, turq, chexra, diydor. Shuningdek “Yurak” leksemasi ham 5 dan rotiq sinonimga ega: yurak, qalb, dil, ko’ngil, bag’ir va ich.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Frazeologik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi ko‘pincha asli xalq bo‘lgan frazeologik birliklarda, shuningdek, adabiy kelib chiqishi frazeologik birliklarda namoyon bo‘ladi. Demak, ingliz tilida Shekspir asarlari, rus tilida A.S. Pushkin, o‘zbek tilida A. Navoiy, shuningdek bolalar she'rlari, ertaklari ko‘plab frazeologik birliklarning manbai bo‘ldi.

**Tadqiqot natijalari.** O’zbek tilidagi somatik frazeologizmlarning juda ko’p bo’lishini o’zbek tilida tananing har bir qismi, hatto eng kichik qismi ham o’z nomiga ega bo’lganligi bilan izohlash mumkin, bu solishtiriladigan tillarning hech birida uchramaydi. Masalan: «taqim» - oyoq bukiladigan bo’g’im, misol uchun “Sochi taqimini o’padi”.

*-Он заговаривал кровь, испуг, бешенство, выгонял червей, пчёлы' ему дались, рука у него была лёгкая* (Тургенев, Хорь и Калиныч).

Ushbu misolda ikkala tilda ham bir xil frazeologik birlik “har qanday ishda omad bilan ajralib turadigan, ishga korxonaga muvaffaqiyat keltiruvchi” ma’nosida ishlatilgan.

*-Эй, у кого рука лёгкая: покупай магазин открываю* [Мамин-Сибиряк, Три конца].

*-Kep qoling, kep qoling. Xali bay ochganim yuk. Ishkilib, ko‘liz yengilmi?*

Shuni ta'kidlash muhimki, ingliz tilidagi «light hand» frazeologik birligi, “engil qo‘l” deb tarjima qilinib, quyidagi mazmunlarda ishlatiladi:

1.«chaqqonlik» ( “light- handed” - chaqqon);

2.Noziklik, xushmuomilalik yoki " light in hand" – turtkisiz yurish (jabduqli ot haqida), bu hozirda oson ta'sirlanadigan, yumshoq, itoatkor odam ma'nosida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida shaxsga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lgan frazeologik birliklardan biri “epchil, tez, hamma

narsaga dosh beruvchi” ma'nosidagi “oyoq qo‘li chaqqon” frazeologik birligidir. Masalan: -*Mamat o’n besh kun yaylovda yayradi. Lekin cho‘ponlar har ishga Mamatni yugurtirishadi, xo‘jayin uning aytganini siyladida, achchik-tizziq gap qilmaydi. «Bor, paxtalik olib kel!», «Bor, ikkita kiygiz sura», Mamat esa gap qaytarmaydi, oyok-qo‘li chaqqon».* [Jar yoqasida chakmok, 12b].

“Qo‘li gul”, “tilla qo‘llar”, “green thumb” frazeologik birligida rus va o‘zbek tillarida “qo‘l” va ingliz tilidagi “thumb”da bitta somatik komponentning qo‘llanilishini kuzatish mumkin, garchi bu frazeologik birliklar bir-biridan farq qiladi. Demak, o‘zbek va ingliz tillarida bu frazeologik birliklarning ma'no va obrazlilik jihatdan yaqinligini kuzatish mumkin, har ikkala frazeologik birlikni bog‘dorchilik, “green thumb”, atrofdagi hamma narsani yashil qiladigan shaxs bilan bog‘lashimiz mumkin; “Qo‘li gul” – qo‘li hamma narsani gulga aylantiradigan odam bo‘lsa, rus tilida “oltin qo‘llar” o‘z ishining ustasi, o‘z ishida mohir kishidir. Masalan: Devor ko‘tarilgandan keyin Abdujabbor degan usta ishga tushdi. G‘irt chapani, ammo qo‘li gul yigit. [O‘.Xoshimov. Dunyoning ishlari, 160-b].

- *Леонтьев улыбнулся: до чего чудесный народ - неспокойный, талантливый, золотые руки!* (Паустовский, Повесть о лесах).

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati shundaki, “ko‘z” somatizmi ko‘pincha saxovat, ochko‘zlik kabi insoniy fazilatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. “Ko‘zi och” frazeologik birligi, ko‘zi och odam, ya'ni hamma narsadan mahrum bo‘lgan odam, tortib oluvchi, bu frazeologik birlikning antonimi bo‘lib, “ko‘zi to‘q” odam, xasis bo‘lmagan, boriga qanoat qiladigan kishi mazmunida qo‘llaniladi. Masalan: - *Nima qilsin, u sho’rlik ham yo‘qchilikdan ko‘zi och edi-da. O‘ktam mevalarni saralaydi, xidlaydi,birok yegisi kelmaydi, ko‘zi to‘q.*

“Qo‘li ochiq” frazemasi “with open hand” ma'nosida qo‘llaniladi. Masalan: - *Kichkinalingdayam qo‘ling ochiq edi-da, Ochil!* [Quduq tepasidagi oy, 78-b].

O‘zbek tilida “uylangan, turmush qurgan” ma'nosida “bosh” komponentli frazeologik birliklar ham juda ko‘p, masalan: “boshi bog‘liq”, “boshida eri bor”, “boshini ikkita qilmoq” frazeologik birliklari mazmunida ishlatiladi.

**Tahlil va natijalar.** Rus tilida “qo‘l va oyoqni bog‘lash” kabi frazeologik ibora mavjud bo‘lsada, o‘xshashlik faqat tashqi tomondan namoyon bo‘ladi. Ikkala holatda ham “bosh, qo‘l, oyoq” somatik tarkibiy qismlarining mavjudligi kuzatiladi, ammo bu frazeologik birliklarning ma'nolari bir biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu frazeologik birliklarga antonim sifatida quyidagi “boshi ochiq” frazeologik birliklarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bu frazeologik birlik “turmushga chiqmagan qiz” yoki “ajrashgan ayol”, ya'ni ersiz ayol ma'nolarida qo‘llanishi mumkin. Masalan: - *Gavxar!- deya qayirib tashladi.- Oldimdan o‘tmokchimisan. Shu niyatda qo‘ng‘iroq qildingmi? Nima etaginga yopishib yotganmidim men, tilimni qichitasan? Kimga tegsang, tegaverda, boshing ochiq-ku!* [Quduq tepasidagi oy,84-b].

Frazeologizm kelinning boshiga ro‘mol o‘rash, to‘ydan keyin esa qalpoq yoki ro‘mol o‘rash, ya'ni boshi ochiq yurmaslik odati bilan bog‘liq. Bu frazeologik birlikning rus tilida ham, ingliz tilida ham ekvivalentlari yo‘q, chunki o‘zbek tiliga yaqin turkiy tilda ham bu frazeologik birlik o‘zining bevosita ma'nosida, ya'ni “bosh kiyimsiz ayol” ma'nosida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida ingliz va rus tillaridan farqli o‘laroq frazeologik birliklar soch va soqol komponenti bilan berilgan bo‘lib, ular “yosh tavsifi” tushunchasi bilan bog‘langan: sochiga oq kirgan, oq soqol, soqoliga oq kirgan.

O‘zbek va rus tillarida “ijtimoiy ustunlik” belgisini ifodalovchi birgina frazeologik birlik bu *Oq suyak*, jamiyatdagi yuksak mavqeini bildiradi. O‘zbek tilida bu frazeologik birlikning o‘ziga xosligi shundaki, bu frazeologik birlik asosan arablardan bo‘lgan kishilarni belgilash chun ishlatiladi.

O‘zbek tilining ayrim frazeologik birliklari faqirlikni bildiradi: masalan: *og‘zi oqarib qoldi*. Bu frazeologik birliklarning vujudga kelishi o‘zbek tili madaniyatining maishiy qurilmasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Demak, chorvachilik o‘zbek tili madaniyatining kundalik hayotida, ayniqsa qishloqlarda katta o‘rin egallaganligi sababli, sigirning yo‘qligi oiladagi qashshoqlik (kosasi oqarmagan), uning bo‘lishi esa farovonlik belgisi (og‘zi oqargan) hisoblanadi.

“tish va tirnoq” frazeologizmi – butun kuchingiz bilan hayot uchun emas, balki o‘lim uchun to‘liq mos keladi, ya'ni, tuzilish va semantik jihatdan o‘zbekcha “tish tirnog‘i bilan” frazeologik birligi bilan bo‘lsa, rus tilida bu frazeologik birlik faqat “so‘nggi tomchi qongacha” frazeologik birlik bilan almashtirilishi mumkin.

- *The mining companies’ll fight tooth and nail to prevent any clauses in the bill interfering with their profits. - Шахтовладельцы будут изо всех сил бороться против любых пунктов законопроекта, которые ударяют их по барышам. - Tog'-kon kompaniyalari qonun loyihasida ularning daromadlariga xalaqit beradigan har qanday bandning oldini olish uchun tish va tirnoq bilan kurashadilar.* [K.Prichard. The Golden Miles, ch.XI].

E'tiborlisi, aksariyat hollarda o‘zbek tilining ko‘pgina frazeologik birliklari ingliz frazeologik birliklari bilan mos keladi, masalan: “to have a hand in smth”, vazn, ta'sir mazmunida.

*…. the cookery was so good that it was clear Lady Jane very seldom had a hand in it. –… tushliklar shu qadar sifatli va mazali ediki, ularni ledi Djeyn shaxsan tayyorlamaganligi aniq edi.* [W.Thackeray “Vanity Fair”,ch. XLV].

- *I thought myself it was a silly business, but I could not forget my father had a hand in it.*

- *Сам я считал, что эта глупая история, но я не мог забыть того, что мой отец в ней участвовал.*

Mazkur frazeologik birlik “qo‘li bor” frazeologizmiga o‘xshashdir.

*....shu ishda jurangniyam qo‘li bor ov? Arpasini xom o‘ribmizmi, deb garang* (Quduq tepasidagi oy, 75 c.).

**Xulosa.** Tahlildan ko‘rinib turibdiki, frazeologik birliklar barcha xalqlarga xosdir. Turli xalqlarning munosabatlari natijasida ko‘plab xalqlar o‘z tajribasini, shu jumladan frazeologik birliklarni o‘zgartirdilar, buning natijasida har bir tilda o‘zlashtirilgan frazeologik birliklar va kuzatuv qog‘ozlari paydo bo‘ldi. Xususan, injil va Shekspirizm barcha Yevropa xalqlariga xosdir. Ammo agar bibliyaviylik universal bo‘lsa, u holda Shekspirizmlar birinchi navbatda inglizcha hisoblanadi. O‘zbek tili tojik va arab tillaridan ko‘p o‘zlashtirilganligi bilan ham ajralib turadi.

Milliy-madaniy o‘ziga xoslik, shuningdek o‘rganilayotgan tillarning har birida somatizmlarning ayrim tarkibiy qismlarini boshqalari bilan almashtirishda va mahalliy xalqlar orasida har bir leksema somatizm tufayli yuzaga kelgan asnosida namoyon bo‘ladi.

Turli urf-odatlar va an'analar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarda milliy-madaniy o‘ziga xoslik aniq ifodalangan. Bunday holda, barcha taqqoslangan tillarda milliy va madaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan frazeologik birliklarning paydo bo‘lishining umumiyligini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday frazeologik birliklar mahalliy xalqning haqiqiy mulki, uning milliy madaniyatning bir qismi, faqat shu xalqga xosdir.

**ADABIYOTLAR**


1. Маматов А.Э. Фразеологизмларнинг шаклланиш асослари, Тошкент, 2000 йил.
2. Маматов А.Э. Эмоционально-оценочных фразеологизмов узбекского языка. Автореф.. канд филологич. наук. Т., 1988.
3. Вакк Ф.О. соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс… канд.филол.наук. Таллин, 1964.
4. Ҳошимов Ў. Дунёнинг ишлари. Т., Шарқ. 1996.
5. Мамин-Сибиряк Д.Н. Три конца. М., Художественная литература. Т.-3. 1981.
6. Паустовский К.Г. Повесть о лесах. М., Художественная литература. Т.-3. 1981.
7. K. Prichard. The Golden Miles. Ch.XV. Foreign Languages Publishing House. Moscow. 1959.
8. W. Thackeray. Vanity Fair. Ch.XLV Foreign Languages Publishing House. Moscow. 1959.
9. Фразеологический словарь русского языка /Под ред. А.И. Молоткова. М., Русский язык.1986

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 373.61.9:371

***Zulfiya SIDIKNAZAROVA,***
*Toshkent davlat transport universiteti chet tillar kafedrasi dotsenti vb*
*E-mail:zsidiknazarova@gmail.com*

*O‘ZDJTU professori, filologiya fanlari doktori J.Yakubov taqrizi asosida*

## SIGNIFICANT ASPECTS OF THE TRANSLATION OF ADJECTIVAL WORD CATEGORIES AND SYLLABLES IN FOREIGN LANGUAGES

Annotation

In this article, the significant aspects of the translation of adjectival word categories and syllables in foreign languages, and the fact that each language has its own characteristics, do not blindly refer to the translation language of the grammatical forms used in the original, but to the task reconstruction using alternative forms expressed through them. In particular, the ambiguity of quality and pronunciation today causes a number of imbalances in the process of translation into Uzbek. Given the lexical and grammatical features of adjectives and syllables in the text, it is obvious how important this topic is if we take into account the difficulties encountered in the process of communicating them to the reader. Analysis of the category of ambiguity is a complex study, covering the achievements and shortcomings of the translator in this regard, the turl different ways of translation in communicating to readers on the basis of alternative options and the problems that arise in translation.

**Key words:** foreign languages, word category, translation, method, fluent word category, concept of form, concept of content, contextual meaning, polysemantic words, form and meaning, speech activity.

## ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА КАТЕГОРИЙ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ И СЛОГОВ В ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются существенные аспекты перевода качественных категорий слов и наречий в иностранные языки, и тот факт, что каждый язык имеет свои особенности, требует функционального переосмысления фактически используемых грамматических форм на язык перевода не вслепую, а с помощью альтернативных форм, выраженных через них. В частности, многозначность прилагательных и наречий сегодня порождает ряд несоответствий в процессе перевода на узбекский язык. Учитывая лексико-грамматические особенности прилагательных и наречий в тексте, учитывая трудности, с которыми сталкивается в процессе их донесения до читателя, становится очевидным, насколько важна эта тема. Анализ категории многозначности представляет собой комплексное исследование, охватывающее достижения и недостатки переводчика в этом отношении, различные способы перевода при предоставлении читателям альтернативных вариантов и проблемы, возникающие при переводе.

**Ключевые слова:** иностранные языки, категория слова, перевод, метод, категория наречия, понятие формы, понятие содержания, контекстуальное значение, многозначные слова, форма и значение, речевая деятельность.

## CHET TILLARIDAGI SIFAT SO’Z TURKUMLARI VA RAVISHLARNI TARJIMA QILISHNING AHAMIYATLI TOMONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tillaridagi sifat so’z turkumlari va ravishlarni tarjima qilishning ahamiyatli tomonlari va har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi asliyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko‘r-ko‘rona emas, balki ular vositasida ifoda etilgan muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqazo etadi. Jumladan, bugungi kunda sifat va ravishlarning ko‘p ma’noliligi o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bir qator nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Sifat va ravishlarni matndagi leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o‘quvchiga yetkazish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni hisobga oladigan bo‘lsak bu mavzuni qanchalik muhimligi ko‘zga tashlanadi. Ko‘p ma’nolilik kategoriyasini tahlil qilish murakkab tadqiqot bo‘lib, bu borada tarjimonning yutuq va kamchiliklarini, o‘quvchilarga muqobil variantlar asosida yetkazishdagi tarjimaning turl xil yo’llari va tarjimada vujudga keladigan muammolarni qamrab oladi.

**Kalit so‘zlar:** chet tillari, so‘z turkumi, tarjima, metoda, ravish so‘z turkumi, shakl tushunchasi, mazmun tushunchasi, tarjima – nutq, kontekstual ma’no, polisemantik so‘zlar, Shakl va ma’no, nutq faoliyati.

**Kirish.** Tarjima - nutq yoki matnni bir tildan boshqa tilga o‘zgartirish faoliyati. Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu bo‘limi jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarida muhim o‘rin tutadi.Tarjima murakkab jarayon. Asl ma'noni to'g'ri etkazish uchun chet tilining xususiyatlarini tushunish kerak. Ba'zan tarjima uchun so'zlarni topish deyarli mumkin emas. Misol uchun, "qayta qurish" yoki "kommunal" atamalarining ekvivalenti yo'q, chunki ular juda o'ziga xos va o'ziga xosdir. Bu so'zlar Rossiya tarixidagi ma'lum bir davrga, ya'ni Sovet Ittifoqi davriga tegishli. Ko'pincha bunday qiyinchiliklarrus tiliga yoki aksincha, rus tilidan boshqa tilga badiiy tarjimada uchraydi.Natijada munozarali savol tug'iladi: "Asl nusxa bilan ishlashning eng yaxshi usuli qanday?" Tarjimonlar matnni shaffof va eng mayda detallarigacha qayta ko‘rib chiqishlari kerakmi? Yoki ular uchun asosiy mezon sifatida ish/matn atmosferasiga yopishib olish yaxshiroqmi? Ushbu bahslarni hal qilishda faqat belgilangan standartlar va ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish mumkin: aniqlik va sifat, ma'noni etkazish.Tarjimaning asosiy turlari va shakllari Zamonaviy chet tillari filologiyasi matnlarni janr, uslub va boshqa toifalar bo‘yicha ajratib turadi, ularning juda ko‘plari bor. Eng keng tarqalgan turlarini ko'rib chiqing. O‘tkazmalar quyidagilar bo‘yicha tasniflanadi:

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi zamonda O'quv jarayonida o'quv qo'llanma sifatida harakat qilish, tinglash asosiy, aslida kommunikativ rollarga qo'shimcha ravishda bir qator yordamchi, pedagogik funktsiyalarni bajaradi. U o'quvchilarning nutq faoliyatini rag'batlantiradi, o'quv jarayonini boshqarishni ta'minlaydi, talabalarni yangi til, nutq va mintaqaviy geografik material bilan tanishtirish uchun ishlatiladi, ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida ishlaydi, erishilgan nutq darajasini saqlashga yordam beradi, nutq samaradorligini oshiradi. fikr-mulohaza va o'z-o'zini nazorat qilish. Bugungi davrda chet tillarini o‘rganishning ahamiyati O‘zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori chet tilini o‘quv fan sifatida boshlang‘ich ta’lim tarkibidan to‘liq o‘rin egallashi, chet tillarni o‘rganishga qiziqishni kuchaytirish va xalqning o‘rtacha ma’lumot darajasini o‘stirish, umumiy madaniyatga talabning oshishi, xalqaro va madaniyatlararo hamkorlikka tayyorgarlikni shakllantirish kabi istiqboldagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. bir qancha chet tillari mutaxassislari chet tillarini o‘rganishni yangi metod va yo’llarini hayotga tadbiq qilishmoqda. bu albatta chet tillarni o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi. chet tillarida sifat ravishlardagi ma’noni asosiy shakllari va muammolarini tahlili. til insonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi vosita hisoblanadi. shakl va ma’no xususyatdagi nazariy muammolar aristotel, platon kabi faylasuflar yashagan davrlardan to hozirgi kunga qadar tilshunoslar, faylasuflar va fan arboblarini diqqat markazida bo‘lib kelgan. chet tillari ko‘p ma’noli so‘zlarga boy til hisoblanadi. matnda ko‘p ma’noli so‘zlarni ishlatilishi ularni qo‘llanilishini nazarda tutib qolmasdan, matnni ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Sifat so’z turkumi. Uning ma’no turlari haqida ma’lumotlar. Turkumi sifat deyiladi. Sifat asosan otga bog‘lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: oq ko‘ylak, kuzgi ekin, aqlli qiz, yumshoq non, o‘rtancha o‘g‘il. Bunda belgi bildiruvchi so‘z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi.

Sifat bog‘lanib kelgan ot turli so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanish mumkin, lekin sifat o‘zgarmaydi: ko‘k qalam, ko‘k qalamning, ko‘k qalamdan kabi. Sifat gapda asosan a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: Bir ozdan so‘ng yoqimli shamol esa boshladi; b) kesim bo‘lib keladi: Osmon tiniq. Sifat ba’zan fe’lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: U do‘stining yuragida kechayotgan tuyg‘ularni yaxshi tushunardi.Sifatning ma’no turlari. Sifatlar ma’no jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi: xususiyat bildiruvchi sifatlar: kamtarin, sho‘x, ziqna, sodda, yo‘rg‘a, mehribon; holat bildiruvchi sifatlar: keksa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand; shakl- ko‘rinish bildiruvchi sifatlar: gavdali, novcha, qiyshiq, yassi;

rang – tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil, pushti;

hajm – o‘lchov bildiruvchi sifatlar: keng, tor, uzun, yaqin, katta, og‘ir;

maza – ta’m bildiruvchi sifatlar: nordon, achchiq, bemaza, shirin;

hid bildiruvchi sifatlar: muattar, xushbo‘y, badbo‘y;

o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sifat – predmetning rangi, hajmi, shakli , mazasi, xarakteri, psixik holati, o‘rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarni anglatadi. Masalan qizil, katta, shirin, baland, yomon, sho‘x, ertalabki kabilardir. Sifatlar anglatgan ma’nosidan kelib chiqqan holda asliy va nisbiy sifatlarga ajratiladi. Sifatlar ko‘p ma’noligiga ko‘ra bir qancha qiziqarli muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va bunda asosan matndan kelib chiqadigan kontekstual ma’noga e’tibor qaratiladi. Millerning qayd etishicha “Sifatlar boshqa so‘z turkumlaridan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular sinonim va antonimlar bilan aloqaga kirishganda tilning lug‘at boyligini boyitishga xizmat qiladi”. So‘zlarda antonym va sinonimlar o‘rtasidagi aloqa bir vaqtni o‘zida vujudga keladi. Masalan “strong” sinonimlarning butun guruhini tashkil qiladi (sturdy, powerful, tough, etc) va u antonimik aloqasiga ko‘ra “weak” bian o‘zaro aloqaga kirishib guruhlarga ajratiladi (puny or frail). Sifatlar ko‘plab ma’nolarda qo‘llanilib, kontekstga bog‘langan va moslashuvchanlik xususiyatiga ega.

Antonim haqida fikr yuritishda, uni qanday vaziyatda ishlatilishiga qarab fikr yuritiladi. Masalan “light” sifati antonimi “dark” bo‘lib kelganda, uni “light”ning boshqa bir antonimi “heavy” dan ajratish kerak. Sifatlarni qanda tuzilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi ya’ni ularni otlar ishtiroki bilan tuzilishi asosiy tahlil vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlar ko‘p ma’noli sifatlarga oid ma’nolarni turlarga ajratishni taqozo etgan “Cobuild Dictionary”ni yaratilishiga sabab bo‘lgan. Yana bir sifatlar o‘rtasidagi ma’noni farqlash uni qanday gap bo‘lagi vazifasida kelishini bilishdir. Masalan: My old girlfriend (attributive) My girlfriend is old (predicative).

Sifatlarda o‘xshash ma’noni ajratish ham o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab o‘sha ma’noni tushunishga harakat qilinadi, shuni qayd etish joizki ba’zi sifatlar ko‘p ma’noli emasdek ko‘rinadi. Masalan “lax” yoki “leaden” ko‘p ma’nolidek ko‘rinmasada, ammo ularning beshdan ortiq ma’nolari bor.

Misol uchun: 1)“lax” sifati quyidagi ma’nolarga ega:

1.kuchsiz, zaif

2. nomukammal,talabga javob bermaydigan

3.bo‘shashgan 4.bo‘sh (idishga nisbatan)

5. qa’tiyatsiz

2) “leaden” sifati esa quyidagi ma’nolarga ega:

1. qo‘rg‘oshinga oid

2. og‘ir, qattiq

3. ko‘kimtir, bo‘z

4. bo‘shashgan, lohas

5. sekin, qiyinchilik bilan bajarilgan.

Shuningdek, yana shunday ko‘p ma’noli sifatlar borki, ularning , ma’nolari oltitadan ortiq bo‘lib, ba’zi ma’nolari sifatga yaqin taxminiy ma’nolar sifatida qayd etiladi va munozaraga sabab bo‘ladi. Shunday so‘zlar sirasiga apart, canonical, deyep, foating, idle, marginal, particular, remote, stable, unbalanced kabilardir. Masalan “deyep” sifati juda murakkab tahlil vositasi hisoblanib, uni 20 dan ortiq bir-biridan farqlanuvchi ma’no shakllarini lug‘atda kuzatamiz. Shu bilan birga u bir qancha so‘z birikmalari bilan birga o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Masalan “deyep space” – tubsiz koinot, “deyep design” – jalb qilingan loyiha “deyep freezer’- uzoq saqlaydigan muzlatkich, “deyep green”- tabiatga bog‘liq muammolarni hal etuvchi inson, “deyep mourning” qattiq aza tutish, “deyep structure” –murakkab tuzilish, “deyep bodied”- baliqsimon tana, “deyep discount” – og‘ir chegirma, “deyep fred”- yaxshi qovurilgan. Bundan ko‘rinadiki, sifatlarni ma’noga ajratish murakkab jarayon hisoblanadi.

Ravishlar holatni turli shakllari va vazifalarini o‘z ichiga olgan so‘z turkumi sifatida tez-tez muhokamaga sabab bo‘ladi. Ravishlarda grammatik hamda ma’no jihatdan sifatlar bilan bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ikkalasini birgalikda qiyoslab o‘rganilishini taqozo etadi. Agar ravishlar gapda turli vazifada kelsa, ular ifodalaydigan ma’no ham turlicha bo‘lishi mumkin:

1.Cow gives birth to a calf naturally. 2.Naturally, cow gives birth to a calf

Bu ikkita gapni birinchisida “naturally” ravishi “tabiiy ravishda” ikkinchi gapda esa “albatta” ma’nosida ishlatiliyapti. “quite” ravishini ma’nosi ham albatta kontekst bilan uzviy bog‘iq. Ammo Amerika va Angliyada ishlatilishiga ko‘ra bu ravish ma’no jihatdan farq qiladi. Amerikaliklar uni “juda” degan ma’noni ifodalash uchun qo‘llasa, Angliyaliklar “ozgina” degan ma’noda ishlatadi. Qo‘shimcha qilib aytganda, “quite few” (juda oz miqdorda) degan ma’noni bildirsa, “quiete a few” ( juda katta miqdorda) degan ma’noni bildiradi. Tarjimada mana shunday holatlarni ham e’tiborga olish lozim. Shu bilan birga “still”,“hard”, “last”, “then”, “rarely” kabi ravishlarni ham bir nechta ma’nolari mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Chet tillaridagi ravishlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar va yechim sifatida va ravishlarni ko‘p ma’noliligini talqin qilishda grammatik birliklardagi ma’no xususiyati bilan birga, jumla tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro munosabatga kirishish va moslashish holatlarini puxta bilish zarur, aks holda tilning grammatik hamda mantiqiy meyorlari yo’l qo‘ya olmaydigan ifodalar vujudga kelib qolishi mumkin. Chunki tarjimada asliyatda mujassamlasgan fikr tarjima tili vositalari yordamida qayta yaratiladi. Xulosamiz so‘nggida shuni qayd etish joizki, tillardagi ko‘p ma’nolilik tilni jozibasini sayqallash bilan birga, bir necha asrlardan beri qiziqarli tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875- son qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son.
2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T.: «Fan», 1977.
3. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1996. -139-b.
4. Kogan V.M. K voprosu o formalizatsii otrasli prava. // «Voprosi kibernetiki i pravo». – M.: «Nauka», 1967.
5. Nasrullo Jumanxo‘ja. Qonun tili mezonlari. – T.: «Muharrir», 2010.
6. Reformatskiy A.A. Misli o terminologii. // «Sovremenniye problemi russkoy terminologii». – M., 1986. 7. Sitkina F.A. Terminologiya i perevod: K osnovam sopostavitelnogo terminovedeniY. – Lvov, 1988.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 1072

*Malokhat TO‘QBOYEVA,*
*Samarqand davlat chet tillat instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti Sulaymanova Nilufarning taqrizi asosida*

## INGLIZ TILIDA STATIVLIK KATEGORIYASINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

Annotatsiya
Mazkur maqolada ingliz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi birliklar hamda ularning gap tarkibida ifodalanishi tahlil qilingan. Shuningdek, stativlik kategoriyasi, stativ birliklar mavjud bo‘lgan qurilmalar sintaktik sathda qiyosiy-tipologik jihatdan aniq lingvistik metodlar yordamida tadqiq etilgan.
**Kalit so‘zlar:** stativ birliklar, stativlik kategoriyasi, lingvistik metod, sitaktik tahlil.

## ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИЕ КАТЕГОРИИ СТАТИВНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация
В данной статье анализируются единицы, представляющие стативную категорию в английском языке, и их выражение в структуре предложения. Также на синтаксическом уровне с использованием сравнительно-типологически точных лингвистических методов изучались категория стативности, устройства со стативными единицами.
**Ключевые слова:** стативные единицы, стативная категория, лингвистический метод, синтаксический анализ.

## LINGUISTIC UNITS REPRESENTING THE CATEGORY OF STATE IN ENGLISH LANGUAGE

Annotation
This article analyzes units representing the category of state in English and their expression in sentence structure. Also at the syntactic level, using comparatively typologically precise linguistic methods, the category of stativeness and devices with stative units were studied.
**Key words:** stative units, stative category, linguistic method, syntactic analysis.

**Kirish.** Hozirgi zamon tilshunosligida xususan, qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarida muhim muammolardan biri hisoblangan stativlik kategoriyasi har ikkala til grammatikasida ham qo‘llaniladi. Ingliz tili grammatikasida holat kategoriyasi deb, subyekt vazifasida kelgan shaxs yoki predmetning ma’lum bir vaqtdagi holatini, aqliy yoki jismoniy kayfiyatini malum joyda turganligini yoki biror maqsadga yo‘naltirilganini ko‘rsatuvchi kategoriyaga aytiladi. Ingliz tilida holat kategoriyasi o‘zida keng ma’no jamlagan holda o‘zi ifoda etayotgan subyekt va predmetning holatini aks ettiradi. Ingliz tilshunosi B.I.Ilish ingliz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so‘z o‘rnida ishlatish mumkin bo‘lgan turkumlar haqida quyida shunday tarif bergan: “Holat kategoriyasini ifodalovchi so‘zlar ravish turkumiga kirishi bilan faqatgina ularni manosini ifodalamaydi, gapning to‘ldiruvchisi bo‘lib uning manosini kengaytiradi” [3,31].

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshinosligida holat kategoriyasi olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu kategoriyani o‘rganishda ingliz, o‘zbek va rus tili materiallari asosida izlanishlar olib borgan L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, B.I.Ilish, B.S.Xaymovich, B.I.Rogovskaya, O.E.Filimonova, Andrew Koontz, N.Sweet, A.A.Abduazizov, U.U.Usmonov kabi tilshunoslarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Stativlik kategoriyasini tadqiq qilishda turlicha yondashuvlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, ayrim tilshunoslar o‘rtasida uni mustaqil so‘z turkumiga aloqasi borligi turli munozaralarga sababchi bo‘lgan. Ingliz tili tilshunosi B.I.Ilish stativlikni bildiruvchi so‘zlar ko‘p hollarda fe’lga bog‘liq bo‘lib keladi [5;31] desa, B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalar esa “adlinks” ya’ni ravishni to‘ldirib keladi [4; 200] deb ta’kidlaydilar. V.V.Vinogradov ta’kidlashicha esa stativlik kategoriyasi sifatni to‘ldirib, uni o‘rnida qo‘llanila oladi deb hisoblaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so‘zlar ma’no va mazmun tuzilishiga ko‘ra, gapda mustaqil qo‘llanila oladi, biroq mustaqil so‘z turkumi hisoblanmaydi. Gapning ichki strukturasini ifodalashda yoki gapni paradigmatik yoki sintagmatik jihatdan tahlil qilinganda asosan subyektni yoki obyektni holatini ifodalaydi. Gapda holat shaxsning ruhiy holatini (ashamed, aware); shaxsning jismoniy holatini (astir, afoot); obyektning ruhiy holatini (afire, ablaze, aglow); obyektning fazoviy holatini (askew, awry, aslant) ifodalashi mumkin.

**Masalan:** ... *Aliberty, feeling responsible for the cook’s departure, and being afraid he would be punished.*

Yoki holatni bildiruvchi so‘zlarni a-prefiksiz ishlatib, uni boshqa turkum o‘rnini bosa olishini vaholanki, shunday bo‘lganda ham mustaqil so‘z turkumi emasligini ko‘rishimiz mumkin.

**Masalan:** *I was laid low by flu, just before my exams*. (in a poor or depressed state).

*His face wore a threatening though somewhat satisfied expression, while he pointed his long finger at the girl.*

Shu bilan birga holat kategoriyasi sifat bilan ma’no o‘xshashligini yoki ba’zi vaziyatlarda sifatning o‘rindoshi bo‘lib kelishini uchratishimiz mumkin. Shu o‘rinda professor O‘.U.Usmonov ta’kidlaganidek, sifatlar xususiyatni ifodalasa, holat kategoriyasini bildiruvchi so‘zlar holatni bildiradi, ikkinchidan sifatlarda daraja kategoriyalari mavjud lekin holatni bildiruvchi so‘zlarda esa bunday kategoriya yo‘q, uchinchidan ushbu so‘z turkumlarining gapdagi vazifalari bir xil emas deb ta’kidlagan so‘zlarini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

**Masalan:** *eager curiosity-curiosity agog- I was very unpopular because of my curiosity about other people’s affairs.*

Sifatlarning bir xususiyati mavjudki, sifat va sifatdoshlar bayon etmoqchi bo‘lgan fikrini mustaqil tarzda holat kategoriyasining analogiyasiga e’tibor bermasdan ko‘rsata olishi mumkin:

- **ruhiy holatini- happy, joyful;**
- **insonning jismoniy holatini-refreshed, healthy;**
- **obyektning yoki subyektning harakat holatini ya’ni - busy, functioning, active, employed -** kabilarni ifodalab keladi.

Holat kategoriyasining sifatdan farqli hamda mustaqil so‘z turkumi emaslik jihatlaridan yana biri bu, turdosh sifatlarning tabiiy ko‘rinishlari bilan ularning o‘rnida qo‘llaniladigan holatlarini ham qarama-qarshi qo‘yib isbotlashimiz mumkin. Bizga malumki, **“statives”** sifatning o‘rnida qo‘llanila olmaydi. Chunki unda daraja kategoriyalari mavjud emas. Holat kategoriyasining muammosi shuki, uni anglatuvchi so‘zlarning turli turkumlarda ifodalana olish xususiyatlari mavjudligidadir. Ular gapda fe’l ifodalab keladigan predikativ bo‘lib kela oladi, biroq to‘liq sifat bo‘la olmaydi. Xususan, to‘liq sifatlar egaga yondoshgan holda holatni bildirsa, asli negiz jihatidan daraja baholanadi. Darajani baholagan so’zlar holatni bildiruvchi sintaksema vazifasida qo’llanila olmaydi. Ko‘rinib turibdiki, sintaktik tuzilishiga ko‘ra holat kategoriyasini bildiruvchi so‘zlar daraja miqdorni ifodalamaydi, biroq ular analitik jihatdan taqqoslanganda umumiy sifatlarni ifodalashga layoqatlidir.

**Masalan:** *Of us all, Jack was the one most aware of the delicate situation in which we found ourselves.*

*I saw that the adjusting lever stood far more askew than was allowed by the directions.*

Semantik va tuzilish jihatdan holatni o‘rganadigan bo‘lsak, yasalish jihatidan so‘z o‘rindoshi sifatida otning, fe’lning, sifatning, ravishning o‘rnida kela olishi ko‘rildi. Ingliz tilida holat kategoriyasi ishlatish xususiyatiga ko‘ra gapda boshqa so‘z turkumlari bilan kelib yoki ular o‘rnida erkin holatda kelib holat ma’nosini bera oladi. Asosiy ma’noda holat o‘zi ravish turkumiga kirib, holni ko‘proq o‘zida ifoda etsada, harakat va so‘roviga ko‘ra boshqa turkumlar uni erkin holda ifoda eta olishadi. Ingliz tilida holat kategoriyasi fe’lning, ot, olmosh, sifat bilan qo‘shib ifodalanishidan yuzaga keladi. Ingliz tili nazariy va amaliy grammatikasida **The category of state (The statives)** alohida so‘z turkumiga ajratiladi degan qarashlar mavjud. Ammo uni alohida so‘z turkumi sifatida qabul qilish tilshunoslar o‘rtasida bahs talab qiladigan masalalardan biri ekanligi yuqorida aytib o‘tildi. Ingliz tilidagi holat o‘zgarishlari o‘zbek tilida ham bir miqdorda ifodalanadi. Mustaqil yoki alohida so‘z turkumi sifatida stativlik kategoriyasini har ikki til doirasida ham belgilab ololmaymiz. Ikki til morfologik sathida ham holat kategoriyasi leksik birliklar gap qurilmasida kesim vazifasida berilganda ingliz tilida bog‘lama fe’l **to be** ning shaxsli shakli va holatni bildiruvchi fe’llar orqali anglashiladi.

Masalan: It was the crying from down below that woke me up that hot night(P.B).

It was the crying…--- It felt cryness --- It is in the state of cry

Ingliz tilida holat fakatgina fe’lni o‘zining yakka ko‘rinishida ifodalanibgina qolmay ayrim tilshunoslari L.V.Shcherba va V,V.Vinogradovlar uni mustaqil so‘z turkumi deb qaraydilar , unda ular takidlaganlaridek substansial predikativli sifat ifodalanib ular alohida ma’no kasb eta oladi. Uning substansial jihatdan yondoshib predikativli ya’ni kesim (fel) tarzida kelishi uni ko‘p hollarda fe’l turkumi tarkibiga kirib, alohida turkum bo‘la olmasligiga sababdir. Ingliz tilida holat fakatgina kechinmalar va jismoniy va insoning ruhiy vaziyatlaridan kelib chiqqan holda namoyon bo’ladi. Holatni ifodalovchi sintaktik birliklar ishtirok etgan gaplarni komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilinganda ular gap qurilmasida yadroviy yoki ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasida kelishi mumkin.

**Masalan:** ***He is trouble.***

***I want you to be trouble.***

Bu gaplarni fe’lga yoki sifatga bog’lamasdan holatni yuzaga keltira olmaymiz. Fe’l insonning nafaqat uning ichki dunyosi orqali harakatlar sifatida talqin etadi. A- prefiksisiz kelgan fe’llar mavjud bo‘lib, ular ham harakatning bir maromda nisbiy harakatlanishi vaziyatida gapda stativlikni ifodalaydi. Shular jumlasiga aspektologiya fanining asosiy obyektlaridan biri bo’lmish stativ fe’llarni grammatikada stativ sintaksemani ifodalovchi birliklar deb qarashimiz mumkin. **“love”, “hate”, “agree”, “hear”, “satisfy”, “recognise”, “understand”** kabi birliklar garchan stativ so‘zlar deb nomlanmasada, biroq fe’l turkumi deb tushunilib, fe’l deb gapda ifodalanadi.

**Masalan:** *It was the crying from down below that woke me up that hot night.*

Holat kategoriyasini fe’l turkumidagi elementlar orqali ifodalanishini biz fe’llarning yolg’iz o‘zi ishlatilgan holatda zamon aspektiga ko‘ra izohlanadi. Fe’llar zamonlarda turlicha tuslanadi agarda fe’l oddiy zamonda ishlatilsa, u aynan holatni bildirmasligi mumkin.

**Masalan:** *to sleep -uxlamoq*

*to cry- yig’lamoq*

Bu fe’llar hozirgi zamon davom fe’li qo’shimchasi bo‘lmish **+ing** qo‘shimchasisiz holatni bildirmasligi mumkin. Chunki, u faqatgina bir harakatni ifodalab, holatni bildirmaydi. Holatni ifodalashi uchun fe’lning davomiy shakli orqali yasaymiz.

**Masalan:** *No, not talking-quarreling.*

*It was crying……….*

Bu fikrni O.E. Filimonovaning «Ingliz tili gap tarkibida stativlik sintaksemasi» nomli avtoreferatida ham ta’kidlab o’tganini ko’rishimiz mumkin. Zero, holatni faqatgina fe’lning davomiy shaklida uchratishimiz mumkin.

**Masalan:** *He was adrift on the shoreless tides of delirum, speaking very quickly.*

*He was mad going up every Sunday.*

*Cordelia was perfectly at ease, rejoicing in the food.*

*She was still sleeping. – She was still in a state of sleeping.*

*I was adrift in a strange sea. – I was drifting in a strange sea.*

Stativlik kategoriyasining bizga mavhum bo‘lgan jihatlarini ochib berish maqsadida bir qancha lisoniy metodlardan foydalanamiz. Buyuk tilshunos Ferdinand de Sossyur til sistemasini ifodalovchi va ifodalanuvchilarga bo‘lib atasa, Vilgelm fon Gumboldt esa nomema va semema deb ataydi. Ular orqali gaplarni komponent tahlil asosida stativ birliklarning gapdagi vazifasi va o‘rni aniqlanadi.

Komponentlarga ajratib tahlil (KT) qilish deganda gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o’zaro sintaktik aloqalarini yunksion modellar yordamida hamda ularning differensial - sintaktik begilarini komponent modellar asosida tahlil qilishga aytiladi. Har bir stativ birlik stativlikni bildiruvchi birliklar guruhining “ma’no doirasini” qamrab oladi. Bu qator doirasidagi har bir so‘z ma’nosi boshqasinikiga fe’l tarkibida moslashadi. Ular semantik umumiylikka egadir ayni paytda, bir-biridan farq qiladi. Shu asosda ularni qarama-qarshi qo‘yish va qiyoslash yo’li bilan har bir so‘zning ma’nosini komponentlarga (bo‘laklarga) ajratish mumkin. Ushbu differensial ma’no xususiyatlarini aniqlash komponent tahlilning asosiy maqsadidir.

Stativlikni ifodalovchi elementlarni komponent tahlili metodlardan asosida tahlil qilishning sababi shuki, u orqali so‘zlarning gapdagi vazifasi va o‘rnini, ayni damda nima maqsadda ishlatilayotganini ochib berishdan iboratdir. So‘zlarning boshqa so‘zlar bilan bo’lgan semantik aloqalari

asosida gapda izohlanadi. Professor T.A.Bushuy va Sh.S.Safarovning “Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi” nomli kitobida “Ma’nolarning bu usulda izohlanishi turli so‘zlarni ularning semantik belgilari umumiyligi asosida ma’lum leksik-semantik guruhlarga ajratish imkonini yaratadi”. Holatni bildiruvchi so‘zlarni komponent metod asosida tahlil qilishning ahamiyatli jihatlaridan yana biri uni tashkil etuvchi elementlarning faqatgina bir guruhga mansub emasligini aniqlashdan iboratligidir. Undagi mustaqil so‘z turkumi muammosi, hamda holatni bildiruvchi so‘zlar ayni damda ikki turkum tarkibiga mansubligidir. Olimlarning shu masala yuzasidan olib borayotgan munozaralari hamda yechimini topmagan ko‘p masalalarga komponent tahlili asosida oydinlik kiritishimiz mumkin.

**Xulosa.** Jahon tilshunosligida stativlik kategoriyasini tadqiq etishda morfologik, sintaksis, leksik va fonologik jihatlardan yondashuvlar mavjud. Bizning mazkur maqolamizda stativlik kategoriyasi stativ birliklar mavjud bo‘lgan qurilmalar sintaktik sathda qiyosiy-tipologik jihatdan aniq lingvistik metodlar (transformatsion va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, distributiv tahlil metodi) yordamida tadqiq etildi. Ushbu lingvistik metod har ikkala tilda stativli birliklarni tahlil qilishda yangicha yondashuv hisoblanadi. Jumladan, stativli birlikli gaplarning tashqi va ichki qurilmalarini, ya’ni gapdagi sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini belgilash, ularning differensial - sintaktik belgilarini hamda semantik maydonini aniqlab, ularni qiyosiy tahlil etish zamonaviy sintaktik tipologiyaning o‘ziga xos yangicha yondashuvlardandir. Stativlik kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillarida kategoriya sifatida tan olinib, xorij va o‘zbek tilshinoslari tomondan tatbiq etilgan jihatlarini o‘rgangan holda, qiyosiy – tipologik jihatdan biz yondashayotgan lingvistik usullar asosida stativli sintaktik birliklarni tahlil qilish bo‘yicha bir qancha yangiliklarga erishilganiga guvoh bo‘ldik. Ingliz tilida stativlik kategoriyasi alohida so‘z turkumi hisoblanmasligini biz har ikkala tillarda stativli birliklarni transformatsiyalarga solgan holda, statistik distributiv hamda sintaksemalarga ajratgan holda tahlil qilib chiqdik. Bu orqali esa har ikkala tillarda vujudga kelgan bir qancha savollarga javob topildi. Semantik va tuzilish jixatdan holatni o‘rganadigan bo‘lsak, yasalish jihatidan so‘z o‘rindoshi sifatida otning, fe’lning, sifatning, ravishning o‘rnida kela olishi ko‘rildi. Xususan, o‘zbek tili grammatikasida ham holat kategoriyasi mustaqil alohida turkum sifatida qo‘llanilmaydi. Stativ birlikli gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishda, stativli elementlarni gapda tutgan sintaktik o‘rnini aniqlab, ularni boshqa komponentlar bilan bog‘laydigan sintaktik aloqalarni aniqlash hamda ularning differensial sintaktik belgilarini va ularning morfologik xususiyatlarini transformatsiya metodi yordamida asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR**


1. Abduazizov A.A, Bushuy A.M, Bushuy A i dr. Istoriya latvisticheskiy tipologii. – Tashkent: NUU, 2006.-176 s
2. Barxudarov L.S. Ocherki po morfologii sovremennogo angliyskogo yazika.- Moskva: Visshaya shkola,1975.-156 s
3. Filimonova O.E. Substansialnie i kvalifikativnie stativnie sintaksemi v stukture angliyskogo predlojeniya\\ Gersenovskiye chteniya. Inostrannie yaziki(nauchnie dokladi) Leningrad: 1975.-S.38-42.
4. Haliday M. An Introduction to Functional Grammar. – L.: Oxford University Press, 2004. – 421 p.
5. Ilyish B.A. The structure of modern English. Moscow – Leningrad: Prosveshenie. 1971.-31-32 p.
6. Lenz Z. Deictic Conceptualization of Space, Time and Person//Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person. - Amesterdam/ Philadelphia. John Benjamins Publishing Company, 2003.-P.7-13.
7. Kilichev E. Xozirgi uzbek adabiy tili. Buxoro, Buxoro Universiteti nashriyoti, 2001.-228b
8. Muxin A.M. Sintaksemniy analiz i problemi urovney yazika. Leningrad: Nauka,1980.-304 s.
9. Usmonov O‘. Gap tahliliga yangicha yondoshuv\\ Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. SamDCHTIning 10 yilligiga bag‘ishlanadi.- Samarkand: SamDCHTI nashri, 2004.-B.106-107.
10. Usmonov O‘.U., Ashurov Sh.S. Ingliz tili nazariy grammatikasi. – Samarqand, 2007.-88 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 808.3

*Mumtozbegim TO‘XTANOVA,*
*NamDU tayanch doktoranti*
*E-mail:tuhtanovamumtoza@gmail.com*

*NamDU DSc. Professor Z.Sodiqov taqrizi asosida*

## DIASPORA: TUSHUNCHASI VA ADABIYOTGA TA’SIRI

Annotatsiya
Ushbu maqolada diaspora tushunchasining turli talqinlari aniqlangan. Ta’kidlanishicha, olimlar bu mavzuni ko’p yillardan buyon muhokama qilishsa-da, “diaspora” atamasi haqida umumiy tushuncha hali mavjud emas. Bundan tashqari afg’on-amerika diaspora adabiyoti va yozuvchilari haqida ham qisqacha ma’lumot keltiriladi.
**Kalit so’zlar:** klassik diaspora, yangi diaspora, diaspora spetsifikasi, etnik jamoa, migratsiya, afg’on-amerika diasporasi.

## ДИАСПОРА: КОНЦЕПЦИЯ И ВЛИЯНИЕ НА ЛИТЕРАТУРУ

Аннотация
В статье дается классификация трактовок понятия «диаспора», выдвигаемых исследователями. Отмечается, что, несмотря на многолетнюю дискуссию, ученым до сих пор не удалось выработать единого, общепринятого определения термина. Кроме того, в этой статье содержится краткая информация о писателей литератур афгано-американской диаспоры.
**Ключевые слова:** классическая диаспора, новая диаспора, концепция диаспоры, этническая община, миграция, афгано-американская диаспора**.**

## DIASPORA: CONCEPT AND IMPACT ON LITERATURE

Annotation
Different interpretations of the concept of diaspora are identified in this article. It emphasizes that while scientists have been discussing the topic for many years, the common notion of the term «diaspora» does not exist yet. Additionally, there is a brief information about afghan-american diaspora literature and writers.
**Key words:** classic diaspora, new diaspora, the concept of diaspora, ethnic community, migration, afghan-american diaspora.

**Kirish**. “Diaspora” tushunchasi qadim zamonlardan beri mavjud. U grekcha so’z bo’lib, “tarqatish”, “qochish”, “har tomonga sochish” ma’nolarini anglatadi va diaspora adabiyoti o’zi tug’ilib voyaga yetgan yurtidan boshqa davlatga ko’chib borgan va o’sha hududda ijod qilgan yozuvchilar asarlarini o’rganadi. Diaspora atamasi orqali asosan urush, bosim, ochlik, nochorlik sabab tug’ilib o’sgan yurtini tark etishga majbur bo’lgan immigrant, muhojir, ishchilar, qochoqlarning o’zga yurtlarda yashashi tushuniladi. Tarixan “diaspora” atamasi yahudiy xalqini quvib chiqarish va joylashtirish bilan bog’liq holda tilga olingan. Ibroniycha “galut” atamasi zamonaviy “diaspora” atamasi bilan sinonim bo’lib so’zma-so’z tarjima qilganda “surgun” degan ma’noni anglatadi [7].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Keng ko’lamli migratsiya natijasida juda ko’p aholi boshqa mamlakatlar va qit’alarga ko’chib o’tdi. O’zlarini vatanlaridan tashqarida, yangi, notanish muhitda topib, ular mavjud muhojirlar jamoalariga qo’shilish yoki yangilarini yaratishga intilishdi. Diasporizatsiya jarayoni shu qadar tez bo’ldiki, u mamlakat hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko’rsatdi. Diaspora hodisasining nazariy tushunchasiga G’arbning ko’zga ko’ringan tadqiqotchilaridan: J. Armstrong, R. Brubeyker, M. Dabag, R. Koen, U. Safran, G. Sheffer va boshqalar katta hissa qo’shgan.

Klassik (tarixiy) tushunchalar doirasida diaspora konseptsiyasining rivojlanishi yahudiy diasporasi modelidan foydalanishga asoslangan bo’lib, qiyosiy tadqiqotlar sifatida xizmat qilgan. XX asrning 60-90 yillarida tadqiqotlarning aksariyatini yahudiy, arman va yunon diasporalari egallagan. Bir qator tadqiqotchilar tomonidan, ko’plab o’xshashliklar aniqlangan, yahudiy va arman diasporalaridan tashqari “klassik diaspora”ga kiritiladigan bir nechta etnik guruhlar ham tilga olingan. Masalan, G. Sheffer va X. Tololyanlarning fikricha, bunday diasporalarga yunon o’troqlashishini kitirish mumkin; U. Safran lo’lilar, falastin va kuba diasporalari haqida gapiradi; M. Dabag va K. Platt xitoy diasporasi o’troqlashishiga ham e’tibor qaratadi, nihoyat, E. Skinner yahudiy, afrika, hind, xitoy va irland diasporalarini solishtiradi. “Irq, etnik va madaniyat” lug’atida diasporaning paydo bo’lish sabablari, asosan, quyidagicha ko’rsatilgan: “Diasporalar istilo, mustamlaka, qullik, quvg’in, diskriminatsiya va ta’qiblar, siyosiy mojarolar yoki urushlar, shuningdek iqtisodiy jihatdan aniqlangan migratsiyalar natijasida vujudga kelishi mumkin[7]. Ushbu masalaning nufuzli tadqiqotchilaridan biri V. Safran diaspora tushunchasining quyidagi mezonlarini belgilab berdi:

1) Asl tarixiy markazdan turli mintaqalarga tarqalib ketish;
2) O’zini mezbon jamiyatda begona sifatida his qilish;
3) Vatanga qaytish istagi;
4) Kelib chiqqan mamlakat bilan aloqalarni saqlash, yordam berish[3].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, har bir diasporaning o’ziga xosligi, klassik va bir qator o’ziga xos va hatto individual xususiyatlarining har xil kombinatsiyasiga ega. Ko’rinib turibdiki, zamonaviy migratsiya jarayonlari, yangi tarqoq etnik jamoalarning shakllanishi va birlashishi har doim ham yangi sifatga ega bo’lgan ideal tipga to’g’ri kelmaydi, bu esa shartli ravishda “klassik” (yoki tarixiy) va “yangi dasporalar”ga bo’linishga olib keladi. Iyerusalim universiteti professori G. Sheffer diasporalarni ijtimoiy guruhlar, siyosiy tuzilmalar va iqtisodiy intstitutlar tomonidan

tashkil etilgan turli aloqa va ulanishlar – transchegaraviy aloqa tarmoqlari sifatida tadqiq etgan.

R. Xettlage, U. Xannerts, T. Faist, R. Koen, R. Koxeyn, Dj. Naylar etnik diasporalarning eng muhim funksional xususiyatlaridan biri sifatida transmilliy aloqa tarmoqlarini shakllantirish va mustahkamlashga intilishlarini qayd qiladi. Bu tarmoqlar ichki yoki tashqi siyosat bilan chegaralanib qolmagan, shuni aytish kerakki, diasporalar tomonidan yaratilgan transchegaraviy tarmoqlar ham ularning madaniy, lingvistik va ta'lim ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi [2].

Umuman G'arb adabiyotida "diaspora" tushunchasi "vatandan tashqarida yashovchi aholi qatlami" sifatida talqin qilinadi. V. I. Dyatlovning so'zlariga ko'ra "diasporalar etnik vatanning o'ziga xos bo'lagi, davomi bo'lib, uning barcha asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan".

"Diaspora" tushunchasi hozirda munozarali mavzu bo'lib qolmoqda, ammo bu har qanday etnik guruhlarga, shu jumladan "begona" deb belgilanganlarga nisbatan faol foydalanishga to'sqinlik qilmaydi. Ko'rinib turibdiki, har bir etnik guruh diaspora vazifasini bajarmaydi, chunki diaspora jamiyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichi bo'lib, u quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi:

1) Guruhning yuqori darajadagi uyg'unligi;
2) Institutsional shakllari mavjudligi;
3) Shaharlarda ixcham joylashish tendensiyasi;
4) Vatandoshlarni ijtimoiy himoya qilish;
5) Faol o'zini o'zi tashkil etish va boshqarish;
6) Milatlararo munosabatlar tizimiga to'liq kirish;
7) Etnoelitalarning bosqichma-bosqich shakillanishi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi global davrda ko'p odamlar ish, biznes va savdo izlab ko'chib ketishadi. Tug'ilgan hududidan tashqarida tashkil etilgan barcha diasporik jamoalar vatanlarini doim o'z sadoqati va hissiyotari bilan birga eslashadi. Bu til, din va urf-odatlar orqali sodir bo'ladi. Diasporik odamlar ko'pincha madaniy o'ziga xosliklarni boshqarishadi. Diasporik xalqning o'z shaxsiyatini boshqarish usuli siyosiy, ijtimoiy, kasbiy va sinfiy omillar bilan belgilanadi. Diasporik jamoalar turar joy, madaniyat va assimilyatsiya jarayonini tanlashi mumkin. Agar bir kishi bir hudduddan boshqa joyga ko'chib o'tsa, identifikatsiya inqirozi paydo bo'ladi. Ular bir vaqtning o'zida o'zlarining kimligini topishga harakat qilishadi. Ushbu ko'p harakatchan va o'zgaruvchan identifikatsiyalar o'rtasidagi murosani transmadaniy o'ziga xoslikni shakllantirish orqali hal qilish mumkin.

Hozirgi davrda ma'lum bir guruh diasporalari asosan Amerikada ildiz otgan, ulardan biri afg'on-amerika diasporasi tadqiqotimiz markazi hisoblanadi. Afg'on diasporasi 1970 yillarning boshlaridagi ocharchilik va iqtisodiy tanglik sabab yuzaga kelib, asosan Eron va Pokiston orqali Yevropa va Amerika hududlariga Afg'onistonlik immigrantlarning kelib o'rnashishi beshta asosiy davrda kuzatiladi:

1) 1971-73-yillarda ishchilarning Eron va O'rta Sharqqa kirib kelishi;

2) 1978-79-yillarda Afg'onistonning oliy nasab vakillari, ularni qo'llab-quvvatlovchilar guruhining Pokiston va Eronga kelishi;

3) 1980-yillarda dehqon va cho'ponlarning Afg'onistondan Pokistonga kirib kelishi;

4) 1990-yillarda ziyolila, yuqori lavozimdagi mas'ullar va ishchilar guruhi immigratsiyasi, 1996 yilda malakali texnik va mutaxassislarning Pokistonga kelishi;

5) 1999-2001-yillardagi so'ngi migratsiya aholining barcha qatlamlarida Afg'onistondagi ocharchilik sabab sodir bo'ldi.

Diaspora adabiyoti asosan mustamlaka bo'lgan hududlardan Amerika va Yevropaga boshpana, tenglik va ozodlik istab kelgan yzuvchilar ijodida ko'rinadi. Chet ellik yozuvchi begona madaniyatda rad etish jarohatini boshdan kechirganda, etnik o'ziga xoslik bilan bog'lanadi. Vatanidan uzoqda yashayotgan muhojir muallif o'z asarlarida asosan o'z vatanini va o'tmishini maqsad qilgan. Yozuvchining chet ellik sezgirlgi o'z mamlakati, tarixiy kelib chiqishi, siyosiy va ijtimoiy hayoti yoki shaxsiy tajribasi bilan bog'liq har qanday mavzuni tanlashi mumkin. O'zlikni izlash va madaniyatlar to'qnashuvi zamonaviy badiiy asarlarda mashhur mavzulardir. Diaspora va uning adabiyotga ta'siri tegishli munosabatni keltirib chiqaradi. Muhojir yozuvchilarning aksariyati o'z vatanlariga sog'inch bilan qaraydilar va ijodiy yozishni muhim vositaga aylantiradilar.

Afg'on-amerika adabiyoti esa XX asrning 90-yillarida shakllangan. Hozirga qadar yaratilgan afg'on-amerika adabiyoti namunalarida Amerika madaniyatining ta'siri sezilarli bo'lsa-da, asarlarning bosh mavzusi sifatida Afg'onistonning urushdan oldingi, urush va urushdan so'ngi davrlari qiyosiy rakursda tasvirlangan.

Ijodkorlarning katta guruhi asosan o'smirligida Afg'onistondan siyosiy qochoq sifatida Amerikaga oila a'zolari bilan kelgan va diasporadagi tajribasini o'z madaniyati bilan uyg'unlashtirgan holda asarlarida ijtimoiy turmush tarzini badiiylashtirgan.

Afg'on-amrika diaspora adabiyoti vakillarini Sharq va G'arb an'analarining bir-biriga zid, ammo har ikkalasiga hos mushtaraklik birlashtirib turadi. Ular har ikkala mamlakat madaniyati hamda qadriyatlarini inkor etmagan holda o'z asarlarida diniy va dunyoviy g'oyalarni tarannum etishgan.

**Muhokama.** Afg'on-amerika yozuvchilari o'z asarlarida ayni paytdagi siyosiy holatni tasvirlashadi hamda jamiyatning etnik va til birligi bilan bog'liq ichki muammolarga murojaat qilishadi. Afg'on-amerika yozuvchilariga Xolid Husayniy, Mir Tamim Ansariy va Faruka Gavhariy kabi ijodkorlar mansubdir.

**Xolid Husayniy** 1965 yil Afg'onistonning Qobul shahrida tug'ilgan. Onasi qizlar maktabida fors tili va tarixdan dars bergan va otasi Afg'onistonning tashqi ishlar vazirligida diplomat sifatida faoliyat olib borgan. Oilaviy muhit Husayniyning yozuvchi sifatida shakllanishida va o'z yurtining ayanchli taqdiriga befarq qaramaslikka turtki bo'ldi. Husayniylar bir muddat Tehronda va undan keyin Parijda otasining diplomatik missiyasi sababli istiqomat qilishgan. Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik va doimiy qo'poruvchilik xarakatlari sabab, amerikalik do'stlarining yordami tufayli Fransiyadan Kaliforniyaga ko'chib ketishadi va u yerdagi muhojirlar jamiyatiga qo'shilishadi. San Xose shahri Husayniy voyaga yetgan va ta'lim olgan maskan bo'lib, u bu yerda dastlab biologiyadan, keyin tibbiyotdan ham amaliy, ham nazariy bilim va ko'nikmalarni egallaydi [6].

Xolid Husayniy asarlarida insoniy munosabatlarni o'ziga xos adabiy chizgilar yordamida tasvirlaydi va o'z adabiy aholisi orqali bugungi kunning global muammolarini ochib beradi. Husayniy "Shamol ortidan yugurib" (The Kite Runner), "Ming quyosh shu'lasi" (A Thousand Splendid Suns), "Tog'lar ham sado beradi" (And the Mountains Echoed) romanlari bilan tom ma'noda diaspora adabiyotining rivojiga salmoqli xissa qo'shdi.

**Mir Tamim Ansariy** 1948 yil 4 noyabrda Afg'onistonning Qobul shahrida tavallud topgan. Zamonaviy afg'on-amerika adabiyotida Mir Tamim Ansariy kabi hech bir yozuvchi Afg'onistonning yaqin o'tmishdagi tarixini badiiy to'qimalar bilan uyg'unlashtira olmagan. Ansariy badiiy asarlar muallifi va tajribali ustoz sifatida yosh ijodkorlarga yozuvchilik san'ati bo'yicha mahorat darslarini o'tkazadi. U tarix, siyosat va madaniyatga doir mavzularga bag'ishlangan nutqlari bilan ham mashhur notiq hisoblanadi. Asarlarining yaratilishi notiqlik ma'ruzalari bilan bog'liq, ya'ni ba'zan aynan ma'ruza mavzusi badiiy asar mavzusiga va aksincha kitob mavzusi navbatdagi ma'ruza mavzusining yaratilishiga

sabab bo'ladi. Uning adabiy-memuar asari “West of Kabul, East of New York” (Qobul g'arbi, Nyu York Sharqi) 2002 yilda nashr etilib muallifga katta muvaffaqiyat keltirdi. [10]

Yozuvchi 1964 yilda AQShga kelib oliy maktab va kollejda tahsil oladi. Keyinchalik Shimoliy Afrika va Turkiyaga chin ma'nodagi islomni izlab borib, u yerda islomizmga duch keladi. Adib o'smirlik chog'laridanoq xilma-xil sarguzashtlarni sevgan. Safar xotiralari, serqirra hayotiy tajribasi sabab turli-tuman mavzularda jonli ma'ruzalar bilan tinglovchilar e'tiboriga sazovor bo'lgan.

Ansariyning **“Games without Rules: The Often Interrupted History of Afghanistan”** (“Qoidalarsiz o'yin: Afg'onistonning chigal tarix talqini”) asari zamonaviy Afg'oniston tarixidan so'zlovchi tragediya bo'lib, so'ngi ikki asr davomida istilolarga guvoh bo'lgan Afg'oniston va u bilan bog'liq tarixiy haqiqatlar badiiy haqiqatga aylantirilgan.

**Faruka Gavhariy** Afg'onistondagi Qobul universitetining sobiq professori, Omahadagi Nebraska universiteti biologiya kafedrasida ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan va Afg'onistonda Pashtunlar tarixi bo'yicha kitob tahririyati a'zosi sifatida faoliyat olib borgan. Yozuvchi va olima Faruka Gavhariy 1947 yil Afg'onistonning Qobul shahrida davlat xizmatchisi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Afg'anistonning turli hududlariga ta'lim sifatini rivojlantirish uchun jo'natilgan bois oila doimiy ravishda yashash joyini o'zgartirib turgan.

To'liq biografik metodga asoslangan Gavhariyning **“Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey”** (“Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi”) 1996 yilda nashr qilingan bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga asoslangan. Asrda yozuvchi Afg'onistondagi 1978 yilgi inqilobdan oldingi oilasining, vatanining farovon vat inch damlarini eslarkan, bugun nochorlikka yuz tutgan yurt vakillarining ilgari naqadar baxtli yahsganliklarini badiiy tasvirlashga harkat qiladi.

**Xulosa**. Afg'on-amerika adabiyoti tadqiq qilinar ekan, mazkur adabiyotning diaspora xususiyati yetakchilik qilishiga guvoh bo'lish mumkin. Diaspora asarlarida har ikkala geografik hudud, ya'ni yozuvchi tug'ilgan va ijod qilyaotgan o'zga makon istiqboli yetakchi o'rin egallaydi. Diaspora adabiyotida yaqqol ko'zga tashlanadigan fenomen bir millat, mamlakat madaniyatining ikkinchi bir millat, mamlakat madaniyati bilan qorishib ketishidir. Afg'on-amerika diasporasida ijod qiluvchi yozuvchilar asarlarida mezbon mamlakatning qadriyatlari, stereotiplari ham ustalik bilan asarlariga kirita olishganki, bu xalqaro miqyosdagi madaniy chegaralarning buzilayotganligi globallashuv sharoitining bir omili sifatida namoyon bo'ladi.

**ADABIYOTLAR**


1. В.И. Дятлов // Диаспоры. 1999. № 1.
2. Г. Шеффер // Диаспоры. 2003. № 1
3. Попков, В.Д. «Классические диаспоры»: к вопросу о дефиниции термина [Текст] / В.Д. Попков // Диаспоры. 2002.
4. РУЗМАТОВА ДИЛНОЗА РАМАТЖАНОВНА:ХОЛИД ҲУСАЙНИЙ АСАРЛАРИНИНГ БАДИИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган ДИССЕРТАЦИЯ
5. Тамим Ансари (alphapedia.ru)
6. Халед Хоссейни — биография, книги, отзывы, цитаты (livelib.ru)
7. Bolaffi, G. Dictionary of Race, Ethnicity and Culture [Text] / G. Bolaffi. SAGE Publications London. Thousand Oaks. New Delhi First published. 2003.
8. Maryam Qudrat Aseel | Author | LibraryThing
9. R. Brubaker // Ethnic and Racial Studies. 2005. Vol.28.
10. Tamim Ansary - Wikipedia

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 811.111.376.3

*Oysuluv URALOVA,*
*Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d (PhD)*
*E-mail:gavhar.salomova@mail.ru*

*TerDU dotsenti, (DSc) A.Eshmo‘minov taqrizi asosida*

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZOOLEKSEMALI MAQOLLAR STRUKTURASI

Annotatsiya
Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi zooleksemali maqollarning ikki tildagi struktur xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada Ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning struktur turlarini aniqladik.
**Kalit so‘zlar**: maqol, zooleksema, struktura, chog‘ishtirish, frazologizm, leksik, eyfonik

## STRUCTURE OF PROVERBS WITH ZOOLEXEMA IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation
This article examines the structural features of English and Uzbek zoolexical proverbs in two languages. In this article, we identified the structural types of proverbs in English and Uzbek languages.
**Key words**: proverb, zoolexema, structure, combination, phraseology, lexical, euphonic

## СТРУКТУРА ПОСЛОВИЙ С ЗООЛЕКСЕМОЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация
В данной статье рассматриваются структурные особенности английских и узбекских зоолексических пословиц на двух языках. В данной статье мы определили структурные типы пословиц английского и узбекского языков.
**Ключевые слова:** пословица, зоолексема, структура, сочетание, фразеология, лексика, благозвучие.

**Kirish.** O’zbek xalqining kundalik hayotida jonivorlar juda katta ahamiyatga ega. Qadimgi turkiy xalqlarda ham jonivorlarni muqaddas bilishgan, ularga e`tiqod qilishgan. Aynan shu sababdan bo’ lsa kerak, tilimizda hayvon nomlari bilan bog’ liq bo’ lgan iboralar, so’zlar ko’pchilikni tashkil qiladi.

Qadimgi xalqlarda hayvonlarning turiga qarab, xalqning ijtimoiy ahvoli belgilangan. Turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma obidalari sifatida qaraladigan O’rxun-Enasoy obidalarida hayvon nomlarining ishlatilishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Mazkur bitiktoshlarda zoonimlar hajman ko’pchilikni tashkil etmasa-da, ular orqali anglashilayotgan ma`nolar o’sha davr xalqi hayoti, ijtimoiy ahvolini yoritishda muhim hisoblanadi. Ba`zi o`rinlarda bitiktoshlarda jonivorlar nomlari bugungi ma`nosiga aynan o’xshamaydi. Masalan, Kultegin va Bilgaxoqon bitiktoshlarida “T ğu baliq” degan iboralar ko’p qo’llangan. Ammo bu o’rinlarda baliq so’zi hayvon nomi sifatida emas, balki shahar, qal`a ma`nolarida ishlatilgan. To’nyuquq bitigtoshida ham bunday holatlar uchraydi, biroq To’nyuquq bitigtoshida hayvon nomlari nisbatan xalqning ijtimoiy ahvoli, aholining ma`rifiy holatini ifodalash uchun qo’llanilgan.

O‘zbek adabiyotida zoonimlar qadimgi bitiklarda qo‘llanganligini aytib o‘tdik. Sababi o‘zbek xalqi qadimdan hayvonlarni xonakilashtirgan, chorvachilik bilan shug‘ullangan, qir-adirlarda yilqi boqishgan. Chorvachilikda asosan qora mol, sigir qo‘y va sigir singari uy hayvonlari kishilarning to‘q hayot kechirishlariga hizmat qilgan bo‘lsa, it uy-o‘choq qo‘riqchisi, tulki, bo‘ri va shoqollar kishilarning halovatini o‘g‘irlagan. Shu kabi omillar zoonimlarning tilimiz va adabiyotimizda keng qo‘llanishiga sabab bo‘lgan. Biz yuqorida ingliz tilidagi zoonim frazeologizmlarni tahlil qilganimizda uch asosiy hayvon – it ot va mushuk bilan bog‘liq frazeologizmlarning nisbatan ko‘p ekanligiga guvoh bo‘lgan edik.

Insoniyatning til sathi necha yillik bilim, tajriba va madaniyati asosida rivojlanib, boyib boradi. Frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi xalqning madaniyati. Dunyoqarashi, urf-odatlari, kasbi, turmush tarzi hamda voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'iiqdir. FBlar obraziilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo‘lib, ular badiiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi yillarda frazeologiya taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning quyidagi turdagi strukturalari mavjud: Oddiy gaplar. Bu turdagi frazeologizmlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Mazkur frazeologizmlarda ot doim ega vazifasida keladi. Masalan: A cat may look at a king. – Mushuk qirolga ham tik qarashi mumkin.

The fox is not taken twice in the same snare. Tulkini ikki marta bir qopqonda uchratmaysan (ko‘r ham hassani bir marta yo‘qotadi) The wolf may lose his teeth, but never his nature. Bo‘ri tishlarini yo‘qotishi mumkin lekin fe’li tabiatini emas. A lion is known by his claws. Arslonni panjasiga qarab tanishadi. Ko‘p holatlarda ot aniqlovchilar bilan ham uchraydi: Masalan: All cats are grey in the dark. Hamma mushuklar qoronguda kulrang ko‘rinadi. A good dog deserves a good bone. Yaxshi it yaxshi suyakka loyiq (mazkur maqolning uzbek tilidagi analogi “Yaxshi otga bir qamchi”). An old dog will learn no tricks. Qari itni yangi nagmalarga o‘rgatib bo‘lmaydi. Son aniqlovchilar ham uchrab turadi. Masalan: Two dogs fight for a bone, and a third runs away with it – Ikki it suyak uchun janjallashadi uchinchisi uni ilib ketadi. (mazkur maqolning o‘zbek tilidagi analogi-yugurgannikimas buyurganniki). Two dogs over one bone seldom agree. – Ikki it bir suyakni kamdan kam holatlarda bo‘lisha oladi. One scabbed sheep will mar a whole flock. – Mazkur maqolning ayni muqobili o‘zbek tilida ham mavjud. Bir tirriq buzoq butun podani bulgaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning struktur turlaridan haqida qisqacha tahlil olib borildi va keng foydalanildi. Пермяков Г.Л. Основы структурной

паремиология, Кухарева Е. В. Типологически-универсальное и национально- специфическое в арабских пословицах и поговорках nomli o’quv qo’llanma metodologik manba bo’lib belgilandi. F.I.Buslaevning aytishicha: “Maqollar tovush va fikr uygunligida hosil bo‘ladi” hamma maqol uchun siqiq forma va ma’no uyunligi xosdir. Leksik va eyfonik vositalardan keng foydalanish, maqollarning haqchilligi ta’minlaydi va ma’nosini kengroq yoritib berishga hizmat qiladi. Sababi hayotda biror voqea hodisa ro‘y bershi muqarrar bo‘lsa biz darrov maqollarga murojaat qilamiz va shu asnoda suxbatdoshimizni hayotiy bir naqlga ishontirishimiz yohud yuz berishi muqarrar bo‘lgan xodisadan ogoh etishimiz va o‘z fkrimizni aniqroq bayon etishimiz mumkin. Tarjimada asarning badiiy-estetik qimmatini to‘g‘ri aks ettirish uchun tarjimon muallif davrini, ijtimoiy, psixologik jarayonlarni o‘rganadi. Tarjimashunoslar tarjimon asarning tili, leksikasi, grammatik, fonologik va sintaktik o‘ziga xosliklarini bilsa-yu, asar ruhiyatini idrok eta olmasa, adekvatlikni ta’minlashi qiyin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotlar natijalarida ingliz milliy fe’l atvorini o‘ziga xosligi aks etib turadi. Ushbu tasniflash hayvonlar nomlarida qo‘llaniluvchi iboralarni o‘rganishga oid va ayrim muloqotga oid iboralarga moslashtirilgan. Har bir frazeologik birlik ko‘p ma’noda qo‘llanilishi mumkin. shuning uchun ular bir vaqtni o‘zida bir qancha odamlarni fe’l atvorini yoritib berishi mumkin.

Masalan:

- One barking dog set the whole street barking – (Yomon qo‘y podani buzar) – hayotiy tajriba

- All lay loads on a willing horse – (barcha yuk halol otning yelkasiga yuklangan) – mehnatsevarlik va surbetlik

- When the fox preaches, take care of your geese – (tulkini yaxshi muomalasi g’ozlaringni ko‘zlaganidan) – beparvolik, extiyotsizlik

- The wolf may change his coat, but not his disposition – (Ilon po‘stini tashlashi mumkin. Lekin fe’lini emas) o‘ziga xoslik, konservativlik

- A good dog deserves a good bone – (Yaxshi kuchuk yaxshi suyakka loyiq) – tiriklik tajribasi

Tasniflashda asosiy ustunlik qiluvchi leksik birliklar.

Tasniflashga oid ma’lumotlarni ushbu iboralarni o‘rganishga oid birliklarda ko‘rishimiz mumkin.

1. Kengroq taqdim etilgan barqaror iboralarga oid birliklarni o‘z ichiga oluvchi kuchuklar nomlaridagi zoonimik leksik birlik – 36 iboralarni o‘rganishga oid birlik 144 dan (24.5 %)

- Dog eats dog (It itni yeydi)

- Every dog has his day (har bir itni o‘z kuni bor)

- Barking dogs seldom bike (Akillagan it ba’zida qopar)

- A living dog is better than a dead lion (o‘ligidan ko‘ra tirigi afzal)

- An old dog will learn no new tricks (qari kuchuk yangi hunarlarni o‘rgatadi)

2. Ikkinchi bo‘lib ko‘pincha ot iboralarida qo‘llaniluvchi leksema ishlatiladi. 144 (16.1%)

- Don’t swap horses when crossing a stream –

- All lay loads on a willing horse – barcha yuk halol otning yelkasida

- It is a good horse that never stumbles – yahxhi ot qoqilmaydi

- You may take a horse to the water, but cannot make him drink – Sudrab keltirilgan otga suv berishing befoyda

**3**. Mushuk nomlarida qo‘llaniluvchi leksema 3-o‘rinda ishlatiladi – 19 iboralarni o‘rganishga oid birlikdan 144 (12.9%)

- Care killed a cat (tashvish mushukni o‘ldirdi)

- A cat has nine lives (mushukni 9 ta joni bor)

- When the cat is away, the mice play – (mushuklar o‘lgan kun sichqonlarga bayram)

- A cat can look at a king – (Mushuk shoxga xam tik qaray oldi)

- Curiosity killed the cat - (sinchkovlik, qiziquvchanlik mushukni xam o‘ldiradi)

- To live cat and dog life – (it mushuk bo‘lib yashash)

Birinchi tasniflash asosida tasniflashga aloqador iboralar aniqlandi. Bu tasniflash asosida Ingliz milliy fe’l-atvorini sifati ham ko‘rib chiqildi. Bu ehtiyotkorlik va xavfsizlik, tiriklik tajribasi va mehnatsevarlik. Inglizlarni o‘ziga xos qiziquvchanlik va tavakkalchiligini omillari ko‘plab topiladi.

Biz barqaror iboralarga oid birliklar asosida ustunlik qiluvchi leksik birliklarni tasnif qilishga harakat qildik. Quyidagi tasnifda zoonim komponentli frazeologizmlardagi ishora qilinayotgan milliy fe’l-atvor hususiyatlarni eng kichik guruhlarga ajratib ko‘rsatamiz.

Ingliz etnik mentaliteti uchun ustun bo‘lgan xarakter xususiyatlari ehtiyotkorlik va ogohlik hisoblanadi. Ikkinchi o‘rinda hayotiy malaka, uchinchi navbatda – mehnatkashlik turadi. Eng kam ko‘rsatkichga ega bo‘lgani tavakkalchilikni, sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlikni ifodalovchi zoonim frazeologik birikmalari tashkil qiladi.

Olib borilgan izlanishlar ingliz xarakterining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, biz faqat hayvonlar bilan bog’liq bo‘lgan frazeologik birikmalar – zoonimlarga e’tibor bergan holda tasniflanish olib bordik. Berilgan klassifikatsiya umumiy xarakterga ega. Shuningdek, ba’zi bir frazeologik birikmalar ko‘p ma’noga egadir va o‘z navbatida ular insonning bir necha xususiyatlarini aks ettirishi mumkin.

Masalan:

*One barking dog sets the whole street barking.* Yomon qo‘y podani buzar.

**Tahlil va natijalar.** Tahlilga tortilgan maqollar ichida so‘z birikmalari ham ko‘pchilikni tashkil qildi. So‘z birikmalari. (36, 24,5 %). Aniqlovchilik so‘z birikmalar: great lion (buyuk kishi), lost sheep (o‘z yo‘lini yo‘qotgan odam), yellow dog (nomard kishi), sad dog (landovur kishi), dirty dog (yomon odam). Infinitivlik so‘z birikmalar ham tez-tez uchrab turadi: to follow like a sheep – birovni ketidan qo‘ydek ergashish; to flog a dead horse — o‘lgan otni choptirma to buy a white horse – тратить деньги впустую; to put one’s horses together — nimanidir birga qilmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq; to have a wolf in the stomach – bo‘riday och bo‘lmoq juda qattiq och bo‘lmoq; to milk the bull – buqani sogmoq, ya’ni foydasiz ish bilan mashg’ul bo‘lmoq degan ma’noni bildiradi. Qiyosiy oborotlar (2,7%): As ass in a lion’s skin.— Arslonning terisidagi eshshak As a hog on ice. – Muzdagi to‘ng’izga o‘xshab. As melancholy as a cat. – Mushukka o‘xshab (melanxolik) hafaqon. Likea cat on hot bricks. – Qaynoq g’isht ustidagi mushukka o‘xshab.

Hayvonlarning nomlanishi (zoonimlar) dunyodagi barcha tillarning so‘z boyliging tarixiy va etnik qatlamiga mansub.

Kishilar xis tuyg‘ularini, axloq-odobini, tashqi ko‘rinishini, xolatini jonzotlarga o‘xshatish va taqqoslash yo‘llari bilan tasvirlab berishadi.

Etnik mentalitetning asosiy sifati fe’l – atvorning ehtiyotkorligi hisoblanadi. Ikkinchi o‘rinda – hayotiy tajriba, uchinchi o‘rinda mehnatsevarlik turadi. Eng asosini tashkil etadigan omillar bular – sinchkovlik, tavakkal qilish qobiliyatidir.

**Xulosa va takliflar.** Hulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda uch asosiy zoonim ko‘proq ishlatiladi. It, ot va mushuk zoonimlarining frazeologik birliklarda asosan ijobiy ma’noda qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. Ingliz tilida zoonim frazeologizmlar bevosita

inson faoliyatida, uning emotsional-ruhiy olamini ifodalash uchun, shungdek o‘ziga xos emotsional semani ham mujassamlashtirib kelishi mumkin**.**

**ADABIYOTLAR**


1. Шепилова Т. Французские фразеологические единицы с компонентом-зоонимом. – М.: 2001.
2. Sanz Martín B. E. Polisemía de los zoonimos perro y gato. – Madrid, Espasa. 2006, – P. 63.
3. Salimova B. Ingliz tilida hayvon nomlarining qo‘llanishi bilan kelgan frazeologik birliklarning qo‘llanishiga doir/ Замонавий филология ва лингводидактика масалалари. Илмий мақолалар тўплами 2-қисм. –Самарқанд: 2015,- Б.214-215.
4. Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – Б.25.
5. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 297 с.
6. Uralova, O. P. Q. (2021). Lexico-semantic features of the proverbs by the names of beverages and vegetables in English, Russian and Uzbek languages. Theoretical & applied science учредители: теоретическая и прикладная наука, 12, 1165-1169
7. Uralova Oysuluv Poyan qizi. “Adequate characteristics of English and Uzbek proverbs with zoocomponent" International conference of natural and social humanitarian sciences" 21.01.2024/ universalconference.us.
8. Пермяков Г.Л. “Основы структурной паремиология”
9. Кухарева Е. В. “Типологически-универсальное и национально- специфическое в арабских пословицах и поговорках”.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:81.2**

***Shahlo HALIMOVA,***
*Alfraganus University nodavlat oliy ta’lim tashkiloti o‘qituvchisi*
*E-mail:shahlokhalimova41@gmail.com*

*ToshDO‘TAU f.f.d.,dotsenti.M.X.Abdulxayrov taqrizi asosida*

**THE ROOT OF THE NUMBER SEVEN IN THE EPIC “MANTIQ UT-TAIR” AND “LISON UT-TAIR”**

Annotation
This article examines the content, essence and mysticism of the seven numbers presented in the epic of Sheikh Fariduddin Attar “Mantiq ut-Tair” and “Lison ut-Tair” by Hazrat Navoi. Numbers are symbolic in Uzbek classical poetry. As meaning is gained, a separate analysis of these symbolic figures in the artistic epic serves as an important key in reflecting the mystical and mystical content.
**Key words:** magic numbers, isolation, tawhid, hudhud, seven, valley, mysticism.

**КОРЕНЬ ЦИФРЫ СЕМЬ В ЭПОСЕ «МАНТИК УТ-ТАИР» И «ЛИСОН УТ-ТАИР»**

Аннотация
В данной статье рассматриваются содержание, сущность и мистика семи чисел, представленных в эпосе шейха Фаридуддина Аттара «Мантик ут-Тайр» и «Лисон ут-Тайр» Хазрата Навои.Числа символичны в узбекской классической поэзии. По мере обретения смысла отдельный анализ этих символических фигур в художественном эпосе служит важным ключом в отражении мистического и мистического содержания.
**Ключевые слова:** магические числа, изоляция, таухид, худхуд, семерка, долина, мистика.

**“MANTIQ UT-TAYR” VA “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA YETTI RAQAMI ILDIZI**

Annotatsiya
Ushbu maqolada Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarida keltirilgan yetti sonining mazmun, mohiyatini hamda tasavvuf bilan bog‘liq o‘rinlarini muhokama qilamiz.O‘zbek mumtoz she’riyatida raqamlar ramziy ma’no kasb etganidek, badiiy dostonlarda ham bu ishoraviy raqamlar alohida tahlil etilishi irfoniy hamda tasavvufiy mazmunlarni aks ettirishda muhim kalit vazifasini o‘taydi.
**Kalit so‘zlar**: sehrli raqamlar, istig‘no, tavhid, hudhud, yetti, vodiy,tasavvuf.

**Kirish.** Sharq mumtoz adabiyoti mazmun va shakl, poetik tasvir yo’li, vosita, obrazlar olami e’tibori bilan o‘zgachadir. Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan turkiy adabiyotimiz namunalarini tahlil va tadqiq qilish, ularning ramziy va majoziy haqiqatlariga duch keladi. Folklor asarlar, mumtoz adabiyot va keyingi davrda vujudga kelgan asarlarda raqamlar alohida o‘rin egallaydi. Sharq adabiyotida uchraydigan raqamlar aniq son qiymatini emas, aksariyat hollarda ramziy-ilohiy, falsafiy-dunyoviy mazmunni kasb etgan. Raqamlarni mohirona qo‘llash ijodkordan din, mifologiya, falsafa, tarix, tasavvuf kabilarga doir bilimlarni talab qiladi.Adabiyotda raqamlar turli qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liq ravishda ramziy ma’no ifodalaydi. Filologiya fanlari doktori M.Jo‘rayevning fikricha, folklorda, marosim va udumlarda qo’llanuvchi raqamlar ikkiga ajratilgan:

1.“Sehrli” raqamlar
2.An’anaviy raqamlar

Turli mamlakatlarda raqamlar turlicha ma’no kasb etgan. Raqamlarning ilohiylashtirilishi olamning paydo bo‘lishi, osmon jismlari, koinot, yer va uning tuzilishi, tog‘lar, okeanlarning yaratilishi haqidagi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sharq ijodkorlari poetik ma’no va mantiq talablariga asoslanib raqamlarga murojaat qilganda, bevosita u yoki bu raqam chegarasida an’anaviylashgan haqiqatni ham inobatga olganlar. Mazkur g‘oya “Qushnoma” turkumidagi “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” dostonlarida uchraydigan yetti raqamida ham ikkilamchi ma’no kasb etgan. Ma’lumki tasavvufda maqomotlar va ilmi qol, ilmi hol bosqichlari mavjud. Ilmi holning ham tasnifi ta’rifi keltirilgan bosqichlari yettita:

1.Qurb
2.Muhabbat
3.Shavq
4.Uns
5.Mujohida
6.Mushohida
7.Mukoshifa

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi voqealar davomida Hudhud asl manziliga yetish uchun yetti vodiyni bosib o‘tish kerakligini aytadi. Dostonda qushlar bosib o‘tishi mumkin bo‘lgan ushbu vodiylar:

1.Talab
2.Ishq
3.Ma’rifat
4.Istig’no
5.Tavhid
6.Hayrat

7. Faqr-u fano vodiylari tasavvuf yo‘liga kirgan solik riyozat chekib bosib o‘tishi kerak bo‘lgan tariqat maqomining yetti bosqichidir.Tasavvufda ruhiy kamolot darajalari maqom, manzil, hol, martaba nomlari bilan tasnif etish mavjud. Ansoriy “Manzil as-soyirin” kitobida Haqqa yetishish manzilini 1000 manzil deb belgilagan bo‘lsa, Hakim Termiziy Maqosid as-solikin illalloh” kitobida tariqat va suluk bosqichlari “yeti ‘aqaba” (tog‘ yo‘li) iborasi bilan ifodalab, har bir ‘aqaba –tavba zuhd…ga alohida ta’rif beradi.Termiziydagi yeti ‘aqaba bilan Attordagi yetti vodiyning tartibi va tasnifi bir-biridan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Farididdin Attor

yetti vodiy nazariyasining ijodkori deyish mumkin. Ibn Sinoning “Tayr qissasi”da qushlar ovchidan qochib, sakkiz tog‘ni oshib o‘tadilar. G‘azzoliy qissasida esa qushlar uchib o‘tgan tog‘lar vodiy nomi bilan o’zgartirilgan. Lekin ularda sanoq mavjud emas. Attorda esa tartib aniq va har bir vodiyning o’z nomi bor. Navoiy “Lison ut-tayr”da vodiy nomlari va ularning tasnifini o‘zgartirmaydi. Lekin ularni muallif emas qushlarning savollariga javob tariqasida Hudhud ta’riflaydi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.**“Mantiq ut-tayr” dostonida yetti qatnashgan jumla va voqealarga duch kelish mumkin. Alloh taoloning madhi bobida olti kunda yetti yulduz-sayyorani vujudga keltirgani tasvirlangan. Hazrati Rasul Sallallohu alayhi vassallam na’tida: “ U talab bilan o‘z-o‘zining atrofida yetti marta aylandi va shu tufayli yetti osmon pargori(sirkuli) paydo bo’ldi[2].”

Taassub tanqidi qismida Umar roziyallohu anhu haqida ta’rif berilganda, adolatli va kamtar xalifaning ovqati yetti luqma miqdorida bo‘lib, sirka va tuzdan iboratligi aytilgan.

To‘rtinchi maqolada Hudhudning bulbulga aytgan hikoyasida bir go‘zal malika va gado voqeasi aks etgan. Malikaga oshiq bo’lgan gado yetti yil uning eshigida itlar bilan barobar yashab unga mubtalo bo‘lganligi tasvirlangan.

Dostonda keltirilgan “Robiya Adaviya va uning haji” hikoyasida ham yetti sonini uchratamiz. Unda Robiya Adaviya yetti yil mobaynida muqaddas Ka’ba yo’lida sudralib yonboshlab yo‘l bosganini ta’kidlaydi.

Sulton Mahmud va Gulxaniy Rindga mehmon bo‘lishi hikoyasi haqida gapirar ekanmiz, podshoh Gulxaniyning cho‘g‘ xonasiga yetti marta mehmon bo’lib u yerda qotgan non bilan mehmon qilinganiga guvoh bo’lamiz. Ammo Gulxaniy shohlik boylik talab qilish o‘rniga ulardan voz kechib podshohning mehmonligi U uchun kata baxtligini aytadi. Alloh ishqi U uchun yetarliligini uqtiradi. Istig‘no vodiysi ta’rifida yetti yulduz, yetti do’zax, yetti daryo kabilarga duch kelish mumkin. Abul Hasan Nuriy haqidagi hikoyada ham katta nahang va yetti daryo haqidagi ta’riflar mavjud.

**Tahlil va natijalar.**“Lison ut-tayr” dostonida Ibrohim Adham, balxlik shayx, haq yo‘lida din murshidi bo’lib,sadoqatli oshiq pokiza insonligi ta’riflangan. Mashhur shayx haq yo‘lida safar qilib, Nishopurda yetti yil bir tog’ni o’ziga makon qilgan. U yerda tunlari ibodatda, kunduzi esa ro‘zada kun kechirgan[3].

“Mantiq ut-tayr” da va “Lison ut-tayr” dostonida yetti soni bilan bog’liq bo’lgan “yetti ko‘k”, “yetti osmon”, “yetti falak” “yetti qavat” “yetti do‘zax” jumlalari ko‘p bora takrorlanganiga guvoh bo’lamiz. Buning asosi esa muqaddas Qur’oni karimga borib taqaladi.

“Qur’onning onasi” bo‘lmish, sura’larning avvaliga o‘rin berilgan “Fotiha” ya’ni “ochuvchi” surasiga to‘xtalishimiz joiz. Chunki, mazkur sura’ yetti oyatdan iborat va bejizga muqaddas kitobimiz “Fotiha” bilan boshlanmagan. Mazkur sura’ga “Sab’ul-masoniy” ya’ni ikki bor nozil qilingan yetti oyat deb ham nom berilgan. Shu yetti oyatni sharhlash uchun mufassirlar bir necha jildlik asarlar yaratishgan.

Qur’oni karimning “Baqara” sura’si 29-oyatida: “U shunday zotki, sizlar uchun Yerdagi barcha narsalarni yaratdi. So’ngra samo sari “turdi-da”, uni yetti osmondan iborat qilib qo‘ydi…” ,-deyilgan. “Fussilat” sura’si 12-oyatida: “Bas, ikki kunda yetti osmonni barpo qildi va har bir osmonga (unga buyurilgan) ishni vazifani vahiy qildi…”,-deya yana bir bor ta’kidlangan. “Nuh”, “Naba’”(“Tepalaringizda yetti qavat mustahkam osmonni barpo qildik”)[4],”Mulk”, “Al-Isro” suralarida osmon-u falakning yetti qavatligi aytilganiga guvoh bo’lish mumkin.“Taloq” surasining 12-oyatida nafaqat osmonning yetti qavatligi, balki yerning miqdori ham yettitaligi aytilgan: “Alloh yetti osmonni va Yerdan ham o‘shancha miqdorni (yetti qavatni)yaratgan zotdir”.

“Yusuf” sura’sining 43-,46-, 47-,48- oyatlarida podshoh tushi va uning ta’biri keltirilgan yetti soni uchraydi. Shu o‘rinda Yusuf alayhissalomning zindonda yetti yil bandi bo‘lganing aytish ham joizdir. “…Men tushimda yettita ozg‘in sigirni yettita semiz sigirni yeyayotganini va yettita yashil boshoq bilan birga qurigan boshoqlarni ko’rdim….”[5] “…Odatlaring bo’yicha yetti yil ziroat qilavering…”,-kabi yil va sanoqlar tush bilan bog’liq holda keltirilgan.

“Qushnoma”larda uchraydigan “Yetti do‘zax” esa asosi Hijr surasining 44-oyatida aks etgan. “…Uning yetti darvozasi bo‘lib, har bir darvoza uchun ularning bir to‘dasi taqsimlangan”[6] ,-deb jahannam, do‘zaxning yetti qavati nazarda tutilgan.

“Mu’minun“ sura’si 17-oyatida yetti farishtalar yo’li tasvirlanadi: “Darvoqe, Biz ustingizda yetti yo‘lni (yetti qavat osmonni) yaratdik. Biz yaratuvchilikdan g‘ofil bo‘lmadik”.

**Xulosa va takliflar.** Muxtasar qilib aytganda, mazkur dostonlarning zamirida Qur’oni karim, tasavvufda bo‘lgan raqamga ishoralar, asoslar bor. Dostondagi Hudhud pir timsoli, qushlar esa solik muridlar timsolidir. Yetti vodiy esa solik ruhning yetti xil tovlanuvchi manzarasi, Ilohga vosil bo‘lish bosqichlari, ma’rifat zinalarini bildirib keladi. Yetti raqami tasavvufda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, qushnoma dostonlarda ham mazkur vazifani bajargan va ilohiylikni ifodalashga xizmat qilgan.

**ADABIYOTLAR**


1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik[матн] Q.1:darslik/Sh.Sirojiddinov [va boshq.].-Тошкент: «TAMADDUN», 2018, 184b
2. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr (nasriy bayoni).-www.ziyouz.com kutubxonasi.15-b.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr(nasriy bayoni ).-T.:G’G’ulom nomidagi NMIU,2005, 64-b
4. Qur’oni karim ma’nolar tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur., Toshkent.: 2021-y.428-b.
5. Qur’oni karim ma’nolar tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur., Toshkent.: 2021-y. 149b
6. Qur’oni karim ma’nolar tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur., Toshkent.: 2021-y. 165-b

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:413.141:414:415(045)

***Shaxnoza SHARIPOVA,***
*Qarshi davlat universiteti*
*Fakultetlararo ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi*

*Qarshi D.U .f.f.d. G. Tojiyeva taqrizi asosida*

## GRADUALLIK HODISASINING INGLIZ TILSHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Annotatsiya
Ushbu maqolada ingliz tilshunoslari tomonidan graduallik hodisasini o'rganish eng muhim vazifa sifatida qabul qilingan, shuningdek, ushbu maqola ingliz tilshunosligida graduonimiyani o'rganishga, graduonimiyaning tilning turli darajalarida namoyon bo'lishini o'rganishga,shuningdek, tilshunoslikdagi daraja so‘zining ma'nosini oydinlashtirish orqali tilshunoslikdagi graduallik hodisasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Me'yor yoki muayyan holatga nisbatan daraja belgisining ortishi yoki kamayishi, sifatning miqdoriy o‘zgarish ekanligi, uning inson ongida yuzaga kelishi va tilda ifodalanishi kabi ma'lumotlar ushbu maqolada o‘z aksini topgan.
**Kalit so‘zlar**: Graduallik, sinonimiya, antonimiya, graduonimik qator, dinamik urg‘u, fonetik, morfologik, leksik usul.

## THE STUDY OF THE GRADUAL PHENOMENON BY ENGLISH LINGUISTS

Annotation
In this article the study of the phenomenon of graduality by English linguists is taken as the most important as well as this article is devoted to the study of graduonymy in English linguistics, as well as the study of the manifestation of graduonymy at different levels of language, as well as the analysis of the phenomenon of graduality in linguistics by clarifying the meaning of the word degree in linguistics. Information such as the increase or decrease of a degree sign relative to a norm or a particular situation, the fact that quality is a quantitative change, and that it occurs in the human mind and is expressed in language are reflected in this article.
**Key words:** Graduality, synonymy, antonymy, graduonymic series, dynamic stress, phonetic, morphological, lexical method.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ФЕНОМЕНА ПОСТЕПЕННОСТИ АНГЛИЙСКИМИ ЛИНГВИСТАМИ

Аннотация
В данной статье изучение феномена градуальности английскими лингвистами рассматривается как наиболее важное так же как данная статья посвящена изучению градуонимии в языкознании, а также изучению проявления градуонимии на разных уровнях языка, а также анализу явления градуонимии в языкознании путем уточнения значения слова степень в языкознании. В статье отражены такие сведения, как повышение или понижение знака степени относительно нормы или конкретной ситуации, то, что качество есть количественное изменение, что оно происходит в сознании человека и выражается в языке.
**Ключевые слова:** градуальность, синонимия, антонимия, градуонимический ряд, динамическое ударение, фонетический, морфологический, лексический прием.

**Kirish** Graduallik hodisasini aniqlashda belgi, (hodisa) miqdorning ma'lum bir yo'nalishida ozayishi yoki ko'payishi bosh mezon hisoblanadi.

“Darajalanish leksema va frazemalarning semantik qurilishiga xos bo'lib, bunda mustaqil sememalar tarkibida bir belgining ozlik yoki ko'plik holatlarini aks ettiruvchi umumiy semalar mavjud bo'ladi” [14]. Shu fikrlar asnosida har bir tilda graduallik hodisasi mavjud degan xulosa kelib chiqadi. Quyida biz Hind-evropa tillarining german oilasiga mansub ingliz tilida graduallik hodisasini ko'rib chiqamiz. Tilshunoslik sohasida graduallik hodisasi umum miqyosda 60-70-yillargacha semantik munosabatlar tarkibida o'rganilgan bo'lib, semantik munosabatlar orasidan graduallik hodisasining alohida ajratib olib o'rganilganligini kuzatmaymiz. Bu bilan graduallik hodisasi ingliz tilida o'rganilmagan degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Faqatgina, bu hodisa ozlik va ko'plik holatlarini aks ettiruvchi sinonimlar sifatida, ba'zi hollarda tur sifatida tadqiq etilib, lug'atlarga kiritilgan. Ingliz olimlarining bu sohada qilgan ishlarini ko'rib chiqish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, graduallik hodisasiga yaqin bo'lgan bir qancha hodisa va tushunchalar mavjud bo'lib, har bir olim bu hodisaga turli nuqtai nazardan yondashgan. Ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: D.Bolinjer, D.A.Kruz, E.Sepir, Sh.Balli, A.V.Kunin va boshqalar. Quyida shularning ba'zi birlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Ingliz tilshunosligida graduallik muammosi masalalari ilk bora 1972-yilda yozilgan “Degree words” nomli D.Bolinjer ishlarida kuzatilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** D.Bolinjerning fikriga ko'ra, graduallik yoki intensifikatsiya hodisalarini sifatlar, ravishlar, otlar va fe'llar bilan bog'lab o'rganish kerak. Shunda ham sifatlar daraja ma'nosini butunlay ifodalay olmaydi[7].

D.Bolinjerning fikriga ko'ra, nutq parlamentar yoki parlamentar emas bo'ladi, lekin hech qachon ko'proq parlamentar yoki kamroq parlamentar bo'lmaydi.

*The same is true when concerts are* ***symphonic****, styles are* ***Parisian,*** *and charts are* ***astronomical****.*

Eng oxirgi sifat *astronomical* - 'huge' – 'ulkan' ma'nosini ifodalaydi va ma'noni kuchaytiryapti.

*The most* ***astronomical*** *budget in history* – tarixdagi eng katta, ulkan byudjet. Bu misolda ham shunday hol kuzatilmoqda.

Uning fikriga ko'ra, agar sifatlar izchil ravishda ma'no kuchaytiruvchi bo'lmasa, ehtimol, boshqa leksik yoki ”miqdor” kategoriyalari ma'no kuchaytirmaydiganlar bo'lmaydi. Olim o'z kitobida ko'pchilik fe'l va otlarning muntazam ma'no kuchaytirishini ko'rsatadi, shuningdek,

leksik birliklar, yoki bo'lingan komponentlar, 4 ta katta kategoriyalar(sifat, ravish, ot va fe'l) izidan boradi degan g'oyani ilgari suradi. Sifat va ravishlar bilan bog'lanishlar allaqachon ko'p tadqiq etilganligi bois, asosan, otlar va fe'llarni o'z ichiga qamrab oladigan ma'lumotlar beriladi.

Ravishlarning ma'no kuchaytirishi va sifatlarning ma'no kuchaytirishi o'rtasidagi yaqinlik *such as* harakat nominallari bilan o'xshashlik, intensifikator sifatida foydalanilib, nominal uchun emas balki oz miqdorda o'zgarishni o'z ichiga oladi.

*Walking so slow = such slow walking ;*

*Talking so pleasantly = such pleasant talking;*

*Speaking out so angrily = such angry speaking out;*

*Eating candy so eagerly = such eager candy – eating(of candy).*

*So* bilan sifatlar va fe'llar, *such* bilan esa otlar qo'llanilishi bir xil leksik figuralar tipidagi 3 ta kategoriyalarni hosil qiladi:

*I wish he wouldn't bungle so;*

*I wish he weren't so bungling;*

*I wish he weren't such a bungler.*

*You make it sound so much fun!*

*You make it sound so much amusement.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** D.Bolinjer *degree words* ning o'rganilishi shaxsiy ichki qiziqishga qaraganda muhimroq deya aytib o'tgan. Lekin boshqa tomondan qaralganda, u struktura bilan kurashda bo'ladi, shuni aytish kerakki, ular o'zi bilan o'zi kurashda. struktura konfliktning yechimi emas, *degree words* o'rganish zavqli kashfiyot va musobaqaki, unda hamma yerda ham kelavermaydi, ularning tabiati o'zgaruvchandir. Ularning asosiy ma'nosi so'zlovchining urg'u berishi, urg'u berishning tezligi bilan qiziqmaydi va o'rin almashtirish zarur[48-27].

Bu *taboo* (taqiq) so'zlarining yumshatilishiga o'xshash- " drunk" (ichgan odam) uchun "privy" ularning o'rni doimiy ravishda almashtirilib turiladi; lekin taboo lar taqqoslaganda oddiy, siz bir so'zni o'sha vaqtning o'zida o'rnini o'zgartirasiz , eng yomoni bir qancha mukammal sinonimlardan ko'prog'i hech qachon bo'lmaydi.

Intensifikatsiya *more* va *most* larni o'z ichiga olgan ko'p morfemalarni va qiyoslanayotgan suffikslar haqiqatda funksional elementlarni qamrab oladi.

Misol sifatida *spifled, sizzled, tipsy, outhouse, backhouse, bathroom, powder room* ga o'xshash sifatlar va otlar olinadi, ular grammatikaning yuragiga yaqin deya hisoblanadi.

Agar funksional so'zlar bor bo'lsa, *very* ulardan biridir. 15- asrdan buyon uning zamonaviy ma'nolari ochilmagan edi, *very* ham *full* va *right* ga o'xshab tugatilmagan va yaqinda *pretty, awful (ly), terribly, terrifically* va boshqa shunga o'xshash so'zlarning hodisasi haqida eslatib o'tilmagan. D.Bolinjer o'zining "Degree words" nomli kitobida, *degree words* degan terminni ishlatib, uni graduallik hodisasiga aynan sifatida keltirib o'tgan. Olimning fikricha degree words, ya'ni, daraja so'zlari sistema sifatidagi tilning o'ziga xos tasviriga qarshi choradir. U sistema, lekin, yashash uchun kurash, har bir lahzada o'zini biroz o'zgartirishga ega bo'lgan kuchdir[14].

**Tahlil va natijalar.** Intensivlikni o'rganishga doir bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, D.Bolinjer Kirchnerning ishini a'lo darajada deb hisoblaydi. Kirchner sifatlarning ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladigan son-sanoqsiz *simile* larni keltiradi. Ular quyidagilar:

*Hungry as a bear, mad as a hatter, clean as a whistle, strong as an ox, tough as steel, hard as nails, weak as water, old as the hills, wide as a door, big as saucers, high as Haman, hot as hell, black as night, white as snow, green as gras, sharp as a razor, sick as a dog, blind as a bat, deaf as apost, soft as butter, nit as apin, happy as a lark, crafty as a fox, slow as molasses in January, thin as a rail, warm as toast, snug as a bug in a rug, sound as a dollar*.

D.Bolinjer "*well*" so'zining ulkan tafsiloti, uning ma'no kuchaytiradigan va ma'no kuchaytirmaydigan foydalanishlari, darajaning me'yor, natijaviy holat, fikrning cheklanganlik qonuni, o'lchovning va boshqalarning qayergadir borishiga to'g'ri keladigan tushuntirishning talab qilinadigan ko'p qismlarini bashorat qilolmasligini ta'kidlaydi[48-28].

Sifatlarda ma'no kuchaytirish leksik ma'no kuchaytiruvchilarning ma'qul ko'rilishida namoyon bo'ladi.

………*Very hot*

*Highly intelligent*

*So beautiful*

*Overly cautious*

*Pretty tall*

*Deathly ill*

Na'muna sifatida keltirilgan sifatlar an'anaviy terminlardan biri: *hotter, more intelligent, taller* va boshqalar qiyosiy olingan.

Ular parlamentar, simfonik(ulkan) va shunga o'xshash tushunchalari bilan bir-biridan farq qiladi.

Sifatlarning 2 sinfi ***degree*** va ***nondegree*** bir-biridan farq qiladi. Masalan: *nondegree adjectives*, ya'ni, darajalanmaydigan sifatlar ***de-accented*** (urg'u olmagan) "empty-bo'sh" ot da sodir bo'ladi[48-19].

*That dispute raises a parliam**e**ntary question.*

*That dispute raises an unpl**e**asant question.*

Nondegree adjectives, ya'ni, darajalanmaydigan sifatlar "*be*" ning kesim sifatida mavjud bo'lishida qiyinchiliklarga uchraydi.

*The debate was parliamentary (more normally: it was a parliamentary debate).*

*"Describe your debate." – "It was parliamentary."*

*"Describe your debate." – "It was acrimonious."*

"*Be*" Degree adjectives bilan xuddi to'g'ri fe'l, lekin, nondegree adjectives bilan esa, ya'ni, to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Shuningdek, D. A.Kruz ham bu masalani tadqiq etishda jonbozlik ko'rsatgan olimlardan hisoblanadi. D.A.Kruzning fikricha, o'lchovni, darajani, martabani bildiruvchi so'zlar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi: cheksiz davom etuvchi va alohida darajaga egalikni ko'rsatuvchi leksemalar bo'lib, ularni hosil qilishda hech qanday ma'no kuchaytiruvchi ham, qo'shimchalar ham qo'shilmasdan, o'zaro bir-biridan darajasi bilan farqlanuvchi, bitta sohaga, tushunchaga doir so'zlar[50- 52] ekanligini ta'kidlaydi. Demak D. A.Kruz ta'kidlagan "*rank terms*" atamasi graduallik so'ziga aynan bo'la oladi. Shuningdek, olim "rank terms" "*degree terms*" dan nimasi bilan farq qiladi degan savolga martaba, yuqoriga qarab ketuvchi ma'nolarni aks ettirgan ushbu qator daraja qatoridan shunisi bilan farq qiladiki, unda ketma-ketlikni buzmasdan biridan ikkinchisiga o'tishi kerak, va qat'iy tartibda joylashadi, ammo daraja qatori bir-biridan kamdan ko'pga qarab ketish tartibida joylashtirilgan, xolos degan izoh bilan javob beradi.

Darajalanadi deyilishiga sabab, D.A. Kruzning tushuntirishicha, ularni bir-biridan farqini o'lchov birliklari orqali ajratish mumkin. Shu o'rinda haroratning pasayib yoki ko'tarilib borishini ifodalaydigan leksemalar, masofani bildiruvchi leksemalar misol tariqasida keltiriladi. Olimning fikricha, degree terms - ya'ni daraja so'zlari darajalanmaydi deyishiga sabab, ushbu keltirilgan misol orqali o'z isbotini topishini ta'kidlaydi, ya'ni *mound, hillock, hill, mountain – tepalik, adir, kichik tog', baland tog'* tarzida tarjima qilish mumkin, ingliz tilida aniqlovchisiz berilgan hamda muallifning fikricha yuqoridagi misollardagi har birining ma'lum bir o'lchovi bo'lmagani uchun ular oldidan kichik,

pastroq, baland, bahaybat tepalik degan aniqlovchilar qo’yilishi kerak deb ta’kidlaydi va bu kabi qatorlarni *degree terms* deb ataydi. Shu o’rinda olim yuqorida berilgan qatorlar katta yoki kichiklikni o’zida mujassamlashtirmagan bo’lsa-da, ma’nosidan anglashilgan juda kichik va bahaybat so’zlari har ikki qutbda joylashishi ularning o’lchov darajasining pastdan yuqoriga qarab ketishini ko’rsatishi asosiy ekanligini muhim deb hisoblaydi. Demak, ushbu qoida graduallik hodisasi bilan aynan ustma-ust tushmoqda.

Charles E. Osgood *“The Nature and Measurement of Meaning ”* maqolasini *Psychological Bulletin* da ancha oldin chop etilgan bo’lib, unda, asosan, daraja so’zlariga o’xshash so’zlar ma’noviy munosabatlari, ularning o’lchovi xususida[61- 49] so’z yuritiladi.

**Xulosa va takliflar**. Ushbu maqolada graduallik mazmunidagi birliklarning matnda miqyosida qo’llanilishi ko’rib chiqildi. Matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo’lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunlik bo’lgani bois, ushbu bo’limni yuqoridagi bo’limning mantiqiy davomidir. Tahlil natijasida, graduallik mazmunidagi birliklarning matn miqyosida ham ko’plab uchratish mumkinligiga amin bo’lindi. Matn aniq gaplardan tashkil topgan, mazmunan birlashgan tilning eng katta birligi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR**


1. Bolinger D. Degree words. –Paris:Lions, 1972.
2. Cruse D.A. Lexical semantics. Cambridge University Press, 1986. P. 196
3. Webster’s New Dictionary of synonyms. U.S.A. 1973.
4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: фил. фан. докт. ...автореферат. – Т., 1997.
5. Джумабаева Дж. Ўзбек ва инглиз тилларида градуонимия (монография). –Т: Мумтоз сўз,2014.
6. Ҳакимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари. Фил.фан.номз...дисс. автореф. - Toshkent, 1993, 7-b.
7. Easy Stories, Canada 2011; E S
8. J.K.Rowling. “Harry Potter and the philosopher’s stone” Bloomsbury: 2004. (JRHP)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**УДК:821.161.1**

***Гузал ЭГАМБЕРДИЕВА,***
*Доцент кафедры русской литературы Национальный университет Узбекистана*
*E-mail:guzal.egamberdieva.76@mail.ru*

*Доцент ТДПУ, ф.ф.н. по отзывам Ю. Матеновой*

## ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ЯЗЫКА В МИНИАТЮРАХ М.ПРИШВИНА

Аннотация

В данной статье проанализированы средства создания выразительности и образности, характерные для миниатюр М.М.Пришвина из цикла «Лесная капель»: эпитет, метафора, олицетворение, сравнение.

**Ключевые слова*:*** миниатюра, изобразительные средства языка, эпитет, метафора, олицетворение, сравнение.

## FIGURATIVE-EXPRESSIVE COMBINATION OF LANGUAGE IN MINIATURES OF M.M.PRISHVIN

Annotation

This article devoted to analyse the fitures of expressiveness and imagery of creation tools, typical for miniatures of M.M.Prishvin from “Forest drops” cycle: epithet, metaphor, personification, comparison.

**Key words:** miniature, visual arts, epithet, metaphor, personification, comparison.

## M.PRISHVINNING MINIATYURALARIDA IFODALI VOSITALAR

Annotatsiya

Ushbu makolada M.M.Prishvinning miniatyuralarini ifodaviylik va tasvir xususiyatini yaratish vositalari tahlil qilingan: epitet, metafora, qiyoslash.

**Kalit so‘zlar:** miniatyura, ifodaviylik va tasvir xususiyatlari, epitet, metafora, qiyoslash.

**Введение.** Творчество М.М.Пришвина занимает важное место в русской литературе XX века. Вобрав в себя огромный пласт мировой культуры, воспитанный русским ренессансом начала XX века, писатель продолжил эстетические искания серебряного века уже в иную социально-историческую эпоху.

М.М.Пришвин – был мастером малых жанров: очерков и миниатюр. Своеобразием произведений Пришвина является его мастерство описания «мгновений», что можно проследить в его лирико-философских миниатюрах. Художественной выразительности литературного изображения в пришвинских миниатюрах способствуют такие широко распространенные средства языка, как эпитеты, сравнения, метафоры, метонимии, гиперболы, олицетворения и т.д.

**Анализ литературы по теме.** Художественное наследие писателя всегда привлекало внимание литературоведов.

Ученые исследовали творчество Пришвина в историко-литературном и в культурологическом аспектах. В настоящее время пришвиноведение накопило достаточно богатый материал, позволяющий выявить все многообразие творчества художника. Творчество М.Пришвина изучали А.И.Хайлов (1960), Т.М.Трефилов (1956), В.Д.Пришвина (1960-70), И.П.Мотяшов (1965), Т.Ю.Хмельницкая (1965), М.Ф.Пахомова (1970), Г.А.Ершов (1973), А.Л.Киселева (1978), В.Я.Курбатов (1986), Т.Я.Гринфельд-Зингурс (1987), У.Шольц (1986), А.Н.Варламов (2003), Давшан А.Н. (2012).

В своём диссертационном исследовании У.Шольц называет Пришвина «родоначальником жанра миниатюры в русской литературе советского периода» [9]. Исследователь приходит к выводу, «пришвинская миниатюра – это самостоятельная разновидность рассказа и её можно отнести к жанрам философской прозы, которая характеризуется повышенным интересом к субстанциональным основам бытия» [9]. При этом автор отмечает, что миниатюра это не результат сокращения большого рассказа до маленького, пришвинская миниатюра рождается из его дневниковых записей. Так же исследователи В.Ю. Гришин и Я.З.Гришина отмечают: «В раннем дневнике писателя (до 1914 г.) миниатюра как каждодневный отклик на виденное еще не названа своим именем, но в дневниковых записях уже присутствует сочетание лирики и эпоса в форме медитации» [1].

По мнению М.Ф. Пахомовой, новый пришвинский жанр – поэтическая миниатюра, представляет собой «этюды, передающие местный колорит, настроения и веяния эпохи и появляющиеся в результате наблюдений и ежедневных записей» [7]. В работах И.П. Мотяшова [6], В.Я. Курбатова [5], Г.А.Ершова [2] рассматривается генетическая связь миниатюры с очерком. «Если принимать под «очерком» натурную зарисовку словом – нечто вроде этюда в живописи, – то Пришвина надо признать одним из самых последовательных очеркистов», – отмечает И.П. Мотяшов [6].

**Методология исследования.** При изучении миниатюр М.Пришвина мы использовали сравнительно-сопоставительный метод, а так же филологический анализ текста.

**Анализ и результаты.** Малый объем миниатюр требует большого мастерства автора. Достичь высоких результатов в этом, конечно же, помогают изобразительно-выразительные средства языка. При помощи изобразительно-выразительных средств Пришвин имеет возможность выделить те или иные признаки или стороны изображаемых предметов, явлений, которые представляются важными при данных, определенных обстоятельствах. Так М.Пришвин при изображении и раскрытии темы природы в «Лесной капели», использует различные изобразительно-выразительные средства языка.

В лирико-философских миниатюрах М.М.Пришвина встречаются множество разнообразных **эпитетов**. С их помощью автор определяет и дает характеристику различным деталям, описывает предмет и явления природы.

В наших исследованиях мы определили различные функции эпитетов в произведениях М.М.

1. По лексическому значению выделяют эпитеты, которые обозначают цветовой признак. Писатель очень тщательно рассматривает и отражает цвета природы, и таких эпитетов в его миниатюрах много. Например: «Зеленеет трава: такая яркая среди серых кустов! («Запоздалый ручей») [8];

2. По временному значению. М.М. Пришвину интересна природа во все времена года и в различное время суток. Это легко заметить, так как в миниатюрах писателя часто встречаются эпитеты с временным значением. Например: «В это время самая поздняя осень до того сходится близко с самой ранней весной, что по себе только и узнаешь отличие дня осеннего и весеннего… («Поздняя осень»)» [8];

3. Эпитеты, которые определяют явление со звуковой стороны. М.М.Пришвин не только видит, но и слышит природу, он слушает её звуки и шорохи. Например: «Я вернулся назад любоваться разливом и опять услышал на ходу тот же самый голубино-гулькающий звук («Первые ручьи»)» [8];

4. Часто эпитеты обозначают величину, форму предмета. Например: «Направо от нас у самого озера шумел высокий бор, налево был дикий невылазный болотный лес, переходящий в огромные болотные пространства. («Первое кукование»)» [8];

5. Возрастное значение предмета. Например: «Когда старые березы цветут и золотистые сережки скрывают от нас … («Цветут березки»)» [8].

6. Эпитеты определяющие и подчёркивающие внешние признаки предметов и явлений. Например: «…тут блестящие жучки-вертунки распускают рябь на тихой воде. («Лесной ручей»)» [8];

7. Качественное значение: свойства и состояние предметов и явлений. Например: «Но эта великая армия охраняет девственность болотного леса и не дает дачникам использовать красоту этих девственных мест («Гости»)» [8].

8. Эпитеты, содержащие оценку силы, количества, степени проявления какого-либо свойства, качества. Например: «После дождя горячее солнце создало в лесу парник с одуряющим ароматом роста и тления… («Осиновый пух»)» [8];

9. Эпитеты, передающие авторскую оценку предметов и явлений окружающей природы. «М.М. Пришвин, внимательно наблюдая за природой, любуясь и восхищаясь ею, при помощи оценочных эпитетов выражает своё отношение к ней. Такие эпитеты, оценивающие предмет, явление, действие с точки зрения эмоциональной, психологической, эстетической, в пришвинской прозе встречаются очень часто» [4]. Например: Восход роскошный в тишине. («Рождение месяца»)» [8].

Иногда в одном предложении М.М. Пришвин использует разные по функции эпитеты, что делает его произведения необычайно красочными, экспансивными, выразительными.

М.Пришвин в своих произведениях так же использует метафоры, как средства изобразительности, подвергая метафорическому сравнению названия живых существ и природные явления.

«С помощью метафор М.М.Пришвин создаёт необыкновенные словесные образы-портреты, образы-картины, изображает тончайшие оттенки чувств, состояния природы. При описывании природы, писатель наделяет её антропоморфическими чувствами. Многие пришвинские глаголы метафоричны («разговаривают», «плачут», «умерло»): они обозначают действия, присущие не человеку, а дереву, дороге, реке и т.д.» [11]. Например: «Все березы на дожде как бы радостно плачут, сверкая летят вниз капли, гаснут на снегу, отчего мало-помалу снег становится зернистым («Весна воды»)» [8] .

Олицетворяя природу, автор делает её яснее, понятнее, ближе и красочнее. Природа в миниатюрах, как и человек, может быть радостной и грустной, радостной и печальной, ясной и суровой. Например: «…так странно и сердито разрушались туманы («Тень человека»)» [8].

У М.Пришвина метафоризация может состоять из сходства самых различных признаков предметов. Рассмотрим подобные метафоры М.М. Пришвина.

1) Сходство предметов по цвету: «Время, когда березки последнее свое золото ссыпают на ели и на уснувшие муравейники («Борьба за жизнь»)»[8];

2) Сходство формы и внешнего вида предметов: «В той группе елей, куда я смотрю, есть такие, что вот как будто кто их гребешком расчесал сверху донизу, а есть кудрявые, есть молодые со смолкой, а то старые с серо-зелеными бородками (лишайники) («Белки»)» [8];

3) Сходство по количеству предметов. Нередко у М.М. Пришвина встречаются метафоры, построенные на основании сходства количества предметов: «Но эта великая армия (комары) охраняет девственность болотного леса и не дает дачникам использовать красоту этих девственных мест («Гости»)» [8];

4) Сходство действия, состояния предметов. Общие черты в характеристике действия, состояния создают большие возможности для метафоризации глаголов: «Оранжевая заря была строгая и стекленеющая, лужи на болотах горели от нее, как окна («Первая песня воды»)» [8];

5) Сходство впечатления, ассоциаций. Предметы, явления, действия могут сближаться не только на основании внешнего подобия, но и по общности производимого ими впечатления. Например: «Январь, февраль, начало марта — это все весна света («Весна света»)» [8];

«Особый интерес представляют развёрнутые метафоры. Они возникают в том случае, когда одна метафора влечёт за собой новые, связанные с ней по смыслу» [9]. Например: «Зимой берёзы таятся в хвойном лесу, а весной, когда листья развёртываются, кажется, будто берёзы из тёмного леса выходят на опушку («Берёзы»)» [8].

Важную роль играют олицетворения в произведениях М.М.Пришвина.

Олицетворения миниатюрах М.Пришвина можно разделить на следующие группы. Наделение явлений природы:

– человеческими действиями: «…мне казалось, будто черемуха тут же на глазах одевалась в свои прозрачные, сделанные как будто из зеленого шума, одежды («Черемуха»)» [8];

– человеческими чувствами, состояниями: «Ель царствует со своей верхней мутовкой, а береза плачет («Деревья в лесу»)» [8];

– речью: «Этот свежий ветер умеет нежно разговаривать с охотником («Ветреный день»)» [8].

В лирических миниатюрах М.Пришвина часто встречаются сравнения.

М.М. Пришвин сравнивает различные понятия: предметы и вещи, качества и свойства, действия, процессы и состояния. Сравнение действий, процессов,

состояний обычно происходит союзным способом (с помощью сравнительных союзов как, чем, что и т.д.). Например: «Да, никогда новая весна не бывает, как старая («Весна света»); Этот день весь, с утра до ночи, как бы цвел и блестел, как кристалл («Начало весны света»)» [8].

Нередко в своих миниатюрах автор употребляет сравнения, с использованием слов «подобный», «похожий», «словно» и т.п. Например: Если по человеку судить, то этот весенний апрельский день похож на тот человеческий день, когда она говорит своё «да» («Апрельский день»)

Даже в названия лирико-философских миниатюр М.Пришвин включает эпитеты («Звонкое утро», «Весенний переворот»), метафоры («Рубиновый глаз», «Кристальный день»), олицетворение («Осинкам холодно», «Рождение месяца», «Добрая природа») и т.д.

Заключение и предложения. Особого внимания заслуживает жанр прозаической миниатюры в творчестве М.Пришвина. Взгляды пришвиноведов и записи автора в своем дневнике свидетельствуют о том, что лирико-философская миниатюра как жанр больше соответствует специфике мышления писателя. При написании лирико-философских миниатюр, Пришвин писал в дневнике: «Не больше ли всякой повести эти записи о жизни, как я их веду?» [8]. И отвечал: «Никто не может создать такой поэмы, которая могла бы убедить в ценности жизни человеческой, как эти записи» [8].

И правда, лирико-философскую миниатюру можно рассматривать как основной жанр прозы Пришвина, который больше соответствует «поэтике мгновений». Миниатюра, вышедшая из дневниковой записи, превратилась в подтверждение, что жизнь проходит, в том числе и жизнь самого писателя.

«В своих миниатюрах Пришвин «останавливал мгновение» и превращал его в «маленькую поэму». Он превосходно знал природу, чувствовал и понимал малейшие изменения и движения в ней, глубоко проникал в сложные взаимосвязи, в которых находится природа в процессе своего развития.

В пришвинских произведениях нарисованы поразительно верные картины природы. Один за другим в них развёртываются великолепные пейзажи, воссоздающие флору и фауну его родины. В этом писателю помогают специальные выразительные средства языка.» [8].

Автор часто использует эпитеты, метафоры, олицетворения, сравнения, которые делают его произведения необычайно красивыми, эмоциональными и выразительными:

- различные по функциям эпитеты помогают М.М.Пришвину передать состояние природы, её звуки, своё впечатление от увиденного;
- метафоры М.Пришвина будят, развивают творческое воображение читателя в ходе восприятия произведения;
- картины природы у писателя уподобляются человеку не только внешне, но и действиями, речью. Автор наделяет природу человеческими чувствами. Добиться этого помогают писателю олицетворения.
- различные сравнения, используемые автором, помогают наглядно, изобразительно и художественно точно и ярко отметить существенные стороны в изображаемом предмете, явлении.

Использование вышеуказанных средств языка помогают М. Пришвину привлечь внимание читателей и отразить свое восприятие окружающего мира.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Гришин В.Ю., Гришина Я.З. Дневник как форма самопознания художника // Человек. – 1995. - №5. - С. 162-167.
2. Ершов Г.А. М. Пришвин. Жизнь и творчество. – М., 1973. – 189 с.
3. Egamberdieva G. M. O horezmskih skazkah, zapisannyh AN Samojlovichem //POLISH JOURNAL OF SCIENCE. – 2021. – №. 36-2. – С. 36.
4. Egamberdieva G. M. Funkcii epitetov v «Lesnoj kapeli» MM Prishvina. XIV VINOGRADOVSKIE CHTENIYA (Tashkent, 16 maya 2018 goda). Sbornik nauchnyh trudov Mezhdunarodnoj nauchno-prakticheskoj konferencii.– Ekaterinburg: Ural’skij gosudarstvennyj ekonomicheskij universitet. 2018.–S. 101-104 //XVI Виноградовские чтения.- Екатеринбург-Ташкент. – 2020. – С. 135-138.
5. Курбатов В.Я. Михаил Пришвин: Очерк творчества. – М., 1986.- 222 с.
6. Мотяшов И.П. М. Пришвин. Критико-биографический очерк. – М., 1965. – С. 37
7. Пахомова М. Ф. Михаил Михайлович Пришвин. – Л.: Просвещение, 1970. – С.32.
8. Пришвин М. М. Собрание сочинений: В 8 т. – М.: Художественная литература, 1986. – Т. 8. – С. 130-131.
9. Шольц У. Жанр миниатюры в творчестве М. Пришвина (1930-40-е гг.): Авторефер. дис. на соискание ученой степени канд. филолог. наук: 10.01.02/ Ленинградский гос. пед. ун-т. - Л.: 1986.- 14 с.
10. Эгамбердиева Г. М. К вопросу изучения в узбекской фольклористике межжанровых взаимоотношений в устном народном творчестве //Молодой ученый. – 2017. – №. 3. – С. 693-696.
11. Egamberdieva G. M. Funkcii epitetov v «Lesnoj kapeli» MM Prishvina. XIV VINOGRADOVSKIE CHTENIYA (Tashkent, 16 maya 2018 goda). Sbornik nauchnyh trudov Mezhdunarodnoj nauchno-prakticheskoj konferencii.– Ekaterinburg: Ural’skij gosudarstvennyj ekonomicheskij universitet. 2018.–S. 101-104 //XVI Виноградовские чтения.- Екатеринбург-Ташкент. – 2020. – С. 135-138.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/2/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:4=943.75(021)

***Gulnoza ERNAZAROVA**,*
*Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b*
*E-mail:gulnoza @ mail.ru*

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti R.Sharopova taqrizi asosida*

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN OMONIM MA’DANSHUNOSLIK TERMINLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan ma’danshunoslik terminlarining omonimligi xususida so‘z yuritiladi. Buyuk mutafakkir asarlarida qo‘llangan ma’danshunoslik terminlari o‘rtasidagi omonimlik hodisasi eski o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tillar bilan aloqasi natijasida vujudga kelganli matniy qurshov asosida tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ma’danshunoslik terminlari, omonimlik, differensiya, uslubiy betaraf, ekspressivlik, linvistik yondashuv, monosemiya.

## ТЕРМИНЫ-ОМОНИМЫ МИНЕРАЛОВЕДЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

В данной статье говорится об аутентичности минералогических терминов, используемых в трудах Алишера Навои. Феномен омонимии между минералогическими терминами, используемыми в произведениях великого мыслителя, анализируется на основе внутренних возможностей староузбекского языка и текстовой среды, созданной в результате контакта с другими языками.

**Ключевые слова:** Минералогические термины, омонимия, дифференциация, методологическая нейтральность, выразительность, лингвистический подход, моносемия.

## HOMONYMIC TERMS OF CULTURAL STUDY USED IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Annotation

This article talks about the authenticity of mineralogy terms used in the works of Alisher Navoi. The phenomenon of homonymy between mineralogy terms used in the works of the great thinker is analyzed based on the internal capabilities of the old Uzbek language and the text environment created as a result of contact with other languages.

**Key words:** Mineralogical terms, homonymy, differentiation, methodological neutrality, expressiveness, linguistic approach, monosemy.

**Kirish**. Ilm-fan, texnika jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda yangi fan sohalari, yo’nalish-larning yuzaga kelishi natijasida bu sohalarning o’z terminologik tizimi shakllandi. Shu munosabat bilan yangi terminlarni lingvistik aspektda o’rganish, ularni tartibga solish muammosi hozirgi o’zbek tilshunosligi, jumladan, uning terminologiya sohasining hal etilishi lozim bo’lgan asosiy masalalaridan biriga aylandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Terminologiyadagi doimiy masalalardan biri terminlardagi ko’p ma’nolilik, sinonimlik, omonimlik va antonimlik hodisalaridir. Bu xususida tilshunos R.Sharopova o’z mulohazalarini quyida-gicha ifodalaydi: “Terminga birma’nololik, ta’riflanish, emotsionallikdan holi bo’lish kabi qat’iy talablar qo’yiladi, shu talablarga javob bergandagina termin hisoblanishi mumkinligi qayd etib kelindi. Biroq terminlar real qo’lla-nishda til tizimining a’zosi sifatida ba’zan til birliklariga xos bo’lgan xususiyatlar – sinonimiya, antonimiya, omoni-miya, polisemiya, konnotativlikni namoyon etadi” [1].

Bir qator mumtoz va zamonaviy asarlarda uchraydigan ma’danshunoslik terminlari polisemiya, sinonimiya, antoni-miya, omonimiya xususiyatlarini namoyon etganligini kuzatish mumkin. Bu holat ularning boshqa turdagi termin-lardan farqli xususiyatlarga ega ekanligini anglatadi.

Ma’danshunoslik terminlarining omonimlik xususi-yati, ayniqsa, badiiy asarlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu jihat ularni lingvopoetik aspektda tadqiq etish lozimligini ko’rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunosligimizda so’nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda turli soha terminlarining badiiy matndagi xususiyatlari matniy qurshov doirasida o’rganilganligini, ularning badiiy matnda namoyon bo’luvchi antropotsentrik, jumladan, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari monografik aspektda tadqiq qilinganli-gini alohida ta’kidlash lozim [2].

Ma’danshunoslik ilmiy terminologiyasini takomillash-tirish, tartibga solishda o’tmishda klassik manbalarda qo’llanilgan ma’danshunoslik terminlarini to’plash va lingvistik jihatdan o’rganish ham zarur. Chunki tarixiy terminologiya zamonaviy ilmiy terminologiyani me’yorlash-tirish, sayqallashtirish va boyitishda muhim manba sanaladi.

**Tahlil va natijalar**. Alisher Navoiy asarlarida ma’danshunoslikka oid omonim terminlar ham uchraydi. Shoir asarlarida qo’llangan ma’danshunoslik terminlari o’rtasidagi omonimlik hodisasi eski o’zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tillar bilan aloqasi natijasida vujudga kelgan. Tahlil jarayonida adib asarlarida os, ro’y, tosh, dur kabi ma’danshunoslik terminlarining omonimik qator hosil qilishi kuzatildi.

B.Bafoyevning “Navoiy asarlari leksikasi” kitobida omonim birliklar genealogiyasiga ko’ra sakkizta mavzuviy guruhga ajratilib tahlil qilingan:

1. Eski o’zbek tili so’zlaridan tuzilgan shakldoshlik qatori.

2. Fors-tojik tilidan o’zlashtirilgan so’zlar shakldosh bo’ladi.

3. Arab tili leksikasi omonimlik hosil qiladi.

4. Omonimik qator o’zbek va fors-tojik tillari leksikasidan iborat.

5. Omonimik qator arab va yunon tili materiallaridan iborat va boshqalar.

Mazkur tasnif asosida ma’danshunoslikka oid omonim terminlar quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Eski o’zbek tili so’zlaridan tashkil topgan omonim terminlar.

2. Fors-tojik va arab tili birliklaridan tashkil topgan omonim terminlar.

Birinchi turdagi omonimlarga tosh, os,tuz terminlarini kiritish mumkin.

“Navoiy asarlari lug’ati”da tosh so’zining qo’yidagi ma’nolari izohlangan: TOSH I Tosh, sang; TOSH II Sakkiz chaqirim naridagi masofa; TOSH III Tashqari, tashqi [3]. Masalan: Lola qadahini toshqa urdung,

Jola guharini boshqa urdung. (“Layli va Majnun”)

Ham toshida naqshi dilkash etti,

Ham ichlarini munaqqash etti. (“Layli va Majnun”)

Yuqoridagi dastlabki misrada tosh termini mineral modda, ya’ni tosh ma’nosida, keyingi misrada esa tashqari ma’nosida qo’llangan.

Os leksemasi omonim sifatida quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) juni oq va yumshoq bir hayvon; 2) juni oq va yumshoq bir hayvonning terisidan ishlangan po’stin; 3) tegirmon toshi; 4) georafik nom.

Alisher Navoiy asarlaridan olingan quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

Jahon sho’xin aruse qilg’il ixsos,

Ki kiymish tun bila kundin kishu os. (“Navodir ush-shabob”)

Majnunni yasab libos birla,

Tun- kun kibi kishi os birla. (“Layli va Majnun”)

Chu ozim bo’lub jonibi Os u Rus,

Bo’lub yuzlari vahmidin sandarus (“Saddi Iskandariy”)

Birinchi misolda os leksemasi “juni oq va yumshoq bir hayvonning terisidan ishlangan po’stin” ma’nosida qo’llangan. Yana bir misradagi os leksemasi tosh ma’nosida kelgan. Keyingi misradagi Os leksemasi georafik nom ma’nosini ifodalaydi.

Alisher Navoiy asarlarida qo’llangan tuz termini quyidagi omonimlikni hosil qilgan: TUZ I osh tuzi; TUZ II To’g’ri, rost, kelishgan; TUZ III tekis yer, dala. Masalan: Jon yora qilurg’a ul ko’yub yuz,

Pand ahli sepib yarosig’a tuz. (“Layli va Majnun”)

Andin chiqg’an aytti, tuz borg’an maqsadg’a yetti. (“Mahbub - qulub”)

Yana andoqki, tuz lafziki necha ma’ni, iroda qilsa bo’lur biri tuzki, o’q yo nayzadek nimani derlar. (“Muhokamatul-lug’atayn”)

Tamoshog’a qo’yub el ul sifat yuz,

Ki kisratdin ko’rinmay tog’ ila tuz. (“Farhod va SHirin”)

A.Navoiy asarlarida fors-tojik va arab tili birliklaridan tashkil topgan omonim terminlar ham farqlanadi. Arabcha omonim terminlar guruhiga dur misol bo’ladi. Bu termin quyidagi ma’nolarda qo’llangan:

DUR I a. – marvarid, inju. DUR II (u cho’ziq aytiladi) uzoq, yiroq. Masalan:

Sorig’ gul uza sabuhi yomg’ur,

Oltun tabaq icha ko’rguzur dur. (“Layli va Majnun”)

Bu baytda dur termini marvarid, inju ma’nosini ifodalagan. Quyidagi baytda uzoq, yiroq ma’nosida kelgan:

Layli g’amidin qilib tafakkur,

Yuz baytu g’azal deb o’ylakim dur. (“Layli va Majnun”)

Fors-tojik tili birliklaridan tashkil topgan omonim ma’danshunoslik terminlarga xoro / xora, ro’y terminlari kiradi.

Xoro/xora termini qattiq tosh (rus. granit)ni anglatadi. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida “tovlanib turadigan, qiymatbaho ipakli to’qima” ma’nosida ham uchraydi. Masalan: Mushkka hargis teridin or emas,

La’lg’a ham xoradan ozor emas.(Hayrat ul-abror)

A.Navoiy asarlarida qo’llangan ro’y termini quyidagi ma’nolarni anglatadi: RO’Y, RO’ I f. Yuz, bet. RO’Y II f. qo’rg’oshin va qalay aralash metall qotishmasi birinj bronza. Masalan: Mag’rib sari mehr aylagach ro’y,

Surdi cho’pon hasham sari qo’y. (“Layli va Majnun”)

K- ey dilshudalarg’a oshno xo’y,

Boshdin-oyog’ingga oshno ro’y. (“Layli va Majnun”)

Ichinda namudor andoq tilisi,

Kim ul hufra kunjida bir ro’y jism. (“Saddi Iskandariy”)

**Xulosa va takliflar**. Misollar tahlilidan anglashiladiki, Alisher Navoiy asarlarida qo’llangan omonim xususiyatli ma’danshunoslik terminlari badiiy tasvir vositasi sifatida poetik qimmatga ega bo’lgan. Tilimizning boyligi, serjiloligi shoirning har bir til birliklarini, xususan, ma’danshunoslik terminlarini ham, qo’llashdagi mahoratida o’z aksini topganligini ko’rishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019.
2. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан д-ри (DSc)… дисс. автореф. – Тошкент, 2021.
3. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати.–Тошкент, 1972.